*Mecalisü'n-Nefais*'i İlk Türkçe şairler tezkiresidir. (Tezkire; kelime anlamıyla "zikredilen, zikri geçen" anlamına gelen, kişilerin biyografisini çeşitli yönleriyle subjektif veya objektif ele alan eserlerdir.) Beş yüz ellinin üzerinde, çoğunlukla çağdaş ozanların

(şairlerin) yaşam öyküsü (biyografik) ve kısa hikâyeleri içeren eser çağdaş Timur kültürü tarihçilerine altın bir bilgi kaynağı oluşturur.

*Nesayimü'l-Mahabbe min Şemayimi'l-Fütüvve* şairin tezkire türünden ikinci eseridir. Bu iki tezkire ile ilgili yayınlar:

Ganieva Suyima, V. Zohidov (hzl.) (1961). Alî Şîr Nevâî, *Mecâlisü'n-Nefâis*. Taşkent: Özbekistan SSR Fahlar Akademisi

Eraslan, Kemal, *Mecalisü'n-Nefais I* (Giriş ve Metin), II (Çeviri ve Notlar), Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara, 1994.

Eraslan, Kemal, *Nesayimü'l-Mahabbe min Şemayimi'l-Fütüvve*, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara, 1996.

## **6. Dinî-Ahlakî Eserleri.**

*Münacat*; Tanrı-kul ilişkisini konu alır.

*Çihil Hadis*; Cami'nin aynı addaki Farsça eserinin dörder mısralık kıtalar halinde yapılmış tercümesidir. Tanrı-peygamber ilişkisini anlatır.

*Nazmü'l-cevahir*; Hz. Ali'nin sözlerini rubai olarak ifade eder.

Türk, Vahit, Alî Şîr Nevâyî, *Münacat, Çihil Hadis* (Kırk hadis), *Nazmü'l-Cevâhîr, Sirâcü'l-Müslimîn* Türk kültürünü Araştırma Enstitüsü 11 Dil Araştırmaları, 2017.

*Lisanü 't-tayr*; tasavvuf düşüncesini temel alır. Bu düşüncesinin temeli olan Tanrının kişide belirmesi eserinin ana temasıdır. Bu eserde kuşların hikâyesi aracılığıyla tasavvufî yaşam ve inanç anlatılmak istenmiştir.

Canpolat, Mustafa, Alî Şîr Nevâyî, *Lisânü't-Tayr*, Ankara: TDK Yay., 1995.

*Mahbubü'l-Kulub* adlı eseri doğrudan insanı ve insan gruplarını ifade eden meslekleri konu edinmiştir: Ahlak ve nasihat kitabı görünümündeki bu eserde, padişah, devlet adamları, kadılar, müftüler, müderrisler, tabipler, şairler, kâtipler, imamlar, hafızlar, müneccimler, tacirler, ekiciler, dilenciler, kuşçular vb. anlatıldıktan sonra, eserin ikinci bölümünde, iyi-kötü huylar çevresinde devrin tipleri ve insan karakterlerini irdeler.

Çöktü, Güzin, Alî Şîr Nevâyî, *Mahbûbu'l-Kulûb*, Yüksek Lisans Tezi, Ankara: Gazi Üniversitesi, 1985

Ölmez, H. Zuhâl, Alî Şîr Nevâyî, *Mahbûbu'l-Kulûb*. Doktora Tezi. Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 1993.

*Sirâcü'l-Müslimîn*; 213 beyit hacminde manzum bir akaid risalesidir. Halka müslümanlığı iyice tanıtmak, onlara dini görevlerini öğretmek için kaleme alınmıştır. Eser üzerine, Tanju Oral Seyhan'ın bir çalışması vardır:

Seyhan, Tanju Oral, "Ali Şîr Nevâyî -*Sirâcü'l-Müslimîn* I (Giriş-

Karşılaştırmalı Metin”), Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, Cilt: 2, Sayı: 4, Ankara, 2005.

### **7. Tarihi Eserleri.**

*Tarih-i Enbiyâ ve Hükemâ*; Halife-reaya ilişkisini ele alır.

Abik, A. Deniz. *Alî Şîr Nevâî'nin Risâleleri: Târîh-i Enbiyâ ve Hükemâ, Târîh-i Mülûk-i Acem, Münşeât*. Doktora Tezi. Ankara: Ankara Üniversitesi, 1993

Türk, Vahit, *Ali Şir Nevâyî Tarih-i Enbiyâ ve Hükemâ* (Metin-Aktarma-Dizin-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 2018.

*Tarihi Mülûk-i Acem* (Efsanevi İnan Tarihi) ile tarihi ve mitolojik şahsiyetleri ele almıştır.

Türk, Vahit, *Kitab-ı Târîh-i Mülûk-i Acem*, Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 2020.

Altun, Hilal Oytun, *Tercüme-i Tevârîh-i Mülûk, Nevâyî'nin Fars Hükümdarları Tarihi*. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı, 2020.

*Zübdetü't-Tevârih*; Nevâyî'ye ait olduğu bilinen fakat bugün elimizde bulunmayan eserin ya Türk sultanları tarihi hakkında ya da Hüseyin Baykara'ya dair bir eser olduğu üzerinde durulmaktadır.

### **8. Biyografik Eserleri.**

*Halat-ı Seyyid Hasan Erdeşir* Big adlı eser ile hayatında önemli bir yer tutan babası yerine koyduğu ve Timurilerin emirlerinden olan Hasan Erdeşir'in üstün karakteri, olgunluğu ve hayatını anlatan eseridir.

Eraslan, Kemal “Nevâyî'nin Hâlât-ı Seyyid Hasan Big Risâlesi”. *Türkiyat Mecmuası*, XVI: 89-110, 1971.

*Hamsetül-Mütehayyirin*; Dostu, piri, mürşidi Molla Câmî'nin ölümü üzerine yazılan *Hamsetü'l-Mütehayyirîn*, mukaddime, üç bölüm ve hâtimedden oluşmaktadır. Nevâyî, birinci bölümde Molla Câmî ile olan dostluğundan, ikinci bölümde aralarında gerçekleşen mektuplaşmalardan, üçüncü bölümde ise Câmî'nin eserlerinden bahsetmiştir. Eser üzerine A. Deniz Abik tarafından bir doçentlik tezi (2000) hazırlamıştır:

Abik, A. Deniz, Alî Şîr Nevâî, *Hamsetü'l-Mütehayyirîn* (Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin). Doçentlik Tezi. Adana: Çukurova Üniversitesi, 2000.

*Halat-ı Pehlevan Muhammed*; Çok yakın dostu, şair, bestekâr ve tabip Pehlevân Muhammed'in ölümü üzerine kaleme aldığı *Hâlât-ı Pehlevân Muhammed* isimli risâlesinde onun hayatını ve kendisine dair hatıralarını anlatmıştır. Bu risâle de Kemal Eraslan tarafından

yayımlanmıştır:

Eraslan, Kemal “Hâlât-ı Pehlevan Muhammed”, *Türkiyat Mecmuası*, XIX 99-164 ss., 1980.

### **9. Belgeler.**

Vakfiye; eseri, şairin vakıf senedi metnini içermektedir.

Türk, Vahit, *Vakfiye* (İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım), Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 2015.

*Münşeât*; Nevâyî'nin mektupları topladığı eserinin adıdır. A. Deniz Abik'in doktora çalışmasında ele alınmıştır:

Abik, A. Deniz, *Alî Şîr Nevâyî'nin Risâleleri: Târîh-i Enbiyâ ve Hükemâ, Târîh-i Mülûk-i Acem, Münşeât*. Doktora Tezi. Ankara: Ankara Üniversitesi, 1993.

### **Kaynaklar**

Clauson, S. G., *Sanglax*, A Persian Guide to the Turkish Language by Muhammad Mehdî Xan, London, 1960.

Eckmann, J, “Nevâyî'nin İlk Divanları Üzerine”, *Harezm Kıpçak Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar*, Yayına Hazırlayan: Osman Fikri Sertkaya, TDK Yay., 1996, ss. 207-191. Ankara.

Ganieva, S, *Nevadirü'n-Nihaye*, Özbekistan Fenler Akademi Neşriyatı, Taşkent, 1991

Munirov, K., Nasirov, A. 1970. *Ali Şer Nevâyî Asarlarının ÖSSR Fenler Akademiyası Şarkşinaslık İnstüti Toplamıdaki Kolyazmaları*. Taşkent: Fen.

Özkan Nalbant, B., *Nevadirü'n-Nihaye* (İnceleme, Metin, Dizin), Ankara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, yayımlanmamış doktora tezi, Ankara, 2005.

Özkan Nalbant, B. 2017. “Türkistan, İran, Anadolu Sahası Doğu (Çağatay) Türkçesi Sözlük ve Gramerleri”, *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* 14 (4): 118-145.



## Works of Ali Şir Nevai and its Manuscript Nevadirü'n-Nihaye

Bilge Ozkan Nalbant<sup>1</sup>

### Abstract

Ali Şir Nevâyi, the most famous poet and writer of the Turkic world, is one of the most prominent personalities of the Turkic world, who fit 120,000 verses into his 60-year life and raised the Turkish language to the status of a poetic language. While the Nevayi collection was still alive, Nevayi dictionaries were spread in all Turkish geographies, from the geography of Turkestan to present-day Iran, India and Anatolia. With these features, Nevayi is a person who will be an example not only to the Turkish world but to the whole world. Its effects have been seen in Russia, Kazan, Turkestan, Turkey, and all Turkish-speaking regions. Nevadirün-Nihaye, whose works are one of these works and whose handwriting has been accepted, and the work done in Turkey, formed the main theme of this statement.

**Key words:** *works of Ali Shir Nevai, manuscript Nevadirü'n-Nihaye, In Turkey Nevai studies.*

### References

- Clauson, S. G., *Sanglax*, A Persian Guide to the Turkish Language by Muhammad Mehdi Xan, London, 1960.
- Eckmann, J, "Nevai'nin İlk Divanları Üzerine", *Harezmi Kıpçak Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar*, Yayına Hazırlayan: Osman Fikri Sertkaya, TDK Yay., 1996, ss. 207-191. Ankara.
- Ganieva, S, *Nevadirü'n-Nihaye*, Özbekistan Fenler Akademisi Neşriyatı, Taşkent, 1991
- Munirov, K., Nasirov, A. 1970. *Ali Şer Nevâyî Asarlarının ÖSSR Fenler Akademiyası Şarkşinashlık İnstitüsü Toplamıdaki Kolyazmaları*. Taşkent: Fen.
- Özkan Nalbant, B., *Nevadirü'n-Nihaye* (İnceleme, Metin, Dizin), Ankara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, yayımlanmamış doktora tezi, Ankara, 2005.
- Özkan Nalbant, B. 2017. "Türkistan, İran, Anadolu Sahası Doğu (Çağatay) Türkçesi Sözlük ve Gramerleri", *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* 14 (4): 118-145.

<sup>1</sup> *Bilge Ozkan Nalbant* – Prof. Dr. Pamukkale University, Faculty of Arts and Sciences, Department of Contemporary Turkish Dialects and Literatures, Denizli, Turkey.

**E-mail:** bilge.nalbant@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0001-6332-1635

**For citation:** *Ozkan B. Nalbant*. 2021. "Works of Ali Şir Nevai and its Manuscript Nevadirü'n-Nihaye". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 35–48.

## Rus tilidagi turkiy o'zlashmalar

Baxtiyor Abdushukurov<sup>1</sup>  
Lobar Aralova<sup>2</sup>

### Abstrakt

Dunyo tilshunosligida qiyosiy-tarixiy aspektda bir qator izlanishlar olib borilgan. Ushbu maqolada rus yerlarida yuzlab yillar davom etgan mo'g'ullar hukmronligi, Oltin O'rda davlatchiligi, Amir Temur saltanatining mo'g'ul xonliklari hududlariga ko'chishi natijasida rus tiliga o'zlashgan so'zlarning tarixiy ildizlari, ulardagi fonetik, leksik, semantik o'zgarishlar borasida so'z boradi. Qiyosiy, qiyosiy-tarixiy va chog'ishtiruv kabi tilshunoslikning bir qator metodlaridan unumli foydalangan holda qardosh xalqlarda mavjud bo'lgan leksemalarga tayanib har bir misol izohlab beriladi. Rus tiliga o'zlashgan ba'zi turkizmlarning etimologiyasi ko'rsatilgan, leksemalarning morfologik xususiyatlari ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *turkiy o'zlashmalar, mavzuviy guruhlar, oziq-ovqat nomlari, ichimlik nomlari, turkiy so'zlarning etimologiyasi, qo'shma so'zlar.*

### Kirish

Tilning lug'at tarkibi rivoji ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. So'z boyligida davrlar o'tishi bilan ichki va tashqi omillar ta'sirida o'ziga xos o'zgarishlar yuz beradi. O'zlashma leksema biror yangi tushuncha va xabarni anglatrsa, u yoki bu semantik yukka ega bo'lsagina tilga qabul qilinishi mumkin.

O'zlashmalar tilning lug'at boyligini oshiradi, yangi o'zaklar, so'z birikmalari va terminlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, so'z muayyan tilga kirib kelgandan so'ng o'sha tilning fonetik, orfografik, semantik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Aynan mana shu adaptatsiya o'zlashmalarni xalqaro so'zlardan ajratib turadi. Xalqaro so'zlar esa o'zida begona tilga xos jihatlarni saqlab qoladi.

---

<sup>1</sup> *Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** [abdushukurov@navoiy-uni.uz](mailto:abdushukurov@navoiy-uni.uz)

**ORCID ID:** 0000-0002-6964-0714

<sup>2</sup> *Aralova Lobar Akbar qizi* – magistrant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** [lobar.aralova98@gmail.com](mailto:lobar.aralova98@gmail.com)

**Iqtibos uchun:** Abdushukurov, B. B., Aralova, L. A. 2021. "Rus tilidagi turkiy o'zlashmalar". *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 49–67.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili so'z boyligining takomillashuvida tashqi manba, ya'ni boshqa tillardan kirgan so'zlar sezilarli o'rin egallagani, uning lug'at tarkibida sanskrit, sug'd, xitoy, yunon, arab, mo'g'ul, fors-tojik, qadimiy yahudiy, rus va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar xususida manbalar, kitoblar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy tadqiqotlar hamda lug'atlarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Biroq turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining boshqa xalqlar tili taraqqiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar u qadar ko'p emas.

Holbuki, bizning zaminda yetishgan Xorazmiy, Forobiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy kabi buyuk mutafakkirlar arab tilida asarlar yozib, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Mumtoz adabiyotimiz tamal toshini qo'ygan vatandoshlarimiz forsiy tilda ijod qilib, bu tilni she'riyat tili darajasiga ko'tarilishiga ko'maklashgan. O'zbek adabiy tilining asoschisi, yigirma olti mingdan ortiq so'zga ajoyib ma'nolar yuklagan hazrat Navoiy bu haqda o'zining "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida shunday yozadi: "...turkning ulug'idin kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar, andoqkim o'z xurd ahvolig'a ko'ra ayta olurlar, balki ba'zi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar. Ammo sort ulusining arzolodin ashrofig'acha va omiysidan donishmandig'acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg'onining ma'nisini bilmaslar" [Навоий 1967, 108].

Ko'rinib turibdiki, turkiy aholining katta-yu kichigi, xizmatchisidan tortib amaldorigacha forsiy tilni yaxshi bilgan va bu tilda chiroyli, ravon hamda benuqson so'zlashgan, shoirlari go'zal she'rlar bitgan. Biroq forsiyzabon ulusning oddiy kishisidan e'tiborli insonlarigacha, ilmsizidan donosigacha turkiy tilda so'zlay olmagan va gapirganlarining ham ma'nosini tushunmagan.

Turkiy tilga oid so'zlarning qardosh bo'lmagan xalqlar tiliga o'zlashgani, ular rivojiga ta'siri to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchratamiz. Shu o'rinda bir necha misollarga murojaat qilsak:

**dag'** – qoramol va boshqalarga bosilgan tamg'a. Forslar bu so'zni turklardan olganlar. Chunki forslarda turklardagidek qoramol yo'q. Shuning uchun bu so'zga ularda zarurat ham bo'lmagan. Men bu so'zni musulmonlar chegarasida eshitdim [ДЛТ 1960-1963, III, 167].

**Yalma** – paxtali to'n, forslar buni turkiy xalqlardan olganlar. Arablar esa forslardan olib yalmaq shaklida qo'llaydilar. Arablar **q** ni **h** ga aylantirganlar. Chunonchi: kandani xandaq, yarani yaraq qilib olganlar" [ДЛТ 1960-1963, III, 41].

Bu an'ananing keyingi davrda ham davom etganini Alisher Navoiy ijodi misolida ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkir o'zining yuqorida zikr etilgan asarida turkiy tilning forsiy tildan qolishmasligini, uning til imkoniyatlari boyligi, bu tilda ham go'zal adabiyot namunalari yaratish mumkinligini ko'rsatish barobarida turkiy tildan forsiy tilga o'zlashgan so'zlarni qayd etib o'tadi. Asarda bu haqda quyidagi jummalarni o'qiydiz: "Yana ot anvoidaki, tubuchoq va arg'umoq va yaka va yobu va totu yo'sunluq - borini turkcha-o'q ayturlar. ...Yana ba'zi yemaklardan qaymog' va qatlama va bulamog' va qurut va uloba va mantu va quymog' va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar" [Навойй 1967, 115].

Mutaxassislarning e'tirof etishicha, o'zlashmalarning til tizimiga singib ketishi ma'lum sharoit va omillarga bog'liq. Jumladan, so'z uni qabul qilgan tilning amaldagi yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi; fonetik, semantik, grammatik me'yorlari, kategoriyalariga muvofiq kelishi; o'z yasash sistemasida faol ishtirok etishi; o'zlashma ma'nosi aniq bo'lishi; chet so'z uni o'zlashtirgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak.

Boshqa tildan kirib kelayotgan leksik birliklarning mustahkam o'rnashib, singib ketishi uchun qo'yiladigan mazkur talablar barcha tillarga xos. Xususan, rus tilida ham o'zlashmalar qaysi tildan kirganligiga qaramay yuqoridagi talablarga bo'ysunadi.

Rus xalqining leksik qatlamiga singib ketgan turkiy so'zlar borasida dastlab Rossiyada, keyinchalik Qozog'istonda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

### **Rus va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalar**

Qadimgi davrlarda boshlangan slavyan va turkiy xalqlarning o'zaro munosabatlari yozuv yodgorliklari, shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda aks etadi. Bu manbalar xalqning tarixiy xotirasini tiklashga imkon beradi va rus tili tarixidagi leksik-semantik jarayonlarni tavsiflaydi.

Darhaqiqat, turkizmlar rus tiliga antik davrlar, yozma yodnomalar paydo bo'lishidan ancha oldin kirib kelgan. Ularning tarixi hozirgi Rossiya hududi, Volga va Qora dengiz cho'llari bilan chegaradosh o'rmon-dasht mintaqalarida yashovchi xalqlarning ajdodlariga borib taqaladi.

Turkolog N.Baskakov turkiy qabilalarning Sharqiy slavyan tillarida, rus, ukrain va belorus lug'atlarida sezilarli iz qoldirganligini hamda shu tillarning frazeologiyasi va grammatikasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatganligini qayd etadi.

Dastlab rus tilidagi turkizmlar (qozoq, tatar, qrim-tatarcha,

turkcha soʻzlar) haqida XV-XVIII asrlarda yozila boshlandi. Bu soʻzlarning rus tiliga kirishi rus xalqining Qozoq, Qrim xonliklari va Turkiya bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi, oʻsishi natijasida yuz berdi. Shunday qilib, XIX asrga qadar turkiyzabon davlatlar bilan til aloqalari mustahkamlanib, Rossiyada turkiy tillarni biladigan tarjimonlar va diplomatik xodimlar oʻqitildi.

N.A.Baskakov tasnifiga asoslanib, rus va turkiy tillar aloqalaridagi rivojlanishni quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

Birinchi, Kiyev Rusidan oldingi davr (I-VIII asr)da slavyan lahjalarining eron va fin qabilalari dialektlari hamda turkiy qabilalar lahjalari bilan oʻzaro munosabatlari shakllangan.

Ikkinchi, Kiyev Rusining paydo boʻlish davri. Qadimgi rus tilining, birinchi navbatda, turkiy qabila ittifoqlari - pecheneg tillari, keyin esa polovets (qipchoqlar)lar tili bilan yaqin aloqalari yoʻlga qoʻyilgan. Bu davrda *basurman, poyabzal, qamish* kabi turkiy soʻzlar oʻzlasha boshlagan.

Uchinchi, moʻgʻullar istilosidan keying davr. Bu vaqtda qadimgi rus knyazliklari Oltin Oʻrdaga qaram boʻlgan va mazkur hududlarda keng tarqalgan turkiy tilning qipchoq lahjasi rus tiliga jiddiy taʼsir koʻrsatgan. Natijada *ataman, pul, soqchi, hoji, xon* singari koʻplab istilohlar kirib borgan.

Toʻrtinchi davr - sobiq Qozon, Astraxan, Sibir va Qrim xonliklari, shuningdek, Kavkaz va Oʻrta Osiyo xalqlarining Rossiyaga qoʻshib olinishi. Ushbu davrda *mayiz, xanjar, salla* kabi leksemalar qardosh turkiy tillar orqali rus tili lugʻat tarkibidan oʻrin olgan.

Beshinchi, sobiq SSSR xalqlari oʻrtasida aloqalarning faollashuvi, yaʼni XX asrning boshidan to hozirgi kungacha boʻlgan davr. Bu davrda *akin, basmach, dushman* singari soʻzlar zamonaviy rus tiliga oʻzlashdi.

XVII - XVIII asrlarning oxirlariga kelib tilshunos olimlar turkizmlarni emas, aksincha, Yevropa tillaridan kirib kelgan soʻzlarni tadqiq qila boshladi. Chunki turkiy leksemalar rus tiliga oʻzlashgan soʻzlar qatorida Yevropa tillaridan keyin ikkinchi oʻrinda turardi. Shunday boʻlsa-da, keyinchalik rus lugʻatlarida mavjud turkizmlar aniqlandi va maxsus lugʻatlar yaratildi. Turkiy soʻzlarning barqaror qatlami rus tilining leksik tizimida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Kezi kelganda aytish kerakki, Gʻarbiy Yevropa kabi Sharq atamalari ham rus xalqlarining nutqi va yozuvini mustahkamladi.

Hozirgi Oʻzbekiston bilan Rossiya oʻrtasidagi oʻzaro etnik aloqalar tarixi xonliklarning paydo boʻlish davridan boshlanadi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan klassifikatsiyalar bizga oʻzbek va rus tilidagi aloqalarni davriylashtirishga imkon beradi. Tasniflarga koʻra, ikki til aloqalari tarixi toʻrt davrni oʻz ichiga qamrab oladi:

1) XVI asrdan, yaʼni Oʻzbekiston hududida xonliklarning

vujudga kelishidan mamlakatning Rossiyaga qo'shilib olinishigacha bo'lgan davr.

2) XVIII asrdan XX asrgacha bo'lgan davr. Bu vaqtda Xiva, Buxoro xonliklari hamda Rossiya o'rtasida diplomatik va savdo aloqalari o'rnatiladi.

3) Sovet davri.

4) Zamonaviy davr. U XX asr oxiri (O'zbekiston Respublikasi suverenitetini qo'lga kiritishi) dan hozirgi kungacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Albatta, davrlarning har biri ikki til aloqalarining intensivligi va mavjud lug'atlar tarkibi bilan farq qiladi.

### Tahlil, natija va munozara

Turkshunos olim Yusuf Azmun "So'z ko'kimiz, o'z ko'kimiz", ya'ni "So'z tomirimiz, o'z tomirmiz" degan kitobida turkiy tillar leksikologiyasi, uning boshqa tillar bilan aloqalari haqida fikr bildiradi. Xususan, "gilam" ma'nosidagi turkiycha "qavur" rus tiliga "ковёр" bo'lib o'tganini, shuningdek, *kerpich* hamda *ayva* so'zlari rus tiliga ko'chib, turkiy tilda ularning o'rnini forsiy "g'isht" va "behi" so'zlari egallaganini ta'kidlaydi. Ayni paytda, tilshunos olim forsiy tiliga bir necha ming turkiy so'zlar kirib borganiga misollar keltiradi. Ayniqsa, toponimlar masalasida Eronda "Qora" bilan boshlanadigan yer nomlari ko'p: "Qoratepa", "Qorako'l", "Qoratog'", "Qorabog'". Turkiy so'zlar hatto Attila davrida Ovro'pa tillariga o'tgan. Masalan, *king* – *xon so'zi*, *qang* – *ota* so'zidan shakllangan. Binobarin, ko'pgina sohalarga doir bir qator leksemalar borki, ular turli davrlarda rus tiliga o'tib, narsa-predmet, hayvonlar nomi va rangni bildirish uchun xizmat qilgan. Xususan, "biror narsani (yog'ochni, go'shtni va shu hokazo) chopish, kesish, yorish uchun ishlatiladigan, tig'i dastasiga parallel metal asbob" semasini beruvchi *balda* leksemasi XVI - XVII asrlarda usmonlilar imperiyasining ulkan madaniy ta'siri natijasida rus tiliga o'zlashgan deb qaraladi. Ammo turkiy xalqlar orasida bu so'z X-XIV asrlarda faol qo'llanilgan. Masalan, "Qutadg'u bilig" asarida *baldu* shaklida kelgan: *Qilič baldu boldi bu el saqčisi – qilich va bolta el, mamalakat qo'riqchisi bo'ldi* [ДТС 1969, 80].

*Kunakov* antroponimining asosi sanalgan *kunak* leksemasi rus tilida "qo'noq, mehmon", "tutingan og'ayni" ma'nolarini anglatadi. Aslida bu so'z turkiycha *qonuq* (qon+(u)q) bo'lib, "Devonu lug'otit turk" asarida "mehmon" ma'nosini bildirgan: *Nelük arsiqar sen aja öldäči özün iki künlük qonuq boldači – Nimaga mag'rurlanasan, ey o'luvchi, o'zing ikki kunlik mehmon bo'luvchisan* [ДЛТ 1960-1963, I, 365]. Ayni paytda, bu so'z devonda "mehmondorchilik, ziyofat" ma'nosida ham qo'llangan. O'g'uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so'z "uy egasi yoqtirmagan holda birovning uyida turish" ma'nosida ishlatilgan [ДЛТ 1960-1963, I, 320]. Hozirda Qashqadaryo,

Surxondaryo shevalarida “mehmondorchilik, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” ma’nolarida, Qoraqalpoq shevalarida “mehmon” ma’nosida qo‘llaniladi [ЎХШЛ 1971, 367].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *kärpich* “kirpich, g‘isht” ma’nosini ifodalagan: *bishig‘ kärpich – pishiq g‘isht* [ДЛТ 1960-1963, I, 424]. Bu leksema rus tili so‘z boyligidan *купнуч* tarzida o‘rin olgan. Mazkur atama hozirgi kunda zamonaviy o‘zbek adabiy tilida ishlatilmasa-da, Xorazm shevalarida saqlanib qolgan [ЎХШЛ 1971, 176].

Rus tilida hayvon, o‘simlik yog‘i, sut va ma’dandan tayyorlangan moy *жир* so‘zi bilan yuritiladi. Atama asli turkiy so‘z bo‘lib, ozg‘in kishi yoki hayvonlarga nisbatan “bunga hech jir bitmayapti” yoki “buning hech jiri yo‘q” degan jummalarni ko‘p bor tilga olamiz. Mazkur leksema aksariyat kishilar tomonidan yog‘ so‘zining ruscha muqobili sifatida qabul qilingani uchun adabiy tilda kam qo‘llanadi [Русамов 2010, 96]. *Jir* istilohining turkiy so‘z ekanligi Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida ham qayd etilgan: *ashichta jir yo‘q – qozonda yog‘ yo‘q* [ДЛТ 1960-1963, I, 313].

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ning 1983-yilgi nashrida *najdak* so‘ziga shunday izoh berilgan: NAJDAK m.r. “najdak, jilvir, qumqayroq”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *jilvir* so‘zi quyidagicha tavsiflanadi: JILVIR, jilvir qog‘oz qayroqqum qoplangan qog‘oz yoki mato (buyumlarning sirtini silliqlash, sayqallash, jilolash uchun ishlatiladi) [Шукр 2018, 191]. *Najdak* ham aslida turkiy so‘z bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mayda va yupqa, donador kristallardan iborat tog‘ jinsi deb izohlangan [ЎТИЛ 1981, I, 4]. “Devonu lug‘otit turk” asarida bu so‘zning *nijdag‘* shakli uchrab, “qayroq tosh” semasini beradi [ДЛТ 1960-1963, I, 432].

“Orqa va yon tomonlari yopiq bo‘lib, ichiga o‘t yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o‘rnatiladigan qurilma” semasini beruvchi *o‘choq* leksemasi rus tiliga *ochag* shaklida o‘zlashgan va “o‘choq”, “oila, o‘z uyi”, “manba, makon” kabi ma’nolarni bildiradi. “Olov” ma’nosidagi o‘tva-chuq kichraytirish qo‘shimchasidan hosil bo‘lgan mazkur so‘z “Devon”da *öçaq* shaklida uchraydi [ДЛТ 1960-1963, I, 95]. *Ochagov* familiyasining hosil bo‘lishida ham ushbu istiloh o‘zak vazifasini o‘tagani, shubhasiz.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *tarxan* - soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan; imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug‘, zot yoki mansabdor) tarzida ta’riflanib, mo‘g‘ulchaga nisbat berilgan. Ushbu atama turkiy bo‘lib, dastlab moniy yozuvi yodgorliklarida *tarqan* shaklida “unvon” semasida keladi [ДТС 1969, 538]. Qolaversa, rus tili etimologik lug‘atlarida leksemaning turkiy tildan o‘zlashganligi qayd etilgan. Leksemaning *darxon* fonetik varianti xalq og‘zaki ijodi, dostonlarda qo‘llanishda bo‘lganini

ko'ramiz: *Endi senga timsol aytay bir alvon, Men ketganicha, o'zing Chambilda darxon. "Malikai ayyor"* [ЎТИЛ 1981, I, 234]. "Devonu lug'otit turk" kitobida Mahmud Koshg'ariy *tarxan* atamasi "bek" ma'nosida islomiyatdan oldin qo'llanganini ta'kidlaydi va yana bir joyda uning arg'ucha ekanligini uqtirib o'tadi [ДЛТ 1960-1963, I, 409].

Turkiy *surqach* – luk deyilgan daraxtning siqib olingan shirasi. U bilan qilich, xanjar va katta pichoqlarning dastalari birlashtiriladi [ДЛТ 1960-1963, I, 423]. Zikr etilgan leksema rus tiliga *surguch* fonetik shaklida kirib borgan: *запечатать сургучом* – surguchlamoq, surguch bilan pechatlamoq.

**Inju** ("dur, marvarid") XII asrda ma'lum bir tarixiy taraqqiyot davomida rus tiliga fonetik o'zgarishga uchragan holda, ya'ni *jemchug* shaklida o'zlashgan. Leksema uyg'ur yozuvidagi Berlin qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan manbalarda *yenju* shaklida kelgan: *Qizil yenju* [ДТС 1969, 256]. "Devon"da *yenju*, *jinju* fonetik variantlari zikr etilib, ularning birinchisi turklar, ikkinchisi esa o'g'uzlar tilida muomalada bo'lgan [ДЛТ 1960-1963, I, 67]. Ayni paytda, Mahmud Koshg'ariy lug'atida *yenju* so'zining "oqsoch, cho'ri" semasi ham borligi haqida ma'lumot mavjud [ДТС 1969, 256].

Rus tilidagi **tovar** – "sotiladigan narsa, mol yoki tovar" so'zining dastlabki shakli *tavar* bo'lib, "Devonu lug'otit turk" asarida "jonli, jonsiz mol, tovar" [ДЛТ 1960-1963, I, 343], "pora, boylik" ma'nolarini anglatgan. *Tamu qapug'in achar tavar – pora do'zax eshigin ochadi*, nega boshqalar ochmas ekan. Bu maqol ishi bitishini istagan odam pora berishi kerak degan ma'noda qo'llanadi [ДЛТ 1960-1963, III, 252]. Leksemaning kelib chiqishi Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi "tabmaq" fe'li bilan bog'liq. "Tabmaq" fe'li "topmoq; ishlab topmoq; ega bo'lmoq" kabi lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, zikr qilingan so'z asosida rus tilida yangi bir leksema – *товаруш* so'zi yasalgan: *tovarish* – "tovar + ish", ya'ni "tovar – o'rtoq", tovar-mol vositasida birga ish qiladigan sherik.

T.Yefremovning "Современный толковый словарь русского языка" kitobida tyufyak so'ziga shunday izoh beriladi: 1) "yumshoq to'shak; 2) befarq odam; 3) daryo bo'yini himoya qilish uchun ko'priklar, to'g'onlarga qo'llaniladigan egiluvchan qopqoq [Ефремова 2005, 463]. Mahmud Koshg'ariy lug'atida atamaning toshak varianti kuzatiladi: toshak toshadi – to'shak soldi, yozdi [ДЛТ 1960-1963, III, 282]. Y.Shipova Dal, Dmitrevning fikrlariga tayangan holda *to'sha*- fe'lga ot yasovchi -k qo'shimchasini birlashtirish yo'li bilan hosil qilingan mazkur leksemaning rus xalqiga turkiy xalqlardan kirib kelganini aytadi [Шипова 1976, 147]. N.Baskakov Tyufyakini familiyasini izohlaganda, aynan mana shu so'z turkiylardan



o'zlashgani, bu ism erinchoq, dangasa, faqat uyquni yaxshi ko'radigan odamlarga nisbatan qo'yilishini yozadi [Баскаков 1979, 218].

"Kabob" ma'nosidagi **shashlik** so'zi XVIII asrda rus tiliga o'zlashgan. XI asrda *shish* leksemasi tutmoch (xamir osh, ugra osh) yeydigan cho'p, qoshiq o'rnida qo'llaniladigan maxsus cho'pni ifodalagan [ДЖИТ 1960-1963, II, 326]. Mazkur leksema -lik so'z yasovchi qo'shimchasi bilan affiksatsiya usuli yordamida yasalgan: *shish+lik=shashlik*.

Tatar va boshqird xalqlarida bahorgi dala ishlari tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram – *sabanto'y* deb ataladi. Bu atama XIX asrda rus tiliga o'zlashgan bo'lib, *sabantuy* tarzida ishlatiladi. Mazkur so'z "ot+ot so'z turkumi" qolipi asosida kompozitsiya usuli yordamida yasalgan: *saban* – "omoch" + to'y "to'y, bayram". Turkiy xalqlarning eng katta an'anaviy bayramlaridan biri bo'lgan ushbu ayyom bahor bayrami Navro'z arafasida o'tkaziladi. Har yili O'zbekistonda tatar va boshqirdlar ushbu bayramni keng nishonlab kelmoqda. Marosimda an'anaviy kurash, arqon tortish, ustunga chiqish, qopda sakrash o'yini, chelakda suv tashish va ayollar o'rtasida bilak kurashi kabilar ko'plab odamlarni o'ziga jalb qiladi.

**Saban** istilohi "Devonu lug'otit turk" asarida quyidagicha ta'riflanadi: *saban* – qo'sh, qo'sh ho'kiz, omoch, bo'yinturuq. Bu so'z qo'sh bilan yer haydash ma'nosida ham qo'llanadi [ДЖИТ 1960-1963, III, 136]. Qayd etilgan atama, ya'ni *saban* rus tilida "saban, so'ka; omoch" semasida uchraydi.

**Cheburek** so'zi XIX asrda turkiy tillardan rus tiliga o'zlashgan. U ham affiksatsiya, ham kompozitsiya usulida yasalgan. Tatar millatida *börek* – *bürök* so'zi – "qoplamoq, ustini yopmoq" ma'nosini beruvchi "bör – bür" so'ziga harakatning natijasini bildiruvchi – aq//-ek qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan bo'lib, "toblamoq" ma'nosini beradi. Shu o'rinda aytish joizki, L.Budagov Pirogov familiyasi etimologiyasi xususida so'z yuritar ekan, uning *pirog* so'zidan kelib chiqqani va o'z navbatida mazkur atama turkiycha *börek* – *bürök* leksemasining fonetik varianti ekanini ta'kidlaydi [Будогов 1869, 277]. Qardosh turkiy tillarda, jumladan, no'g'ay, qrim-tatar, qoraqalpoq tillarida *bür* so'zi "qat-qat burma, achitilgan xamir" ma'nosida qo'llanilgan. Qrim-tatar tilida *chij* - *chig* "qiyma go'sht" + *bürök* < *chij bürök*, ya'ni "yog'li go'shtni xamirga o'rab pishirmoq" semasini bildiradi. Biroq zikr etilgan atama "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'zga tashlanmaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlaridan birini anglatuvchi **kolbasa** (kul basti – qovurilgan go'sht) turkiy qardosh xalqlardan rus tiliga XVIII asrda o'zlashgan. Istiloh – "qo'l+bosmoq" so'zlarining qo'shilmasi-dan hosil bo'lgan. So'z yasalish qolipi "ot+fe'l". Shipova ham tarix fani taqqiqochilarining fikriga tayangan holda "Rus tilidagi turkiy

so'zlar" kitobida mazkur leksemaning yasama ekanligini qayd etadi [Шипова 1976, 183]. Uning fikricha, *kolbasa* – kol (пыка) hamda *basu* (давить) so'zlaridan tarkib topgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa mazkur leksema quyidagicha tahlil qilingan: [r. kolbasa < t. qo'lbosti – tovada qovurilgan, toplab pishirilgan go'sht]. *Ichakka yoki sun'iy qobiqqa (plyonkaga) quyma, go'sht tiqib tayyorlangan ovqat mahsuloti* [ЎТИЛ 1981, II, 443].

O'rtasiga ingichka, uzun grafit joylangan cho'p shaklidagi, xat yozish, rasm solish, chizma chizish uchun ishlatiladigan yozuv, chizuv asbobi **karandash** deb yuritiladi. Ushbu so'z turkiycha qara- "qora" vatash – dash "tosh" degan ma'noni anglatadi. Rus tiliga XV asrda kirib borgan *karandash* – *qara tosh* bir vaqtlar grafit deb tushunilgan, keyinchalik *Karandashov* familiyasining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Dmitrev karandash so'zidagi "n" undoshini so'z o'rtasida orttirilgan tovush, deb hisoblaydi [Дмитриев 1962, 164]. Mazkur fikrlarni umumiyashtirib, shunday xulosa qilamizki, qalam grafit (qora tosh) dan tayyorlanganligi bois karandash "qora" va "tosh" so'zlaridan hosil bo'lgan.

**Tamg'a** so'zi rus tilida "belgi", "muhr", "savdo boji" ma'nolarini ifodalaydi. XIII asrda rus tiliga o'zlashgan tamg'a atamasi diplomatik aloqalarda faol qo'llangan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida shoh va boshqalarning tamg'asi, muhri sifatida izohlangan [ДЛТ 1960-1963, I, 400]. Turfon matnlarida bu so'z "muhr", "belgi" ma'nolarida uchraydi [ДТС 1969, 530]. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da leksemaning quyidagi semalari keltirib o'tilgan: "narsa, mol, mahsulot va shu kabilarni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishliligini ko'rsatish uchun qo'yiladigan, bosiladigan belgi"; "qadimda mahbuslarning tanasiga belgi qo'yish, bosish uchun qizdirib ishlatilgan asbob va shu asbobni bosishdan hosil bo'ladigan belgi, iz"; "ot, mol kabilarning tanasiga yoki tana a'zolaridan biriga belgi bosish uchun qizdirib ishlatiladigan asbob va shu asbobni bosishdan qoladigan belgi, iz"; "ochish, buzishga qarshi qo'yiladigan belgili narsa, surg'uch"; "gerb"; ko'chma "nimadandir qolgan, uning belgisi bo'lgan narsa, asar, iz"; ko'chma "qilmish, xatti-harakatga ko'ra taqilgan yorliq, belgi [ЎТИЛ 1981, III, 706]. Istiloh "bog'la-, yopishtir-" ma'nosidagi taq- fe'lidan -ma qo'shimchasi bilan yasalgan [ЎТЭЛ 2000, I, 320].

Kultegin bitiktoshi va "Qutadg'u bilig" asarida o'rganilayotgan so'z yasalgan **tamyachi** termini kuzatiladi. U alohida saroy lavozimlaridan bo'lib, "tamg'ani qo'riqlovchi shaxs, muhrdor" ma'nosini anglatadi: *oyuz bilgä tamyachi kelti* – muhrdor O'g'uz Bilga keldi [ДТС 1969, 530].

Rus tilidagi "boj olinadigan joy, idora, post" ma'nosini bildiruvchi **tamojnya** so'zi tarkibida ham *tamg'a* asosi yotadi.

Bugungi kunda tilimizga “bojxona” tariqasida o‘girilayotgan ushbu leksema qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishi turk xoqonligi davriga borib taqaladi. Turk xoqonligi bosib olgan hudud mollarini o‘z mamlakatlariga kirgizar ekan, o‘zga davlatdan keltirilgan barcha homashyoga o‘zlarining muhri, tamg‘asini bosishgan. Bu ishni chegarada amalga oshirgan. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan “tamojnya”ning vazifasi ham mamlakatlar o‘rtasidagi tovar-mol o‘tkazmalari bilan bog‘liq.

“Oldi-sotdi yoki to‘lov muomalalarida narx, baho, qiymat o‘lchovi bo‘lgan metal yoki qog‘oz belgi; aqcha” ma‘nosida rus tilida *dengi/denga* leksemasi istifoda etiladi. XIV asrda rus xalqlarida *tanga/tenge* – kichik kumush tanga va umuman pul ma‘nosida ishlatilgan. Bu so‘zning kelib chiqishi xususida turli qarashlar mavjud. Masalan, K.Fren *tanga/tenga* so‘zi bilan *tamg‘a* termini o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida yozgan; I.Dobrodomov pul birliklari mo‘ynali hayvonlar nomlaridan hosil qilingan degan fikrni ilgari suradi: *teying - tiyin* “olmaxon” va hokazo. M.Fasmer lug‘atida aks etgan keng tarqalgan versiyaga ko‘ra ruscha *dengi/denga* turkiy *tanga/tenga*, *tamg‘a* “muhr” leksemalaridan hosil bo‘lgan. Bu qarash tarixiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri, albatta. Qadimda Kushon va Baqtriya podshohligida davlat hukmdorlari tanga pullarni o‘zlarining muhrlari bilan chiqarishgan, ya‘ni tangada muhr aks etgan.

Oltin O‘rda davrida rus tiliga turkiy tillardan *kaftan*, *sharovari*, *sarafan*, *fata*, *fartuk*, *chulok* kabi bir necha so‘zlar o‘zlashgan. Shulardan biri *kaftan* bo‘lib, “qop to‘n”dan kelib chiqqan. XVI-XVII asrlarda rus tiliga o‘zlashgan *kaftan* leksemasini lug‘atshunos Dal “kaftan, movutdan tikiladigan uzun etakli erkaklar ustki kiyimi” deb izohlagan. Shuningdek, bu so‘z Kaftanov familiyasi uchun asos vazifasini o‘tagan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qaftan “to‘n, ustki kiyim” ma‘nosini anglatgan [ДЛТ 1960-1963, I, 408]. Alisher Navoiy asarlarida *qapton*, *xafton* [АНАТИЛ 1983-1985, III, 388] fonetik shakllari “sovut ostidan kiyiladigan va ikki yonidan bog‘lanadigan paxtali kamzul, katta to‘n” semasini ifodalagan:

*Hirqa aning jismida qapton bo‘lub,*

*Qaptoni tan jismi aning jon bo‘lub* [АНАТИЛ 1983-1985, IV, 388].

Bashmakov familiyasi uchun asos bo‘lgan *bashmak* qadimda rus dvoryanlari uchun maxsus ishlangan oyoq kiyimini bildirgan. Ushbu turkiy leksema XVI asrda rus tili lug‘at tarkibidan o‘rin olgan. *Bashaq* (chigilcha) leksemasi “Devonu lug‘otit turk” asarida “to‘piq” ma‘nosini anglatgan [ДЛТ 1960-1963, I, 359]. Ayni paytda, Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘uz va qipchoqlar mim (m) orttirib, *bašmaq* [ДЛТ 1960-1963, I, 433] shaklida qo‘llashini ta‘kidlaydi. Bu so‘z “Qisasi

Rabg'uziy" da "oyoq kiyimi" semasini bildirgan: *Yana biri aydi: almanj, bašmaq erniñ izzati bolur* [ҚР 1997, 204r16]. Atama "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "kigiz etik, piyma; umuman oyoq kiyimi" tarzida izohlangan [ДЛТ 1960-1963, I, 342].

Yog'ochi qattiq, shoxlari tig'iz joylashgan, bargi mayda va to'q rangli, qalin soya beradigan, suvsizlikka chidamli daraxt ma'nosida qo'llaniluvchi *karagach* so'zi rus tiliga XVII asrda o'zlashgan deb qaraladi. Rus manbalarida bu so'z *kara* "qora", *agach* "daraxt" tarzida tavsiflanadi. Qadimgi yodgorliklarda qayd etilishicha, aslida qayrag'och quyidagi komponentdan iborat: *qadir* – *qayir* "qattiq", "puxta", yig'ach "daraxt" [ДТС 1969, 265; 403, 408]. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *yig'ach* "daraxt", "yog'och" ma'nolarida qo'llangan [ДЛТ 1960-1963, III, 14-15]. Mazkur istiloh Hazrat Alisher Navoiy asarlarida ham ayni semalarda uchraydi: *Onda to'bivash yig'ochlar jilvasoz* [ЎТЛ 1981, II, 82]. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z, asosan, *yog'och* tarzida ishlatiladi, lekin birinchi ma'nosi o'rnida daraxt so'zi qo'llanadi.

**Qumiz** – mo'g'ullar davridan oldin turkiy xalqlardan rus tilining lug'at tarkibidan o'rin olgan. "Devonu lug'otit turk" asarida qimiz shaklida keladi. Mahmud Koshg'ariy qimiz yilqi suti bo'lib, uni sanoch, meshlarga solib achitib ichilishini aytgan [ДЛТ 1960-1963, I, 346]. Alisher Navoiy asarlarida ham xuddi shu shaklda kelgan: *Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar* [АНАТИЛ 1983-1985, IV, 52]. Qadimgi turkiy tilda faol qo'llangan bu ot asli "chayqal, to'lqinlan" ma'nosini anglatgan qum- fe'lidan -(u) z qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan: *qum+uz=qumuz* [ЎТЭЛ 2000, I, 547].

Biz "kiyim-kechak, gazlama va shu kabilarni qizdirib tekislash, silliqlash, g'ijimini yozish uchun mo'ljallangan asbob"ga nisbatan forsiy tildan o'zlashgan **dazmol** terminini ishlatamiz. Shuningdek, tilimizda **o'tuk** so'zi ham faol qo'llaniladi. Buni biz shu vaqtgacha rus tilidan o'zlashgan, deb noto'g'ri talqin kelib kelimiz. Ammo *o'tuk* so'zi bir necha asrlar muqaddam Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan: "dazmol: andavaga o'xshash temir (asbob) bo'lib, uni qizdiradilar va kiyimlarning chok hamda baxyalarini va tuklarini bostirib silliqlaydilar" [ДЛТ 1960-1963, I, 99]. Mazkur leksema rus tiliga XVII asrda *utyug* shaklida o'zlashgan. Shu o'rinda aytish joizki, "Devon"da keltirilgan quyidagi mulohaza ushbu atamaning etimologiyasi xususidagi turli fikrlarga oydinlik kiritadi: *o'tidi* – *dazmol* qildi. *Ul to'nig' o'tidi* – *u to'n choklarini temir (dazmol) bilan silliqladi* [ДЛТ 1960-1963, III, 268].

Demak, ma'lum bo'ladiki, *o'tuk* so'zi o'ti- "dazmol qilmoq" fe'lidan yasalgan.

Ot ko'p asrlar mobaynida asosiy transport vositasi, qishloq

xo'jaligining asosiy ish hayvoni bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, urush davrlarida armiya uchun ham juda ko'p ot talab qilingan. "Yakka tuyoqlilarga mansub o'txo'r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni" hisoblangan otning rus tilidagi ifodasi *лошад* bo'lib, so'zning turkiy tillardan kelib chiqqanligi, mo'g'ullar hukmronligi davridan bir necha yillar oldin rus tiliga kirib kelganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof qilingan. Tatar tilida *alasha* – *chipor*, bulg'or va chuvash tilida *lasha* - *ot*. Shu ma'noda *лошад* so'zining etimologiyasi *alasha* (alacha -olacha – ola-bula) + at birikmasiga borib taqaladi.

Rus tilida "kabob" ma'nosida *shashlik* so'zi ishlatiladi. Bu so'z asli turkiy bo'lib, Mahmud Koshg'ariy lug'atida *shish* – tutmoch (xamir osh, ugra osh) yeydigan cho'p, qoshiq o'rnida qo'llaniladigan maxsus cho'pni ifodalagan [ДЛТ 1960-1963, II, 326]. -lik esa so'z yasovchi qo'shimcha. *Shashlik* – Markaziy Osiyo xalqlari, avvalo, ko'chmanchi aholining taomi hisoblanib, shu nom bilan XVIII asrda rus tiliga o'zlashgan. Odatda, u qo'y go'shtidan yog'och, cho'p yoki metalldan tayyorlangan *shish* – sixda pishirilgan. *Tutmoch* sixi "Devonu lug'otit turk"da sış tarzida qayd etilgan. Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida *shish*, *six* shaklida qo'llangan:

*Bazmning asbobini qilg'il nasaq,*

*Hozir etub sixu, kabobu tabaq* [ЎТТИЛ 1981, III, 532].

**Fartuk** so'zi rus tilida "odatda kiyimni iflos qilmaslik uchun uning ustidan kiyiladigan yoki ish paytida belga bog'lab olinadigan ish kiyimi, peshband", "chavandozni chang va hokazolardan himoya qilish uchun ishlatiladigan aravachadagi charm yoki kanvas qoplamasi", "biror narsaning shinasi, qopqog'i yoki ustki qoplamali qismi" semalarini anglatadi. Bu so'z dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *partü* shaklida "yaxtak, bir qavatli ustki to'n, partuq" deya izohlangan [ДЛТ 1960-1963, I, 393]. Alisher Navoiy ijodida bu so'zning *fo'ta//futa* fonetik varianti ikki ma'noda talqin qilingan:

1) *belbog', belga aylantirib o'raladigan mato:*

*Belingmudurki, anga qizil fo'ta bog'lading,*

*Yo rishtaiki o'tkarilibdur aqiqdin;*

2) *hammolda belga bog'lanadigan lungi:*

*Futalar mushku anbar og'ushta,*

*Tortilib ip yerida zar rishta* [АНАТИЛ 1983-1985, III, 364].

Ruslarda "yengil oq rangli ayollar bosh qoplagichi, bosh kiyimi, kalta ipak ro'mol yoki ro'molcha"ga nisbatan *fata* termini ishlatiladi. Rossiyaning shimolidagi rus xalqi ayollar boshiga o'raydigan katta ipak ro'molni *fata* desalar, janubiy hududida yashovchi aholi junli yubkaga nisbatan bu atamani qo'llaydi. Aslida mazkur leksemaning kelib chiqishi ham qayd etilgan *partu* - *fo'ta//futa* so'zi bilan

bog'lanadi.

Ko'pgina manbalarda rus tilida "jem, meva konservasi, shokolod, kakao va boshqa qo'shimcha (to'ldirgich)lar aralashtirilgan, qaymoqli kremga o'xshash sut-qatiq mahsuloti" semasini beruvchi *yogurt* so'zi etimologiyasini ingliz tilidagi *yoghurt* leksemasi bilan bog'lashadi. N.Komlev esa mazkur istilohni asli turkiy *yog'urt-yogurt* so'zidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi [Комлев 2006, 258]. Atama "Devonu lug'otit turk"da *joğurt* shaklida "qatiq" semasini bildirgan: *suvuq jog'urt – suyuq qatiq* Alisher Navoiy asarlarida *jug'rot* fonetik varianti uchraydi:

*Ani uyga kelturdi tortib inon,*

*Ravon mohazar chekti jug'rotu non* [АНАТИЛ 1983-1985, I, 601].

T.Yefremovning "Толковый словарь русского языка" kitobida *kibitka* so'zining quyidagi ma'nolari keltiriladi: 1) "yopiq transport vositasi", 2) yengil ko'chma uy-joy; uy; 3) eski tipdagi kichkina uy [Ефремова 2005, 267.]. Ushbu leksema XVI-XVII asrlarda usmonlilar imperiyasining ta'siri natijasida turkiy tillardan o'zlashgan. Turkiy xalqlar orasida bu so'z XI-XIV asrlarda faol qo'llanishda bo'lgan. "Qutadg'u bilig" dostonida ham "kichik do'koncha" ma'nosini bildirgan: *Kebit kez bezädim... - do'konni yaxshi bezadim* [ДТС 1969, 500]. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *kebit* fonetik varianti "ichkilik do'koni, mayxona" semasida ko'zga tashlanadi [ДЛТ 1960-1963, I, 338].

Rus tilida **sarancha** so'zi to'g'ri qanotlilar turkumiga mansub, qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltiruvchi hasharot, ya'ni chigirtka sifatida izohlangan. XVII asrda rus tiliga o'zlashgan ushbu so'z asli turkiy bo'lib, uning genezisi qadimiy manbalarga borib taqaladi. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning lug'atida *saričğa* shaklida tilga olingan. Ayni paytda, "Devon"da so'zning chigirtkaga o'xshash zaif odamlarga nisbatan *saričğa er* birikmasi ishlatilishi qayd etilgan [ДЛТ 1960-1963, I, 451]. Zoonim "Tarjumon"da *sarčqa* (10-18), "At-tuhfa"da *sarīnčīqa* [11a6], Abu Hayyonning "Kitob ul-idrok" asarida qipchoqcha *sarīnčqan*, *sarīnčīqan* [57,103] fonetik shakllarida kelgan. Boshqa birorta yodgorliklarda qayd etilmaydi.

Yanichar leksemasi rus tilida "piyoda askarlar", "qurollangan qo'riqchilar" kabi ma'nolarni anglatadi. Usmoniyalar davrida piyoda askarlar *yeniçeri* deb nomlangan. Shunga ko'ra mutaxassislar mazkur so'z XVII asrda rus tiliga turk tilidan ukrain tili orqali o'zlashganini e'tirof qilishadi. Mazkur atama ikki komponent: *yeni* (*yangi*) – "*yangi*" va *çeri* (*çerig*) – "*qo'shin*" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan.

**Çerig** dastlab Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qayd etilgan: *Yüräksiz kişilär çerig artatur – yuraksiz* (qo'rqoq)

kishilar qo'shinni zaiflashtiradi [ДТС 1969, 144]. "Devon"da čärik" urush safi", "har narsaning ro'parasi, vaqti"(o'g'uzcha) ma'nolarini anglatgan: *Alp čärikdä, bilgä tirikdä* – botir jang alangasida sinaladi, dono majlisda [ДЛТ 1960-1963, I, 369]. Ayrim manbalarda bu so'zning sanskrit tilidan o'zlashgani qayd etiladi [ДТС 1969, 144; УТИЛ 1981, IV, 475]. Biroq bu masalaga Mahmud Koshg'ariyning quyidagi fikrlari oydinlik kiritadi: *čär – ro'para* (o'g'uzcha): *Aniñ äwi bu čärlikdä* – uning uyi bu narsaning ro'parasidadir. Ikki askar safiga ham *čärik* deydilar. Chunki ular ham bir-biriga ro'para turadilar [ДЛТ 1960-1963, I, 312-313].

Iste'mol mahsulotlarining rus xalqiga kirib borishi turkiy xalqlarning Rossiya hududiga o'zaro yaqinligi bilan izohlanadi. Tabiiyki, mahsulot ayirboshlash jarayoni bu turdagi so'zlarning ham o'zlashishiga sabab bo'ladi. Bir qator oziq-ovqat nomlari fonetik o'zgarishga uchragan holda yoki turkiy tillardan to'g'ridan to'g'ri o'tadi. Bunday so'zlardan biri "non" semasini beruvchi *churek* so'zidir. XIX asrda turkiy xalqlardan ma'lum bir fonetik o'zgarishlar asosida o'zlashgan ushbu so'z O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining to'rtburchak shaklli taram-taram milliy noni hisoblanadi. Turk, ozarbayjon, qrim-tatar tillaridagi čüräk "non, patir" ma'nosini anglatadi (РСЛ 1893-1911, III, 2040). Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "kulcha", ya'ni kichik non ma'nosida ishlatilgan [ДЛТ 1960-1963, I, 369].

XIII asrda rus tiliga o'zlashgan *yarlik* atamasi "yorliq, farmon"; "yozuv"; "laqab" ma'nolarini bildiradi. Bu istiloh ko'hna turkiy manbalarda *jarlig'* xoqonning xati, farmonini ifodalagan [ДЛТ 1960-1963, III, 49]. Shu o'rinda taniqli lug'atshunos Mahmud Koshg'ariy mazkur leksemaning chigillar tilida istifoda etilishi va uni o'g'uzlar bilmasligini uqtirib o'tadi. Turkiy devon-mahkama ishlarida bu hujjatning qo'llanish doirasi asrdan-asrga kengayib borgan. Jumladan, o'rta asrlarga kelib, mazkur atama orqali hukmdorga tegishli barcha rasmiy matnlar tushunilgan: *farmoyishlar; imtiyoz huquqini beruvchi yorliqlar; yorliq-maktublar; bitimlar*. Hozirda elchining muayyan davlat rahbariga keltirgan ishonch yorlig'i birikmasi tarkibida saqlanib qolgan [Исхоқов ва б. 2009, 103.].

Rus tilida "uyda tayyorlangan vino, may" ma'nosini beruvchi *chixir* so'zi eski turkiy tilda faol qo'llanilgan bo'lib, dastlab "Devonu lug'otit turk" asarida *chag'ir* shaklida "sharbat", "ichkilik, may" semalarini bergan: *ër čağir juwshattı* – odam ichkilikni achitib tayyorladi [ДЛТ 1960-1963, I, 343; II, 389]. Alisher Navoiy asarlarida esa *chog'ir* shaklida ishlatilgan:

*Qaddi havosida labidin rohat istaram,*

*Ichsam kerak mudom chog'iri mu'tadil bila* [АНАТИЛ 1983-1985, III, 467].

XVII asrda rus tili lug'at fondidan joy olgan mazkur istiloh Bobur she'riyatida ham xuddi shu tarzda qo'llanilgan: *Firoq o'tida ovunsam chog'ir bila ne ajab* [ЎТИЛ 1981, IV, 480].

**Stakan** so'zi rus tilida quyidagi ma'nolarni kasb etgan: 1) ichimliklar ichish uchun ishlatiladigan, dastasiz silindrsimon shisha idish; 2) silindrsimon metall qobiq (harbiy sohada); 3) silindr shaklidagi turli xil qismlarning nomi (maxsus). Rus yorliqlarida 1356-yildan boshlab ko'zga tashlana boshlagan bu so'z eski o'zbek tilida: *tustag'on* – qimiz va may ichadigan yog'och idish; qozoq tilida: *tostagan, tustagan* – chog'roq yog'och kosa; qirg'iz tilida: *tostukan* – kamyob yog'och kosa kabi shakl va ma'nolarga ega [Шипова 1976, 314]. Hazrat Navoiy turkiy xalqning bir qavmi bo'lgan sodda, qo'li ochiq, bag'rikeng o'zbekni suyib tasvir etgan o'rinlar anchagina. Bulardan birida o'zbekning qimiz-u tustag'onini madh etgan:

*Halol ona sutidek gar o'zbekim tutsa,*

*Tobuk qilib, yukinib tustag'on ichinda qimiz* [Қодиров 2005, 258.].

Ma'lum bo'ladiki, atama rus tili lug'at boyligidan mustahkam o'rin olgunga qadar qator fonetik jarayonlarga uchragan: *tustag'on >tostagan >dostokan>stokan> stakan*.

Turkiy qarg'a zoonimi rus tiliga XVII asrda karga shaklida o'zlashib, "qarg'a", "shum kampir, jodugar kampir, alvasti" ma'nolarini ifodalaydi. Turkiy xalqlarda bu so'z X asrlardayoq mavjud edi. Ya'ni termin ilk marta "Oltun yorug'" yodgorligida kelgan: *qalti bir ok bu yirtinču tā qarğali ugili ikägü qayu tüzülüp bir uyali bolsalar* – bu dunyoda qachonlardir vaqti kelib, qarg'a, ukkilar uyushadi va bir uyaga ega bo'lishadi [ДТС 1969, 426]. "Devonu lug'otit turk" asarida ham ayni semada ishlatilgan: *Qarg'a qarisin kim bilir, Kishi alasin kim tapar* – Qarg'aning yoshidan qarisini kim ayira oladi, kishining ko'nglini kim bila oladi [ДЛТ 1960-1963, I, 401]. D.Bozorovanning fikriga ko'ra, qarğa termini "qar" tovushga taqlid so'zi hamda -ğa affiksidan yoki "qarq" tovushga taqlid o'zagi va -a qo'shimchasidan yasalgan [ИФРЗТ 1978, 34].

"Davlatga, tashkilot yoki jamoaga tegishli pul va boshqa qimmatliklar", "umuman pul", "g'azna" ma'nolarini anglatgan rus lug'at fondidagi *kazna* so'zi *qaznaq* shaklida ilk bor "Qutadg'u bilig" dostoni matnida qo'llangan: *Telim artti elda yanı känd uluş, Elig qaznaqi toldi altun kümüş* – mamlakatda yangi shahar va qishloqlar soni ortdi, hukmdorning xazinasi oltin-kumushlarga to'ldi [ДТС 1969, 439].

Charikov antroponimining asosi bo'lgan **choriq** so'zi ham rus tiliga turkiy xalqlardan o'tgan so'zlardan biri hisoblanadi. "Qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo'njli, tagi qalin, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyimi" semasini beruvchi ushbu leksemaga ilk



marta Mahmud Koshg'ariy lug'atida duch kelamiz: *Yaḏağ atī čaruq, küči azuq* – yayov oti choriq, kuchi oziq [ДЛТ 1960-1963, I, 362]. Mazkur terminning keyingi davrlarda qo'llanishda davom etganini "Qisasi Rabg'uziy" asarida ko'rish mumkin: *Aḏaqında eylänmägän ešäk terisidin čaruqi bar erdi* [ҚР 1997, 154v7]. Čaruq oti "o'rab bog'lamoq" ma'nosini anglatgan čari- fe'lidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan [ЎТЭЛ 2000, I, 435].

### **Xulosa**

Ko'rinib turibdiki, rus tiliga ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, diplomatik, iqtisodiy, madaniy munosabatlar bois inson tana a'zolari, uy-ro'zg'or buyumlari, narsa-predmetlar, oziq-ovqat, kasb-hunar, mansab-martaba, zoonimlar, fitonimlarni ifodalovchi bir qator leksik birliklar kirib o'zlashgan. Mutaxassislar qayd etganidek, rus tili lug'atdan joy olgan 2000dan ortiq turkiy so'zlar ichida nafaqat tub, shuningdek, yasama leksemalar ham mavjud. Albatta, bunday atamalarning mavjudligi, yasama so'zlar uchun turkizmlarning asos vazifasini o'tashi turkiy tillarning yana bir marotaba qay darajada mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, tahlillardan ayon bo'ldiki, o'zlashmalarning ko'pchiligi rus tilida polisemantik xususiyat kasb etgan. Binobarin, bu kabi ilmiy izlanishlar shu vaqtgacha kelib chiqishi noto'g'ri talqin qilinib kelinayotgan so'zlarning haqiqiy ma'nosini ochishga, o'zlashmalarning ichki qatlamga doir so'zlar bilan o'zaro munosabatini hamda ularning qo'llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, shuningdek, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko'maklashadi.

### **Shartli qisqartmalar**

АНАТИЛ – 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. Тошкент: Фан.

Ат-туҳфа – 1978. Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический трактат XIV в на арабском языке. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указатель. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. Ташкент.

ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. 1960-1963. Девону луғотит-турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. Тошкент: Фан.

ДТС – 1969. Древнетюркский словарь. Л.: Наука.

ИФРЗТ – Базарова, Д. 1978. История формирования развитие зоологической терминологии узбекского языка. Ташкент: ФАН.

РСЛ – Радлов, В. 1893-1911. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. СПб.

ЎТИЛ – 1981. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II. Русский

язык.

ЎХШЛ – 1971. Ўзбек халқ шевалари луғати. Тошкент: Фан.

ЎТЭЛ– 1) Раҳматуллаев, Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент: Университет.

2) Раҳматуллаев, Ш. 2001. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). Тошкент: Университет.

3) Раҳматуллаев, Ш. 2009. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча-тожикча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). Тошкент: Университет.

ҚР – Nasiruddin bin burhayud-din din Rabquz. 1997. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. Ankara.

### **Adabiyotlar**

Баскаков, Н. 1979. *Русские фамилии тюрского происхождения*. Москва: Наука.

Дмитриев, Н. 1962. *Строй тюркских языков*. Москва: Наука.

Ефремова, Т. 2005. *Современный толковый словарь русского языка*. Москва.

Исҳоқов, М.ва бошқалар. 2009. *Мангу битиглар*. Тошкент.

Каримуллина, Г. 2007. *Тюркские лексические элементы в русской лингвографии XVIII-XX веков*. Дис. канд. филол. наук. Казан.

Комлев, Н. 2006. *Словарь иностранных слов*. Москва, ЭКСМО-Пресс.

Коркмазова, Л. 2004. *Освоение в русском языке тюркизмов с неясными основами*: Дис. канд. филол. наук. Махачкала.

Қодиров, П. 2005. *Тил ва эл*. Тошкент.

Навойи Алишер. 1967. *Асарлар*. 15 т. Т.14. Тошкент.

Рустамов, А. 2010. *Сўз хусусида сўз*. Тошкент: EXTREMUM-PRESS.

Сагидуллин, М. 2002. *Тюркские этнонимы в русской топонимии Юга Тюменской области*: Дис. канд. филол. наук. Тюмень.

Шипова, Е. 1976. *Словарь тюркизмов в русском языке*. Алма-Ата.

Эшқобил Шукур. 2018. *Бобо сўз изидан*. Тошкент: MASHHUR-PRESS.

Юналеева, Р. 1985. *Тюркизмы в русском языке: (на материале названий одежды)*: Автореф. дис. д-ра филол. наук. Москва.

<https://www.bbc.com/uzbek/lotin-37144340>

# Turkish Assimilation Words in Russian Language

Bakhtiyor Abdushukurov<sup>1</sup>  
Lobar Aralova<sup>2</sup>

## Abstract

In this article, Turkic words that entered the Russian language were interpreted on the basis of scientific sources as a result of hundreds of years of Mogul role in Russia, the Golden Horde statehood, the migration of Amir Temur's kingdom to the territory of the Mogul khanates. The historical roots of the words assimilated into the Russian language, the phonetic, lexical, semantic changes in them are given. Each example is explained based on the lexemes available in the fraternal peoples, effectively using a number of linguistic methods, such as comparative, comparative-historical. The etymology of words which assimilated to the Russian language from Turkic language is shown and the morphological features of lexemes are analyzed.

**Key words:** *Turkish assimilations, thematic groups, food name, drinks name, etymology of Turkish lexemes, compound words.*

## References

- Baskakov, N. 1979. *Russkie familii tjurskogo proishozhdenija*. Moskva: Nauka.
- Dmitriev, N. 1962. *Stroj tjurkskih jazykov*. Moskva: Nauka.
- Efremova, T. 2005. *Sovremennyj tolkovyj slovar' russkogo jazyka*. Moskva.
- Isxoqov, M.va boshqalar. 2009. *Mangu bitiglar*. Toshkent.
- Karimullina, G. 2007. *Tjurskie leksicheskie elementy v russkoj lingvografii XVIII-XX vekov*. Dis. kand. filol. nauk. Kazan.
- Komlev, N.2006. *Slovar' inostrannyh slov*. Moskva, JeKSMO-Press.
- Korkmazova, L. 2004. *Osvoenie v russkom jazyke tjurkizmov s nejasnymi osnovami*: Dis. kand. filol. nauk. Mahachkala.
- Qodirov, P. 2005. *Til va el*. Toshkent.
- Navoiy Alisher. 1967. *Asarlar*. 15 t. T.14. Toshkent.
- Rustamov, A. 2010. *Suz hususida suz*. Toshkent: EXTREMUM-PRESS.

---

<sup>1</sup> *Bakhtiyor B. Abdushukurov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** [abdushukurov@navoiy-uni.uz](mailto:abdushukurov@navoiy-uni.uz)

**ORCID ID:** 0000-0002-6964-0714

<sup>2</sup> *Lobar A. Aralova* – student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** [lobar.aralova98@gmail.com](mailto:lobar.aralova98@gmail.com)

**For citation:** Abdushukurov, B. B., Aralova, L. A. 2021. "Turkish Assimilation Words in Russian Language". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 49–67.

- Sagidullin, M. 2002. *Tjurkskie jetnonimy v russkoj toponimii Juga Tjumenskoj oblasti*: Dis. kand. filol. nauk. Tjumen'.
- Shipova, E. 1976. *Slovar' tjurkizmov v russkom jazyke*. Alma-Ata.
- Eshqobil Shukur. 2018. *Bobo suz izidan*. Toshkent: MASHHUR-PRESS.
- Junaleeva, R. 1985. *Tjurkizmy v russkom jazyke: (na materiale nazvanij odezhdy)*: Avtoref. dis. d-ra filol. nauk. Moskva.
- <https://www.bbc.com/uzbek/lotin-37144340>

## Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari

Nodira Alavutdinova<sup>1</sup>  
Muqaddas Abdurahmonova<sup>2</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'zbek tili darslari jarayonida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi metodik tavsiyalar taqdim etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda soddadan murakkabga - har bir darsda: a) o'quvchilarning leksik minimumini oshirish; b) to'plangan so'z zaxirasini yozma va og'zaki nutqiy jarayonda maqsadga muvofiq qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirishd masalasiga qaratilgan. Mazkur metod bugungi kunda o'zbek tili darslari jarayonida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ijobiy natijalarni ta'minlashning samarali yo'llaridan biri ekanligi o'tkazilgan tajribalarga asoslangan holda tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy fikrlash, nutqiy kompetensiya, so'z boyligi, malaka va ko'nikma.

### Kirish

Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning taqdiri, birinchi navbatda, mustaqil fikrlaydigan va o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy jihatdan barkamol, hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob beradigan yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun mamlakatda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning islohotlarning bosh yo'nalishi mustaqil fikrga ega bo'lib, o'z fikrini yozma va og'zaki bayon eta olish kompetensiyasiga ega kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mustaqil fikr mustaqil tafakkurning, mustaqil tafakkur esa mustaqillik tafakkurining muhim

---

<sup>1</sup> Alavutdinova Nodira G'aniyevna - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti.

**E-pochta:** nodira.alavutdinova@BK.ru

<sup>2</sup> Abdurahmonova Muqaddas Parpiyevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti.

**E-pochta:** mparpiyeva@mail.ru

**Iqtibos uchun:** Alavutdinova, N. G., Abdurahmonova, M. P. 2021. "Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari". *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 68-79.

jihatini tashkil etadi. Mustaqillik tafakkuri keng ma'noda: a) O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish; b) o'zining va o'z xalqining, Vatanning qadr-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish; v) yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodini, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini el-yurt istiqboliga baxshida etishdir.

### **O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish**

Mustaqil fikr ijtimoiy hodisa bo'lib, u shaxsning sotsio-dinamik holati, ya'ni yoshi, jinsi, etnik birlikka mansubligi, ma'lum bir sivilizatsion-sotsiopsixologik arxitipga aloqadorligi, mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tizim, mafkura, oila, ijtimoiy muhitning tabiati hamda intilishi, maqsadi va ichki ma'naviy intellektual energiyasi, tashqi ijtimoiy muhit ta'siriga qarshi tura olish immuniteti bilan bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning mustaqil fikri va ularning mustaqil fikrlashini ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda, biz mazkur hodisaning quyidagi jihatlariga ahamiyat bermog'imiz lozim:

1. Biror predmet, voqea-hodisa, jarayonni mustaqil idrok etish.

2. Biror predmet, voqea-hodisa va jarayonga o'zida mavjud bo'lgan intellektual potentsiallarga asoslangan holda baho bera olish.

3. O'quvchining hayotiy tajribalari, o'qib o'rgangan bilimlari hamda kuzatuvlari natijasida erishgan malakasiga ko'ra o'zini, atrof-muhitni, ishtirok qilayotgan o'quv-mehnat jarayonini o'zgartirishga oid o'z qarashlarini va takliflarini ilgari surish.

4. O'quvchining badiiy, tarixiy adabiyotlarni o'zlashtirishi va shu asosda shakllangan sodda ilmiy-fantaziyasiga muvofiq kelajak to'g'risidagi fikrlari, rejalari va ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan amaliyotlar majmuasi to'g'risidagi mulohazalari uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Mustaqil fikrlash esa mustaqil fikrning harakatdagi holatidir, ya'ni o'quvchining ma'lum bir predmet, voqea, hodisa, jarayonlarni o'zi egallagan bilimi, malakasi asosida taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrdan murakkab fikrlarga va ayni vaqtda murakkab fikrlardan sodda fikrlarga o'tish vaziyatlarida hamda mavjud ijtimoiy-tarixiy holatni hisobga olgan holda o'ziga xos mulohaza yuritishdir.

Fikrlash qobiliyati tafakkur jarayonining muhim jihatini tashkil qiladi. Biz sezgilar yordamida olingan ma'lumotlarni tafakkur jarayonida ishlab chiqib, narsa va hodisalarning mohiyati, ularning o'zaro bog'lanishi va taraqqiyotiga oid yangi bilimlar tizimiga ega bo'lamiz. Insonning aqlli, ongli bo'lishini ta'minlovchi tafakkur jarayoni tushuncha, hukm va xulosa kabilar orqali mavjud. Agar tushuncha ma'lum predmet va xulosalar xususiyatlarining umumiy

hamda muhim belgilarini yaxlit holda ifodalasa, hukm predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa, munosabat jarayonini ifodalaydi. Tafakkurning muhim shakli bo'lgan xulosa yoki xulosa chiqarish ikki va undan ortiq predmetlar o'rtasidagi bog'lanish munosabatlarini anglatadi. Tafakkur yuqorida qayd qilingan asosiy shakllardan tashqari o'zining maxsus qonunlariga, uning to'g'riligini ta'minlovchi qoidalarga ham egadir. Bu qoidalarga rioya etilmasa, fikrlar to'g'ri bo'lmaydi. Demak, u voqelikni to'g'ri aks ettira olmaydi.

Mustaqil fikr va mustaqil fikrlash, bir tomondan, alohida olingan o'quvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning unga nisbatan bo'lgan talabi bilan ham uzviy bog'liqdir. O'quvchining shaxsi haqida gapirganimizda 5-sinf o'quvchisining modellastirilgan shaxsini nazarda tutamiz. Mustaqil fikrlovchi o'quvchi shaxsi takrorlanmas individualliklar majmuasidir. Shuning uchun ham biz mazkur masalaga hozirgi zamon psixologiyasi, pedagogikasi va ta'limning yangi pedagogik texnologiyasi nuqtai nazaridan yondashmog'imiz, o'quvchi shaxsi to'g'risidagi umumiy modelni aniq individga yaqinlashtirmog'imiz lozim. Bu o'rinda mustaqil fikrlash malakasiga egalik qilish bir qator yondashuvlarni talab etadi. Birinchidan, o'quvchilarning nihoyatda keng axborot olamiga kirib borishini ta'minlashdir. Bunda, albatta, maktablarning moddiy-texnikaviy va informatsion qurilmalar bilan ta'minlanishi muhim o'rin tutadi. Ikkinchidan, o'quvchilarning o'z ona tillarini va ayni vaqtda, xorijiy tillarni mukammal bilishi va tillardagi axborot mazmunini solishtira olishi, chog'ishtirma induktiv xulosalar chiqarishi. Uchinchidan, axborotlarni to'plash, qayta ishlashda o'quvchining ma'lum birtamoyillarga asoslanishi hamda dunyoqarash madaniyatiga ega bo'lishi. To'rtinchidan, fikrlar tahlilini amalga oshirishda zarur bo'lgan sodda tushunchalarning aniq mohiyatiga egalik qilishi va ulardan omilkorlik bilan foydalana bilish malakasi talab qilinadi. Mazkur yondashuvlar negizida o'quvchi shaxsining tilga bo'lgan munosabati va undan foydalana olish malakasi, nutqni tahlil qilish madaniyati kabilar muhim o'rin egallaydi. Ma'lumki, til kishilarning o'zini, borliqni bilishi hamda ularning xatti-harakatlarini boshqarishning muhim vositasidir. Til va nutq bir hodisa emas. Nutq ma'lum bir aniq munosabatdagi mavjud til bo'lib, ayni vaqtda muloqot va uning natijalarini ifodalaydi. To'g'rirog'i, nutq fikrning moddiylashgan ifodasidir. Shunga ko'ra, u kommunikativ fikrlash, ifodalash va ta'sir etish vazifalarini bajaradi. Nutq yordamida tafakkur reallikka aylanadi. Ayni vaqtda tafakkurning mavjudlik mexanizmi esa fikr va fikrlararo munosabatlardir. Har qanday fikrda ma'lum bir predmet yoki predmetlararo munosabat, jarayon va jarayonlararo munosabatlarning rost yoki yolg'on ekanligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Fikr hamisha gaplar yordamida voqelikka aylanadi. Shuning

uchun ham biz fikrsiz gap va gapsiz fikr bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Gap ayni vaqtda shakl vazifasini o'tab, fikr uning mazmunini tashkil qiladi. Gapdagi ega va kesim o'rtasidagi munosabat gap mazmunining tugallanganligini bildirsa, fikrda gapning egasi uni o'zidan oldingi fikr bilan bog'laydi, kesimi esa yangi fikrning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu tarzda fikrlar bir jihatdan bir-birlari bilan bog'lanadi, ikkinchi jihatdan muntazam boyib boradi.

### **O'quvchilarda ijodiy fikrlash erkinligini shakllantirish**

O'quvchilarda ijodiy fikrlash erkinligini shakllantirishning muhim jabhasi ularning o'zaro muloqoti hisoblanadi. Bu o'rinda biz muloqotlarni shartli: sinfda, sinfdan tashqari, maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida qaraymiz. Sinfda amalga oshirilayotgan tadbirlar rejalashtiriladi va bugungi kundagi an'anaviy va noan'anaviy usullarning mushtarakligida amalga oshiriladi. Bunda tuzatilishi kerak bo'lgan muhim kamchiliklardan biri o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida o'quvchi shaxsining dars jarayonining subyekti ekanligi o'qituvchining e'tiboridan chetda qolishidir. Mazkur omil sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikr erkinligining o'sishi va kengayishida jiddiy to'siq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda maktab va maktabgacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida band bo'lgan barcha mutaxassislarni ilg'or pedagogik texnologiyaning maqsad-vazifalari bilan yaqindan tanishtirish, shu asosda ularning malakasini oshirish lozim. Albatta, bu jarayon lokal holatda amalga oshirilmoqda. Masalaning yechimi uning uzluksizligi va samaradorligidadir.

Fikr erkinligi, unga ijodiy munosabatda bo'lishni, unga ijodiy munosabat bo'lishni shakllantirish madaniyati, avvalo, sinfda, ona tili darslarida so'zlarning ma'nolarini anglashdan, gaplarni tahlil qilishdan, ya'ni o'quvchining gapga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Ona tili darslarida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonida keltiriladigan gaplarning mazmuniga, ijtimoiy ahamiyatiga ta'lim-tarbiya uzviylikini ta'minlash maqsadida alohida e'tibor bermog'imiz lozim. Gap va uning mazmuniga bog'liq holda o'quvchilar o'rtasidagi fikr almashish, fikrlarni tozalash, fikr missiyasini kiritish erkinligini o'quvchilar e'tiboriga havola etish ularda ijodiy fikrlash madaniyatini shakllashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Ayni vaqtda nutq tafakkur jarayonini boyituvchi vosita vazifasini ham o'ynaydi. Bunda biz til va tafakkur birligi dialektikasidan kelib chiqmog'imiz lozim. Demak, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mavjud emas. Mana shunday birlikda biz maktab o'quvchilarida mustaqil ijodiy fikrning rivojlanishini qanday kuzatamiz? Bu o'rinda, avvalo, o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim jarayonida egallagan



bilimlariga tayanmog'imiz zarur.

Ma'lumki, o'quvchilarning egallagan bilimlari, avvalo, ularning fikrini ifodalovchi tushunchalarning salmog'i, shuningdek, shu tushunchalarning hajm doirasi bilan o'lchanadi. Bu o'rinda biz o'quvchilarning ijodiy fikrini takomillashtirishda ona tili vositasi tafakkur jarayonida ishtirok etuvchi tushunchalarining soni va sifatiga ahamiyat bermog'imiz lozim. Albatta, mazkur kontekstda ikki yondashuv muhim o'rin tutadi. Birinchidan, o'quvchi ma'lum bir gapda ishlatayotgan so'z yoki tushunchaning mazmuniga qanday mohiyatni singdiradi. Masalan, «Vatan» tushunchasini olib qaraylik, 5-sinfda o'tiladigan adabiyot darsida Vatan mavzusiga bag'ishlangan asarlar darslikning «Vatanni sevmoq iymondandir» deb nomlangan bo'limida keltirilgan.

Mazkur asarlarda yozuvchi, shoir Vatan tushunchasiga qanday sifatlarni kiritgan va shu kiritilgan sifatlarni o'quvchi ongida qay darajada in'ikos ettirmoqda. O'quvchining o'zi Vatan tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi xususiyatlarni qanday tasavvur etadi?

Ikkinchidan, o'quvchining Vatan to'g'risidagi qarashlari tilda qanday tushunchalar va so'zlar orqali ifodalanadi? Biz uchun maktab o'quvchilarining ona tili darslarida o'z fikrlarini shu fikrlarga mos bo'lgan so'zlar va tushunchalar yordamida ifoda eta olish ko'nikmasini shakllantirish ahamiyatlidir. Buning uchun 5-sinf o'quvchilarining ona tili fanini o'zlashtirish me'yorlari belgilangan Davlat ta'lim standartidan kelib chiqqan holda fikr va nutq birligini takomillashtiruvchi uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda muhim tamoyil ma'lum bir holatga, hodisaga yoki qadriyatga nisbatan xilma-xil qarash va farqni asos qilib olish hisoblanadi. Bir tomondan, fikrlarning tadrijiy murakkablashib borishi, ularning mazmun jihatidan soddalashishi, ikkinchi tomondan esa, shularga mos bo'lgan lug'aviy birliklarni topa bilishi nazarda tutiladi. Shu o'rinda biz o'quvchilarning so'z va uning ma'nosini tushunish, gap tahlili, matn yaratish ustida ishlashi bilan aloqador bo'lgan mashqlarni ham kiritmog'imiz lozim. Bunda o'quvchilar tomonidan uyda yozib kelinadigan bayonlar, insholar ham muhim ahamiyatga egadir. Mazkur vazifaning ijodiy fikrni rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirish uchun uni bir necha bosqichga bo'lib bajartirish ham mumkin. Biz fikrning bayon funksiyasi haqida yuqorida alohida to'xtaldik, ammo mazkur jarayonda til va tafakkurning bir-biriga mos holda ifodalanishi va bunda o'quvchi shaxsining, uning qarashlarining mustaqilligi jihatlarini yoritishda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

1. O'quvchi shaxsining oila, maktab, jamoatchilik, mavjud an'analar, qadriyatlar bilan aloqadorligi. O'quvchi shaxsining bunday holati fanda sotsial determinizm deyiladi. Buning mohiyatini

zaruriyat va mustaqillik tashkil qiladi. Bunga ko'ra o'quvchi shaxsi ayni vaqtda zaruriy munosabatlar doirasidan tashqarida ham bo'la olmaydi va ayni vaqtda o'zining qobiliyatiga ko'ra shu zaruriyatdan tashqarida bo'lishga ham intiladi. Shu intilishning mohiyatini undagi mustaqillik, mustaqil fikr, ijodiy fikrlash madaniyati tashkil etadi. Bu jarayonda asosiy motiv vazifasini ongli maqsad va shu maqsadga erishish uchun tanlangan pozitsiya belgilaydi. Mazkur ko'nikmani o'quvchi yoshlarda shakllantirish uchun uning shaxsiga aloqador bo'lgan barcha institutlarda (oilalar, maktab, mahalla jamoatchilik...) uning ijodiy fikrlashi uchun, birinchidan, sharoit, ikkinchidan, talab bo'lishi kerak.

2. Bu zaruriyatning ijro etilishida maqsadga muvofiq holda uyushtirilgan tajriba – maktabda o'tkaziladigan darslar hisoblanadi. Bu jarayonda ona tili darslarining vazifasi beqiyosdir.

Mazkur darslarda o'quvchilarning ijodiy fikrga ko'ra erkin bayonlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirishni shakllantirish kerak. Bunda ona tili darslarida interfaol usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Determinizm munosabatining ikkinchi tomoni erkinlikning zaruriyatlar dunyosiga kirib borishi hisoblanadi. Bu o'rinda biz uchun asosiy tezis-mustaqil fikr, mustaqil fikrlash jarayonida o'quvchining mavjud zaruriyatlarini hisobga olishdir. Mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda zaruriyatlarni hisobga olish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Agar biz mazkur fikrni ona tili darslariga ko'chiradigan bo'lsak, bunda o'quvchining, birinchi navbatda, 5-sinf dasturida talab qilingan standartlarni o'zlashtirmog'i va undan kelib chiqqan holda belgilangan hajmdagi so'z boyligiga ega bo'lishi, gap tuzish qoidalariga rioya qilishi lozim. Bundan tashqari, ma'lum bir fikrlarni tasdiqlash yoki inkor etish uchun lozim bo'lgan sodda hukmlar va shular asosida xulosalar chiqarish qoidalarini o'zlashtirishlari kerak. Shunday holdagina mustaqil fikr va mustaqil fikrlash jarayonini o'quvchi tomonidan ona tili darslarida ijodiy tarzda amalga oshirish imkoniyatiga erishiladi. Mazkur imkoniyatning amalga oshishini ijtimoiy psixologiyada birinchi qadam deyiladi. Bu o'rinda birinchi qadamdagi ijodiy fikrlash va undan keyingi bosqichdagi erkin fikrlash va navbatdagisi o'rtasidagi bog'lanishlarni, bosqichlardan bosqichlarga o'tishning, bir tomondan, grammatik, ikkinchi tomondan mantiqiy asoslarini o'qituvchi o'z faoliyatida rejalashtirmog'i lozim. Buning uchun uning o'zi boy axborotga va xilma-xil uslublardan foydalanish malakasiga ega bo'lmog'i shart.

4. Erkin fikr, erkin fikrlash faqat fikr uchun mavjud bo'lmaydi, balki u o'quvchi shaxsini o'rab turgan zaruriyatlar dunyosiga aks ta'sir ham qiladi, shaxsni maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish

vositasi ham hisoblanadi. Mazkur tezisdan kelib chiqqan holda o'quvchi ona tili darslarida o'qituvchi tomonidan taklif qilingan yoki darslarda an'anaga aylangan qoidalarga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, o'zining tasavvuridan kelib chiqqan holda harakatdagi qoidalarining muqobillarini taklif qiladi. Albatta, fikrlash erkinligiga ko'ra fikrlarni amalga oshirish, mavjud qoidalarni o'zgartirish benihoya qiyindir. Bu o'rinda til va dunyoqarash o'rtasidagi tafovutni hisobga olmoq kerak. Til, asosan, evolyusion yo'l bilan o'zgaradi. Dunyoqarash esa siyosiy tizimdagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Albatta, dunyoqarashning zaminini milliy g'oya tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko'ra mamlakatda birorta mafkura davlat mafkurasi hisoblanmaydi va bo'lishi ham mumkin emas, ammo milliy g'oya fikrlar xilma-xilligi, turli xildagi qarashlar mushtarakligi asosida rivojlanmog'i kerak. Ayni jabhalarning xilma-xil tarzda va xilma-xil yo'llar bilan Vatan obodligiga, yurt tinchligiga va uning farovonligiga ko'ra o'zgarib borishini taqozo qiladi. Demak, erkin fikr bir qancha ziddiyatlarni yengish hisobiga o'ziga yangi makon yaratib boradi. Fikrning yangi makon yaratishi eski qoida, qadriyat, qarash va me'yorlarning kamayishiga nisbatan teskari proporsionaldir. Ammo bular nisbatida hamisha erkin fikr makonining kengayib borishi umuminsoniyat sivilizatsiyasining qonuniyati hisoblanadi.

O'quvchi yoshlarda mustaqil fikr, fikr erkinligi, mustaqil tafakkurni shakllantirish murakkab jarayondir. Mazkur jarayonga baho berishda, dolzarbligini alohida ta'kidlashimizda muhim o'rinni, birinchidan, uning mamlakatimizning bugungi kuni va istiqboli uchun benihoya zarur ekanligini, ikkinchi tomondan esa, unga kompleks yondashish kerak ekanligini tushunishimiz zarur. Bu o'rinda hozirgi zamon fani metodologiyasining muhim tamoyili bo'lgan fanlar integratsiyasi omilidan keng foydalanish kerak. Shundagina, bir tomondan, ijodiy fikr, tafakkur erkinligini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar tug'iladi, ikkinchi tomondan, ijodiy fikrni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, uchinchi tomondan, fikr erkinligini kuzatish, o'rganish, tahlil qilish usullarini takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni hayotga tatbiq qilish jarayoni pedagogika va psixologiya fanlarining hamkorligini, o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. «Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari bilan cheklanib

bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlodning ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi» [Karimova 2000, 9].

### **Aqliy harakatlar**

Umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishda aqliy harakatlarga tayanish zarurdir:

*perseptiv faoliyat* – harakatlar natijasida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

*mnematik faoliyat* – narsa va hodisalarning mohiyat va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq;

*fikrlash faoliyati* – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan;

*imajitiv faoliyat* – (“image” – obraz so'zidan olingan) ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash, xayolda tiklashni taqozo etadi.

E.G'oziyev tafakkur psixologiyasining muhim xususiyatlaridan biri – nutq yordamida voqelikni aks ettirishdir, deb hisoblaydi. «Tafakkur bilan nutqning o'zaro bog'liqligi fikr yuritish operatsiyalarining vujudga kelishini osonlashtiradi» [G'oziyev 1990, 15].

Tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri so'z (nutq) orqali narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiraolishdir. Inson o'z fikrini so'zlar orqali ifodalaydi. O'zgalarga fikrini yozma va og'zaki nutqi vositasida yetkazadi.

«O'smirning to'g'ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozishga o'rgatib boradi...» [G'oziyev 1990, 15].

O'quvchi yoshlarning ijodiy fikrlash faoliyatlari nutqiy (yozma, og'zaki) jarayonda so'zlar orqali namoyon bo'ladi. O'quvchi so'z boyligi-ning holati so'zlarni o'rnida qo'llash masalasi kabi muhim omillar fikr va nutq birligini ta'minlaydi.

Og'zaki va yuzma nutq jarayonida uzoq yillardan beri saqlanib kelgan bayoniylikdan chekinib, ijodiylik orqali mustaqil fikrlashga yo'naltirish ta'limning yangi pedagogik texnologiyalarini ona tili darslariga joriy qilishga erishiladi.

Ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faolligi o'ta muhim va murakkab masalalar sifatida qaralgan. Faollik ta'lim jarayonining psixologik jihatlari tarkibiga kiradi. Shuning uchun ham bu muhim muammo ko'plab tajribali metodistlar, psixologlar, pedagoglarning diqqatini o'ziga jalb qilgan [Shomova 1982, 18-25].

Bu ilmiy-metodik ishlarda o'qituvchi va o'quvchi faolligining ayrim zarur nuqtalari yoritib berilgan. Biroq ularda o'qituvchi va o'quvchi faolligining matn yaratishdagi hamjihatligi, hamkorligi umumnazariy muammo sifatida aytib o'tiladi, xolos.

Faollikning o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'liqligi, uning ta'siri kabi ko'pgina masalalarga jiddiy e'tibor berilmasa, ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham V.A.Dobromislov «Oliy darajadagi faollashtirish o'quvchi tomonidan mavzuni idrok etishdir» [Dobromislov 1982, 41] degan edi.

Faollik yoki faollashtirish haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, o'qituvchining o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish borasidagi faolligini alohida ta'kidlash kerak. Chunki u o'quvchini ijodiy fikrlashga yo'naltirishning asosiy sababchisidir.

Berilgan mavzu asosida yozma matn yaratishning oliy shakli insho ekan, bunda «adabiy-ijodiy» va «ijodiy insho»lar alohida ahamiyat kasb etadi. Insho nazariyasi, insho yozishga tayyorgarlik, inshoning turlari, uning ona tili va adabiyotga oid bilimlarni o'quvchiga singdirishdagi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishdagi beqiyos ahamiyati haqida tajribali olimlar, pedagog va metodistlar, jumladan, S.Dolimov, M.Asqarova, O.Sharafiddinov, Y.G'ulomov, O.Madayevlar qimmatli fikrlarni aytib o'tganlar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda insho muhim o'rin tutishi O.Sharafiddinovning «Birinchi mo'jiza» maqolasida alohida ta'kidlangan [Sharafiddinov 1979, 11-23].

Aynan ijodiy matn yaratish jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabati yo'naltiruvchi - ijodiy yondashuvchi, ijodkor ko'rinishiga erishilmas ekan, faollashtirishga, mustaqil fikrlashga erishib bo'lmaydi.

Bugun nafaqat ona tili, adabiyot darslari balki barcha fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari, u kommunikatsiya (uzatish, ta'sir o'tkazish), interaksiya (o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro ta'sir o'tkazishi, persepsiya (insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni o'quvchilarning o'qituvchi yoki o'qituvchining o'quvchi tomonidan idrok qilish) singari tarkiblardan iborat bo'lishi davr talabiga

aylandi. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan interfaol uslubda dars o'tishga, o'quvchi esa shunday darsning ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritishga ko'nikdi.

Agar dars jarayonida "BBB"-*Bilaman, Bilishni istayman, Bilib oldim* - uslubidan foydalanilsa, o'quvchilarimizning ma'lum bir mavzu yuzasidan bilimlari darajasi turlicha ekanligi ma'lum bo'ladi. Bilishni istayman rukni esa ularda qiziqish, bilim olishga bo'lgan intilishni ko'rsatadi. Bu rukn mazkur ped texnologiyaning asosi hisoblanadi. Biladigan o'quvchining bilimini boyitish bilan birga bilish darajasi past bo'lgan o'quvchida bilim olishga ehtiyoj tug'diradi, bu ehtiyojni rivojlantiradi.

*Bilib oldim* ruknida o'quvchi aynan nimani bilib olganligini o'zi aniqlaydi, ya'ni vazifaga evristik yondoshadi.

### **Xulosa**

Bu kabi texnologiyalar o'quvchini ham o'z ustida ishlashga yo'naltiradi. 2020-yilda Respublikamizda umumiy o'rta ta'limda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan. Umumiy o'rta ta'limning "Milliy dasturi"da aynan yuqorida aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etish ustuvor maqsad qilib belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim tizimida Ona tili fanining vazifasi: "O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi", - deb belgilangan.

### **Adabiyotlar**

- Добромислов, В. 1982. "Активизация процесса обучения русскому языку", *Советская педагогика* 2: 40-41.
- Karimova, V.M., Akramova, F.A. 2000. *Psixologiya* (ma'ruzalar matni). Toshkent. Universitet.
- Гозиев, Э. 1990. *Тафаккур психологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Шомова, Т.И. 1982. *Активизация учения школьников*. Москва.
- Красота, Т.С. 1979. *Методика активизации мыслительной деятельности учащихся при изучении тем «Имя существительное» в 5 классе*: АҚД, Ленинград.
- Мингазов, З. Г. 1969. *Активизация познавательной деятельности учащихся средствами наглядности*. Москва.

- Кустарева, В. А. 1964. *Активизация учебной деятельности учащихся начальных классов на уроках грамматики*. Под ред. Н.С.Рождественского. Москва.
- Гуломов, А. 1987. *Она тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини активлаштириш*. Тошкент.
- Ганиев, Т. 1991. *Она тили бўйича машқлар бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш (идрок этиш) фаолиятини фаоллаштириш*. Пед. фан. номз... дисс. Тошкент.
- Шарофутдинов, О. 1979. *Биринчи мўжиза*. Тошкент.

## Problems in Developing Creative Thinking Skills

Nodira Alavutdinova<sup>1</sup>  
Muqaddas Abdurahmonova<sup>2</sup>

### Abstract

This article presents guidelines for the development of written and oral skills of students in the classes of secondary schools with the Uzbek language of instruction. The main goal of the article is to develop students' written and oral competencies from simple to complex - at each lesson: a) increasing the lexical minimum of students; (b) development of skills and abilities to use the accumulated vocabulary in the written and oral process. This method is recommended, based on the experience of today's Uzbek language classes, as one of the most effective ways to ensure positive results in the development of students' written and oral skills.

**Key words:** *creative thinking, conversational competence, vocabulary, skills and abilities.*

### References

- Dobromislov, V. 1982. "Aktivizacija processa obuchenija russkomu jaziku", *Sovetskaja pedagogika* 2: 40-41.
- Karimova, V.M., Akramova, F.A. 2000. *Psixologiya* (ma'ruzalar matni).

---

<sup>1</sup> *Nodira G. Alavutdinova* – Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, National University of Uzbekistan.

**E-mail:** nodira.alavutdinova@BK.ru

<sup>2</sup> *Muqaddas P. Abdurahmonova* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, National University of Uzbekistan.

**E-mail:** mparpiyeva@mail.ru

**For citation:** Alavutdinova, N. G., Abdurahmonova, M. P. 2021. "Problems in Developing Creative Thinking Skills". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 68–79.

Toshkent. Universitet.

Goziev, J. 1990. *Tafakkur psixologijasi*. Toshkent. Uqituvchi.

Shomova, T.I. 1982. *Aktivizacija uchenija shkolnikov*. Moskva.

Krasota, T.S. 1979. *Metodika aktivizacii mislitelnoj dejatelnosti uchashihsja pri izuchenii tem «Imja sushestvitelnoe» v 5 klasse: AKD*, Leningrad.

Mingazov, Z. G. 1969. *Aktivizacija poznavatelnoj dejatelnosti uchashihsja sredstvami nagljadnosti*. Moskva.

Kustareva, V. A. 1964. *Aktivizacija uchebnoj dejatelnosti uchashihsja nachalnyh klassov na urokah grammatiki*. Pod red. N.S.Rozhdestvenskogo. Moskva.

Gulomov, A. 1987. *Ona tili darslarida uquvchilarning uquv-biluv faolijatini aktivlashtirish*. Toshkent.

Ganiev, T. 1991. *Ona tili bujicha mashqlar bazharish zharajonida uquvchilarning bilish (idrok etish) faolijatini faollashtirish*. Ped. fan. nomz... diss. Toshkent.

Sharofutdinov, O. 1979. *Birinchi muzhiza*. Toshkent.



## Bilingvizmning bilingval bolalar nutq qobiliyatlari rivojiga ta'siri

Manzura Shamsiyeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Jahon tajribasi va xalqaro doirada o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot xulosalari bugungi kunda bolaning aqliy rivojlanishi shakllanishida bilingvizmning ta'siri masalasi yangi mazmun kasb etishini dalillaydi. Rivojlanib borayotgan dunyoviy tendensiyalar ayrim xalqlarning boshqasi tomonidan assimilyatsiyasi, bir tomondan, milliy qadriyatlar, madaniyat, tilning yo'qolishi, ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib kelsa, boshqa tomondan, aksincha, hayotda milliy namoyishlarning eng so'nggi shakllarigacha namoyon bo'lishiga olib keladi. Maqolada ko'pchilikni qiziqtiradigan masala – bilingvizmning bola rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *bilingvizm, bilingval, monolingv, miya faolligi, tilni o'zlashtirish, bir tilli, ikki tilli, Meg apparati, kodlar o'zgarishi, chalkashlik.*

### Kirish

Dunyoda XX asr o'rtalaridan boshlab bolalar bilingvizmiga bo'lgan munosabat, uning shakllanishiga nisbatan qiziqish kuzatila boshlandi, so'nggi yillarda esa aholining turli qatlamlarida bu fenomenga nisbatan ijobiy munosabat doimiy ravishda oshib bormoqda. Bugungi kunda xorij davlatlarida bilingvizm va ko'p tillilikning shakllanishiga tillar va madaniyatlarni saqlab qolish imkoniyati sifatida qaralmoqda. Erta bolalar bilingvizmini bir tilli bola rivojlanishi kabi haqiqatan normal hodisa deb hisoblash uchun bilingval bolalarning ota-onalari va bolalar bilingvizmini shakllantirish haqida o'ylanayotgan ota-onalarning munosabatini bilish muhimdir. Shu sababli bolalar bilingvizmi haqidagi faqat nazariyalar va olimlarning tadqiqotlari emas, balki bilingval shaxs shakllanishi va ijtimoiylashuvi jarayonlarida ishtirok etuvchilar –

---

<sup>1</sup> Shamsiyeva Manzura Bababekovna – tayanch doktorant (PhD), O'zbekiston Milliy universiteti.

**E-pochta:** vasiya06@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-2119-1777

**Iqtibos uchun:** Shamsiyeva, M. B. 2021. "Bilingvizmning bilingval bolalar nutq qobiliyatlari rivojiga ta'siri". *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 80–89.

ota-onalar va bolalarining fikrlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda o'z bilingval rivojlanishi haqidagi introspektiv qarashlar ifodalangan tadqiqotlar yetarli emas, biroq ular ham asta-sekin paydo bo'ladi.

1959-yilda chop etilgan shunday ishlardan biri Vilgelm Teodor Elvertning o'z oilasida qanday qilib ikki tilni (onasidan ingliz tili va otasidan nemis tili) va deyarli bir vaqtda uchinchi til (italyan tilini boshqalardan, chunki oila Italiyada yashagan)ni o'zlashtirganini tavsiflaydi [Elwert 1959]. Hozirda bunday ishlar lingvoetnografiya (Language ethnography) tarkibida rivojlanadigan lingvistik avtoetnografiya (Linguistic auto-ethnography)ga kiritiladi. Olimlar o'z lingvistik tarixlarini, jumladan, tilni o'zlashtirish, ularning ota-onalari, boshqa oila a'zolari tilini o'zlashtirishi, shu tariqa, oilaning lingvistik va lingvomadaniy tarixini bayon qiladilar. Bunday ishlar-ning aksariyati o'zining ikki tillilik va ko'p tillilik tajribasini anglash bilan bog'liqdir. Ibragim Chinarbash "Lost between languages" maqolasida turk, kurd, arab va ingliz tillarini oilada, so'ngra maktab va talabalik davrlarida o'zlashtirganligi borasidagi multilingval tarixini yoritadi [Çinarbaş 2014]. Ulg'aygan bolalar ko'pincha o'zining ikki tilligi va ko'p tilligini ijobiy baholaydilar, mamnuniyat bilan o'z tajribalari borasidagi mulohazalari bilan bo'lishadi.


Bugungi kunda "ikki tilli shaxsning nutq faoliyatida tilga oid va ensiklopedik bilimlarning o'zaro ta'siri qay tarzda amalga oshirilishi, ularning xotirasida qanday tashkil etilganligi" va "ular qaysi til orqali o'zlashtirilgani hamda qaysi til orqali uzatilishi kerakligi"ni tushuntira oladigan tildan foydalanishning yaxlit jarayonini modellashtirish va integral tipdagi nazariyani ishlab chiqish tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi.

Ikki tillilikka doir psixolingvistik tadqiqotlar shaxsning til-nutq mexanizmlarini tavsiflashga yo'naltirilgan umumnazariy konsepsiyalarga asoslanadi (N.P. Antipev, V.P. Belyanin, Y.M. Vereshagin, A.A. Zalevskaya, V.G. Kostomarov, Ye.V. Nakaznaya, U.F. Makki, G.A. Maktamkulova, M.S. Maleshina, I.L. Medvedeva, M. Siguan, M.T. Zokirov, Sh. Jo'rayev, B. O'rinboyev, M. Qurbonova, N. Sayidrahimova va h.k).

### **Bolalarda ikki tillilikning rivojlanishi**


Bilingvizm Alsgeymer kasalligi rivojlanishini to'xtatadi. Bolalar lingvistika geniysidirlar. Butun dunyoda bolalarga hech kim o'rgatmasa-da, ona tilini tabiiy va aralash holda o'zlashtiradi. Ikki tilni eshitish imkoniga ega bo'lgan bolalar ikkalasini ham o'rganadi va ikki

til sohibiga aylanadi. Vashington instituti tadqiqotchilari 1 yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bilingval, ikki tilni bir vaqtda o'zlashtirayotgan bolalarda miya qay tarzda tilni ishlab chiqarishini o'rgandilar. Bola miyasini o'rganishda qo'llanadigan vosita – magnitoensefalografiya, qisqartirilgan shakli “MEG” apparati mutlaqo xavfsiz bo'lib, bolalar miyasini o'rganishda qo'llanadi. Institut tasarrufidagi ushbu MEG apparati bolalar uchun maxsus yaratilgan bir nechta apparatlardan biridir. Tadqiqotning maqsadi uyda ikki tilda so'zlashiladigan oilada o'sayotgan bolalarning miyasida nima yuz berayotganini aniqlashdan iborat bo'lgan. Bu bolalar hali gapirmasidan ularning miyasi o'rganilganda faqat bir tilni eshitadigan bolalar miyasidan farqlanish bo'lish-bo'lmasligini aniqlash maqsad qilib olingan. Tekshirilgan bolalarning yarmi ikki tilli oila bolalaridan iborat. Ota-onalardan biri ispan tili, ikkinchisi ingliz tili sohibi. Qolgan bolalarning ota-onalari ingliz tili sohiblari bo'lgan va oilada faqat bir tilda muloqot amalga oshirilgan. Bolalarni MEGga tayyorlashda maxsus raqamli ruchkalar va shapkacha qo'llanadi. Bu protsedura bola boshi shaklini kuzatish imkonini beradi, MEG shlemni kiyganda muntazam uning harakatlarini kuzatish mumkin. So'ngra bolalar MEG xonasiga keltiriladi va maxsus kresloga o'tqiziladi. Miya kuzatilayotgan vaqtda boshida shlem MEG kiyilgan, ota-onalari bolaning yonida o'tiradi. Bolalarga turli tillarda tovushlar eshittiriladi, ayni holda ispan va ingliz tillari. Ba'zi tovushlar ingliz tiliga va ba'zilari ispan tiliga xos, ba'zilari esa ikkalasiga ham xos. Tadqiqotdagi barcha bolalar 11 oylik, chunki mana shu davrda bolalar ilk so'zlarini talaffuz qila boshlaydilar. Monolingv bolalar miyasi faqat ingliz tili, ona tilidagi tovushlarni qabul qilishga moslashdi, ularga hech qachon murojaat qilinmagan ispan tili tovushlari, ular hech qachon eshitmagan tovushlarni qabul qilishga moslashmadi. Bilingv-bolalarda mana bu holat yuz berdi (1-rasm):



1-rasm.

Bilingval bolalar miyasi ikki tilni ham qabul qilish jarayoniga moslashdi. Bu shuni anglatadiki, bolalar miyasi atrofidagi har qanday til va tillarni qayta ishlashi mumkin. Faqat bir tilni eshitadigan bolalar bir tilga ishlov beradi. Ikki tilni eshitadigan bolalar ikki tilni ishlaydi. Bu tadqiqotning yana bir yangiligi shundan iborat: miyada miya old qobig'i mavjud, bu sxemada u yashil rang bilan belgilangan. U old miya qismida joylashgan. Miyaning bu qismi diqqat qaratish, vazifalarga yo'naltirish va moslashuvchan o'ylashda ishlatiladi. Bilingval bolalarning miya faolligi kuchliroq, til tovushlariga nisbatan miya reaksiyasi, ayniqsa, miyaning old qismida uchliroq ekanligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



Buning sabablaridan biri shuki, tillar o'rtasidagi muntazam o'tish (o'zgarish), ya'ni kod almashishi miyani mashq qilishga majbur qiladi, diqqatni o'zgartirishda ishtirok etadigan miya tarmog'ini mustahkamlaydi va bu bilingvlarning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. Boshqa tadqiqotlarning ham ko'rsatishicha, nafaqat bilingval bolalar, katta bilingvlar ham kognitiv bilimni talab qiladigan vazifalarni bajarishda afzalliklarga ega bo'ladi. Bolalar gapirishdan oldin - 11 oylikdanoq moslashuvchan tafakkur bilan bog'liq bo'lgan miya qismlaridagi farqlarni kuzatishimiz mumkin. Demak, tadqiqotning ko'rsatishicha, bola miyasi bir vaqtning o'zida ikki tilni qiynalmasdan o'zlashtira oladi.

Bilingvizm bolalar nutqni o'zlashtirishini sekinlashtiradi, degan tushuncha mavjud, biroq tadqiqotlar buni tasdiqlamaydi. Bilingvizm qonuniyatlarini o'rganish bir tilni o'rganish jarayoni bilan bir xil ekanligini ko'rsatdi. Bilingval bolalar va bir tilli bolalar ham ilk so'zlarini bir vaqtda talaffuz qila boshlashdi. Masalan, bilingv bolalar va bir tilli bolalar nutqidagi so'zlar sanab chiqilganda bir xil, ba'zi hollarda bilingval bolalarning so'zlari ularnikidan ham ko'proq

bo'ldi. Yana bir xavotir ikki tillilik chalkashlikni keltirib chiqarishi bilan bog'liqdir. Bu shu bilan bog'liqki, bilingvlar bir gap yoki bir vaziyatda ikki tilni aralashtirib yuboradilar. Bu kodlarning o'zgarishi yoki almashishi deyiladi. Bu o'zgarish yoki almashish chalkashlikni keltirib chiqaradimi? Fanning fikricha, yo'q. Aksariyat bilingvlar kodni o'zgartirishadi. Masalan, oilada uch tilda gaplashiladi va shu sababli bolalar ba'zan uchta tilni ham aralashtirib gapiradi. Bu bolalarda chalkashlik borligini anglatadi. Bunday aralashtirib gapirishning 1-sababi – u shunday gapira oladi, chunki bilingv bolalar monolingvlardan farqli ravishda zaxirasida yana bir til mavjud bo'lib, o'sha tildan so'zlarni oladi, bir so'zni boshqa tilda yaxshiroq biladi, shuning uchun o'sha tildan so'z olib qo'llaydi. 2-sababi shundaki, u shu so'zni tushunadigan odamlargagina bu so'zlarni qo'llaydi, bu tilni tushunmaydigan muhitda, masalan, maktab va bog'chada ushbu so'zlarni qo'llamaydi, bilingvlar qachon tilni aralashtirish mumkinligini juda yaxshi farqlaydilar. Eksperimentlarning ko'rsatishicha, hatto ikki yoshli bolalar ham o'z tilini kim bilan muloqot qilayotganligiga qarab moslashtiradi. Kodlarni almashtirish bu turli tillardagi so'zlarni tasodifiy almashtirish degani emas. U grammatika qonuniyatlariga bo'ysunadi. Kodlarni almashtirish ikki tilda ham lingvistik bilimlarni talab qiladi. Shu sababli kodning alamashishi chalkashlikning emas, lingvistik mahoratning belgisidir. Bu bilingval bolalar va kattalar uchun ham mutlaqo normal va kutilgan holatdir. Bilingvizm chalkashlikni keltirib chiqarmaydi va tilni o'zlashtirish jarayonini kechiktirmaydi.

Mana shu dalillarga asoslangan holda biz 7-9 yoshli bilingval bolalarda bilingvizmning ta'siri qay tarzda namoyon bo'lishi, 3 yoshgacha bo'lgan davrdagidan farq bo'lish-bo'lmasligini aniqlash maqsadida tajriba o'tkazdik. Chunki aksariyat bilingval bolalarda nutqi ravon emasligi, o'z ona tilini unutib qo'yish hollarini kuzatamiz. Bu kabi masalalarga oydinlik kiritish maqsadida bir qator psixolingvistik metodikalar yordamida bilingval bolalar nutqi tadqiq etildi. Maqolada 7-8 yosh oralig'idagi bilingv bolalarda o'tkazilgan tajriba natijalarini keltirib o'tamiz.

Tadqiq etilgan 7-8 yoshli bilingval bolalarda ifodaning dekodlash jarayoni turlicha kechdi. Bu xabarda bolaga ma'lum bo'lgan hodisa, aloqalar, oldingi tajribada yuzaga kelgan va barqarorlashgan yoki xabar mazmuni faqat rasmiy grammatik belgilarning tahlili asosida tushunarli bo'lishiga bog'liqdir. Dastlabki holatda ifodani tushunish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ikkinchi holatda so'zlarning teskari tartibli passiv qurilmalaridan farqli o'laroq, bevosita obyektga

ega bo'lgan sodda faol gaplarni tushunish va anglash osonroq kechadi. Tushunish uchun murakkab tahlil o'tkazish talab etilganda barcha bolalar qiyinchilikka uchrashdi.

### **Sodda gaplarning tushunilishi**

Psixolingvistik testlar to'plami turli grammatik murakkablikdagi gaplarni tushunish qobiliyatini tekshirishga mo'ljallangan. Psixolingvistlarning fikricha, bunday qabul qilish qobiliyati til kompetentligining umumiy darajasini ko'rsatadi. Bolalar o'z nutqida egallagan grammatik murakkablikdagi gaplarni tushunadi. Bu topshiriqlarni bajarish muvaffaqiyati verbal materialning hajmi va bolaning eshitish xotirasi sifatiga bog'liqdir.

Gaplarni tushunishni tahlil qilishda nafaqat grammatik xatolarga, balki so'zlarni tushirib qoldirish, so'zlarni almashtirish kabi leksik xatolarga ham e'tibor qaratildi. Murakkab keng tarqalgan gaplarni qaytarish o'ziga xos qiyinchilik tug'dirdi.

Birinchi test quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Ko'rsat: qalam bilan taroq, taroq bilan qalam; kalit bilan qalam; qalam bilan kalit; taroq bilan kalit; kalit bilan taroq.

Baholash mezonlari:


har bir to'g'ri bajarilgan topshiriq uchun – 3 ball;

xato bilan bajarilgan topshiriq uchun – 2 ball;

xato bajarilgan topshiriq uchun – 1 ball;

topshiriqni bajarishdan bosh tortish – 0.

Testni bajarish natijalari 1-diagrammada berilgan (3-rasm).



3-rasm.

1-diagrammadan ko'rinib turganidek, barcha guruhlar bir-biridan tubdan farq qiladi. Bunda quyidagi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

1. Monolingv bolalarning semantik-sintaktik munosabatlar shakllanganlik darajasi bilingval bolalarga qaraganda yuqori bo'ldi.

2. Barcha bolalarda yoshi bilan bog'liq ravishda topshiriqlarni bajarish darajasi o'sganligi kuzatildi, bu maktabda tilni tizimli o'rganishni boshlagani bilan asoslanadi. Biroq monolingv bolalar bilingval bolalardan sezilarli darajada o'zadi, bu holatda esa bilingvizm mazkur qobiliyatning rivojlanishini sekinlatishi haqida gapirish mumkin.

3. Yetti yoshli bolalarda (24%) vazifani noto'g'ri bajarish kuzatildi, aynan: "Kalit bilan qalamni va qalam bilan kalitni ko'rsat" topshirig'ini bajarishda harakat bir xil bo'ldi. Biroq shuni aytish joizki, yordam ko'rsatilganda ular o'z xatolarini to'g'riladilar.

4. Sakkiz yoshli monolingv bolalar vazifani to'g'ri bajarishdi.

5. Bilingval bolalarda testni noto'g'ri bajarish ko'proq kuzatildi (64% yetti yoshli bolalarda va 32% sakkiz yoshli bolalarda), bu esa monolingv bolalarga qaraganda bilingval bolalarda leksik zaxira kamligi bilan asoslanadi. Ba'zi bilingval bolalarda grammatik tuzilishni tushunishda buzilish kuzatildi. Ular tomonidan so'zlar boshlang'ich shaklda qabul qilindi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, yuqorida keltirilgan 3 yoshgacha bo'lgan bilingv bolalardagi miyaning reaksiya kuchi, ijobiy jihatlari vaqt o'tishi bilan salbiy tomonga o'zgargan.

Bunda qator omillar mavjud bo'lib, bilingv shaxsni shakllantirishda quyidagi jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Tartibsiz ravishda shakllangan ikki tillilik ikkinchi tilni to'laqonli va to'g'ri o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Natijada "yarim tillilik" yuzaga keladi va bola nafaqat ikkinchi tilni, balki o'z ona tilini ham noto'g'ri o'zlashtiradi.

2. Bevosita kundalik muloqot orqali kontaktdagi tillarning adabiy shakli emas, balki faqat so'zlashuv tili o'zlashtiriladi. So'zlashuv tilining o'ziga xosligi shundaki, adabiy tildan farqli ravishda u me'yorlashtirilmagan, barqaror emas va juda ham chegaralangan leksikani qamrab oladi. O'zaro aloqadagi tillarning ikki taraflama interferensiyasi nutq me'yorlarini yanada beqarorlashtiradi va adabiy til me'yorlaridan yanada uzoqlashtiradi.

3. Oilada ikkinchi tilni qo'llash jarayonida ona tilini unutilib qo'yimaslik lozim. Ikkala tilni ham har kuni bir me'yorda qo'llash

maqsadga muvofiq, agar bunga rioya qilish murakkablik tug'dirsa, unda bolada sun'iy, ya'ni o'quv bilingvizmini shakllantirish tavsiya etiladi. Chunki maktab til kompetensiyasini shakllantirish va bir necha tillarni to'liq o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida o'quvchi tilni to'g'ri qo'llash malakasini o'zlashtiradi va tilni egallashda muhim sanalgan taqqoslash imkoniga ega bo'ladi.

4. "Yarim tillilik"ning sababi ikki tillilik emas, balki muvofiq shaxslarning past madaniyat darajasi, oila tarbiyasi va ta'limning past darajasi sanaladi.

5. Bolaning ikkinchi tildagi kompetensiya darajasi uning birinchi – ona tilining rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

### **Adabiyotlar**

- Выготский, Л. С. 2001. *Мышление и речь. Психика, сознание, бессознательное.* Москва.
- Пиаже, Ж. 1999. *Речь и мышление ребенка.* Москва: Педагогика-Пресс.
- Кольцова, М. М. 2002. *Ребенок учится говорить. Пальчиковый игротренинг.* М.С. Рузина. СПб.: Сага.
- Слобин, Д. И. 1984. *Когнитивные предпосылки развития грамматики. Психолингвистика.* Москва.
- <https://singupost.com/naja-ferjan-ramirez-on-creating-bilingual-minds-at-tedxijubljana-transcript>.
- Зокиров, М.Т. 2007. *Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши.* Филол. фан. н. дисс... Тошкент.
- Grosjean F. 2010. *Bilingual: life and reality.* Cambridge: Harvard University Press.
- Gloria Eduviges Ramirez Gómez (University of Toronto). «*The role of morphological awareness in bilingual children's first and second language vocabulary and reading*» PhD dissertation thesis, Department of Human Development and Applied Psychology Ontario Institute for Studies in Education of the University of Toronto, 2009.
- Залевская, А. А. 2000. *Введение в психолингвистику: Учеб. пособие для студентов вузов.* Рос. гос. гуманитар. ун-т. Москва: Изд.центр РГГУ.
- Зимняя, И.А. 2003. *Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования.* Высшее образование, 5 .
- Hamers, J., Blanc, M. 2000. *Bilinguality and bilingualism.* Cambridge, Cambridge University Press.



# Bilingual Children of Bilingualism Influence on the Development of Speech Skills

Manzura Shamsieva<sup>1</sup>

## Abstract

The world experience and the conclusions of scientific research conducted today in the international community prove that the question of the influence of bilingualism on the formation of the child's mental development is gaining new significance. The assimilation of some peoples by others leads, on the one hand, to the disappearance of national values, culture, language, to social disadaptation, on the other hand, on the contrary, to the manifestation in life up to the most recent forms of national manifestations. The article highlights an issue that interests many people – the impact of bilingualism on the development of the child.

**Key words:** *bilingualism, bilingual, monolingual, brain activity, language acquisition, monolingualism, MEG apparatus, code change, confusion.*

## References

- Vygotskij, L. S. 2001. *Myshlenie i rech'. Psihika, soznanie, bessoznatel'noe.* Moskva.
- Piazhe, Zh. 1999. *Rech' i myshlenie rebenka.* Moskva: Pedagogika-Press.
- Kol'cova, M. M. 2002. *Rebenok uchitsja govorit'. Pal'chikovyj igrotrening.* M.S. Ruzina. SPb.: Saga.
- Slobin, D. I. 1984. *Kognitivnye predposylki razvitija grammatiki.* Psiholingvistika. Moskva.
- <https://singjupost.com/naja-ferjan-ramirez-on-creating-bilingual-minds-at-tedxljubljana-transcript>.
- Zokirov, M. T. 2007. *Lingvistik interferencija va uning uzbek-tozhik bilingvizmida namojon bulishi.* Filol. fan. n. diss... Toshkent.
- Grosjean F. 2010. *Bilingual: life and reality.* Cambridge: Harvard University Press.
- Gloria Eduviges Ramirez Gómez (University of Toronto). *«The role of*

---

<sup>1</sup>Manzura B. Shamsieva – basic doctoral student (PhD), National University of Uzbekistan.

**E-mail:** vasiya06@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-2119-1777

**For citation:** Shamsieva, M.B. 2021. "Bilingual Children of Bilingualism Influence on the Development of Speech Skills". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 80–89.

*morphological awareness in bilingual children's first and second language vocabulary and reading» PhD dissertation thesis, Department of Human Development and Applied Psychology Ontario Institute for Studies in Education of the University of Toronto, 2009.*

- Zalevskaja, A. A. 2000. *Vvedenie v psiholingvistiku: Ucheb.posobie dlja studentov vuzov. Ros. gos. gumanitar. un-t. Moskva: Izd.centri RGGU.*
- Zimnjaja, I.A. 2003. *Kljuchevye kompetencii - novaja paradigma rezul'tata obrazovanija. Vysshee obrazovanie, 5.*
- Hamers, J., Blanc, M. 2000. *Bilinguality and bilingualism.* Cambridge, Cambridge University Press.

## “Suhayl va Guldursun” dostonida o‘g‘uz lahjasining qo‘llanishi

Iqbol O‘razova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqola Sayfi Saroyi qalamiga mansub “Suhayl va Guldursun” dostonining til xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada doston tilining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, asar tilida qo‘llangan o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlar umumlashtirilgan holda uch guruhga ajratilib tavsiflangan. O‘g‘uz lahjasi elementlarining ishlatilishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgani misollar bilan isbotlangan. Qolaversa, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida Sayfi Saroyi ijodining o‘rni beqiyos ekanligi statistik ma‘lumotlar orqali asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** *eski o‘zbek adabiy tili, lahja, kelishik shakllari, jo‘nalish kelishigi, fe‘l shakli, fuziya.*

### Kirish

Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” asari o‘zbek adabiyotidagi ilk ishqiy-romantik dostonidir (Sababi “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlari mavzu jihatidan pandnoma doston hisoblanadi). Asar 1394-yil yozilgan bo‘lib, syujet chizig‘iga egaligi va hayotiy haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi. Asar aruzning hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan bo‘lib, vazn talabiga qat‘iy rioya qilingan.[Mallayev 263]. Doston 82 bayt, ya‘ni 164 misradan iborat bo‘lib, kirishdan tashqari “Suhaylning chohda yotmishi”, “Suhaylning tush ko‘rmishi”, “Shoh qizi Guldursun Suhaylni ko‘rgoni va uni sevib qolganin bayoni”, “Guldursunning chohga tushub Suhayl bilan so‘zlashgoni”, “Suhayl bilan Guldursunning chohdan chiqib qochganlari bayoni” kabi boblardan iborat. Muallifning har bir bobni asar mazmunidan kelib chiqib sarlavha shaklida nomlab borishi ham ijodkor yutug‘i sanaladi. Doston voqealari Xorazm xalq og‘zaki ijodiga mansub “Guldursun” afsonasi motivida yozilgan.

---

<sup>1</sup>O‘razova Iqbol Abdikarimovna – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** orazovaiqbola@gmail.com

**Iqtibos uchun:** O‘razova, I. A. 2021. “Suhayl va Guldursun” dostonida o‘g‘uz lahjasining qo‘llanishi”. *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 90–96.

Lekin muallif doston boshlanmasida ushbu asar afsonaga emas, aksincha hayotiy voqealarga asoslangani, Suhayl esa shoirning o'z zamondoshi bo'lganini aytib o'tadi:

*Emas afsona chin ushbu bitilmish,  
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.  
Ayittim og'labon davrim jafosin,  
Bir urning qissayi ahd-u vafosin* [Uch bulbul gulshani 326].

Tarixiy voqealarga tayansak, Xorazm Oltin O'rda xonligiga qarashli ekanligi hamda Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi jang Temur g'alabasi bilan tugaganini inobatga olsak, muallif tarixiy voqealar asosida asarni shakllantirganiga ishonish mumkin.

Doston yakunida esa asar voqealari to'qima syujet emasligiga yana bir bor ishora qilinadi:

*Bo'lur bu bitikkim, tarixga yodgor,  
Bu yodgorimda yolg'on yo'g'-u chin bor* [Uch bulbul gulshani 330].

### **Asarning til xususiyatlari**

Bilamizki, Sayfi Saroyi Oltin O'rda adabiy muhiti vakili bo'lgan. "Oltin O'rdaning adabiy tilini va adabiyotini yaratishda ham Xorazm katta rol o'ynagan. Oltin O'rdada chiqqan bir qancha badiiy asarlarining tili Xorazmning va Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlarining, ya'ni Oq O'rda territoriyasining til elementlari bilan bevosita bog'lanish bo'lganligini ko'rsatadi [Grekov, Yakubovskiy 347]. Yuqorida nomi aytib o'tilgan har ikki o'lka (Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlar) Oltin O'rdaning so'zlashuv tiligina emas, balki maydonga kelayotgan Oltin O'rda yozuviga, ayniqsa, uning badiiy adabiyotiga ham doimo ta'sir ko'rsatib kelgan" [Grekov, Yakubovskiy 50]. Dostonning til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, dostonda uchragan o'g'iz lahjasi elementlarini uch guruhga ajratgan holda izohlash mumkin.

1. O'g'iz lahjasiga xos bo'lgan fonetik belgilar
2. O'g'iz lahjasiga xos bo'lgan grammatik belgilar
3. O'g'iz lahjasiga xos bo'lgan leksik belgilar.

Avvalo, dostondagi o'g'iz lahjasiga xos bo'lgan fonetik belgilar obraz nomida uchraydi. Bosh qahramon Guldursun ismida Xorazm onomastikasi elementlari yaqqol aks etadi. Chunki so'z boshida jarangsiz tovushning jarangliga o'zgarishi faqat o'g'iz lahjasiga xos holatdir. Bunday misollar dostonning boshqa o'rinlarida ham uchraydi. Masalan:

*Gelib Guldursun ko'nglina bu so'zlar,*

*Kejib kunlarki, bunga chora izlar* [Uch bulbul gulshani 328].

*Kelib so'zi gelib* shaklida Xorazm shevasida hozir ham qo'llanadi. Ijodkor sheva elementidagi so'zni qo'llash orqali alliteratsiya san'atini yuzaga chiqarib, tovushlar ohangdorligini ta'minlamoqda. Chunki dostonning boshqa o'rinlarida bu fe'l kelib shaklida uchraydi. Tovushlar uyg'unligi keyingi misrada ham davom etadi, ya'ni *kejib*, kunlarki so'zlaridagi k tovushi maqsadli ravishda baytdagi ohangdorlikni hosil qilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, *kejib* so'zi o'g'iz lahjasiga xos leksika, *gechmoq* yoki *gejmoq* shaklida faol qo'llanuvchi fe'l bo'lib, matnda "kunlarini dard va o'ylov bilan o'tkazmoq" ma'nosini ifodalamoqda. Ayni ma'noda hozir ham yerli aholi nutqida uchraydi.

Yoki:

*Bu kech senga-yu menga keldi bir gez,*

*Dedi Suhaylg'a Guldursun: «Turub tez.*

Yoki, dostonning bir o'rnida *kunash* sifatida qo'llangan so'z boshqa o'rinda *gunash* shaklida qo'llanadi:

*Shukurlar etoyin allog'a ming bor,*

*Ki yetkurdi manga sentek gunash yor».*

Baytda qo'llangan *allog'a* so'zining ham talaffuz va fuziyasida o'g'iz lahjasi elementlari yaqqol ko'rinib turibdi. Bu kabi tovush tushishiga dostonidan ko'plab misollar keltirish mumkin:

*Va ne chora qisin bulbul qafasda,*

*Kerak gul g'unchasi ozod nafasda.*

Jarangsizning jarangliga aylanishi t va d tovushlari orasida ham kuzatiladi. Masalan:

*Nedur zoting, pari yo odamizod?*

*Manga ayt, odingi doim etay yod.*

Bilamizki, *ism* so'zi o'g'iz lahjasida o:d shaklida tallaffuz qilinadi. Shoir shakllanib kelayotgan adabiy til qoidalarini badiiylik yaratish maqsadida chetlab o'tgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki baytda d tovushi olti o'rinda qo'llangan va alliteratsiyaning go'zal namunasi hosil bo'lgan. Shoir sheva elementlaridan bir o'rinda badiiylik yaratish maqsadida foydalansa, boshqa o'rinlarda esa qoyifaning mukammalligini ta'minlash maqsadida qo'llaydi. Ayni so'z boshqa o'rinda ot shaklida uchraydi:

*Bor erdi shoh qizi, Guldursun oti,*

*Tilim evrilmas aytmog'a sifoti(n).*

Bu o'rinda esa mutlaq qofiyani hosil qilish uchun sifoti so'ziga ohangdosh sifatida ayni leksema oti shaklida qo'llangan.

Dostonda **ch** tovushining **j** tovushiga almashishi ham

uchraydi. Masalan, yuqoridagi baytlarning birida kechmoq fe'li kejmog shaklida qo'llangan. Yoki:

*Temur Urganja tortib keldi lashkar,  
Ko'rub ko'z – ko'r, bo'lib qoldi quloq kar.*

Bu kabi o'g'iz lahjasiga xos fonetik xususiyatlar doston tilining jozibadorligini va jonli tilga yaqinligini ta' minlash bilan birga badiiy san'at yaratish vazifasini ham bajargan.

O'g'iz lahjasiga xos bo'lgan grammatik belgilar kelishik qo'shimchalari qo'llanishida yaqqol aks etadi. Shunga e'tibor berish kerakki, dostonda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'g'iz varianti shaklida faol qo'llanadi. Yuqorigi baytda ham –ga kelishigi –a shaklida qo'llanmoqda.

Dostonning boshqa o'rinlarida –ga kelishigi –na shaklida ham qo'llanadi. Masalan:

*U izlab chora, yaxshi chora topti,  
Solib ichina g'urniq evi yopti.*

Yoki:

*Alar yuz qo'yishib bir-bir yuzina,  
Uzoq boqishtilar bir-bir ko'zina.*

Dostonda jo'nalish kelishigi 60 o'rinda qo'llangan bo'lib, 22 o'rinda –ga tarzida, 21 o'rinda –g'a shaklida, 7 o'rinda –na tarzida, 5 o'rinda –a tarzida, 4 o'rinda –qa shaklida, 1 o'rinda –ka shaklida qo'llangan. Statistikadan ko'rinib turibdiki, dostonda o'g'iz lahjasiga xos bo'lgan –a, –na shakli boshqa fonetik variantlarga qaraganda ko'proq qo'llangan. –ga shaklining –g'a shakliga qaraganda faol ishlatilgani esa Sayfi Saroyi ijodi misolida adabiy tilning shakllanib borishini ko'rsatadi. Dostonda –ning, –ni, –ga, –da, –dan kelishiklari hozirgi adabiy tilimizda qo'llanayotgan variantda ham ishlatilganini ko'rish mumkin. Matnda –ning kelishigining –ing o'g'iz varianti qo'llanganini ham uchratish mumkin.

Dostonda sifatdoshning o'g'iz lahjasiga xos shakli bo'lgan –mish qo'shimchasi faol qo'llangani boblar nomlanishida ham aks etadi. Asar matnidan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan:

*Ko'rsunkim, bo'lub tuproqda behol,  
Suhayl yotur, toptolmish yang'li gul ol.*

–dagi qo'shimchasi ham dostonda Xorazm shevasiga xos –daki shaklda ishlatilganining guvohi bo'lish mumkin. Masalan:

*O'nginda tushdakin ko'rganga u shod,  
Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod.*

G'Abdurahmonov eski o'zbek tilida ishlatilgan egalik

qo'shimchalari haqida gapirar ekan, III shaxs egalik qo'shimchasini -i, -si shaklida beradi. Yuqoridagi baytda esa III shaxs egalik qo'shimchasi -in shaklida kelmoqda (o'ng/in/da, ya'nida o'ngida ). Egalik shaklining bu tarzda qo'llanishi ham o'g'iz lahjasi elementi sanaladi. Agar shoir egalik qo'shimchasining adabiy variantini qo'llaganida ochiq hijo hosil bo'lar va she'r vazni buzilar edi.

Ayni holat olmoshlarga kelishik shakllari qo'shilishida ham kuzatiladi. Shoir hazaj bahri talabi bilan unga, kimga olmoshlari o'rnida o'g'iz lahjasi elementi mavjud olmosh shaklini tanlaydi va vazndagi mukammallikka erishadi. Masalan:

*Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,  
Kima mungaysin etib darda davo?*

Vazn talabi sabab Xorazm shevasiga murojaat fe'l asoslarda ham kuzatiladi. O'lgangamas asosi sheva variantida o'/lan/ga/mas (v - - -) shaklida, uyg'onib fe'li u/yo/nib (v - -) shaklida qo'llangan va aruz qoidalaridan chetlashishga yo'l qo'yilmagan. Masalan:

*U yotgan choh ichi yo'q shu'layi nur,  
O'langamas tiriga erdi bir go'r.*

Asarda o'g'iz lahjasiga xos leksik elementlar ham aks etadi. Ayniqsa *bo'l* fe'li *o'l* shaklida faol qo'llangan. Qolaversa, *jarohat* so'zining *yora*, *uyg'onmoq* fe'lining uyonmoq, *batafsil* ravishining toza varianti ham o'g'iz leksikasiga xosdir.

*O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq,  
Ki ikkisi qilur jonini tortuq.*

Yoki:

*Bitilgan nomani ellar o'qug'ay,  
Suhaylning tarixini toza bilg'ay.*

Sayfi Saroyi nafaqat she'r ilmi va adabiyotshunoslikni mukammal bilgan, balki astronomik bilimlar egasi ham bo'lganiga dostonni o'qib ishonch hosil qilish mumkin. Bilamizki, Nikolay Kopernik 1530-yilda olam tuzilishi haqidagi Geosentrik ta'limotni rad qilib, Yer ham harakatlanishini, sayyoramiz va boshqa osmon jismlari Quyosh atrofida aylanishini fan olamiga ma'lum qilgan. Sayfi Saroyi Kopernikdan qariyb bir yarim asr avval yerning Quyosh atrofida aylanishini bilgan va Suhaylni ko'rib sevib qolgan Guldursin ruhiy holatini ochib berishda shu nazariyadan foydalangan.

*Suhaylni ko'rdi-yu, aylandi birtek  
Kunash girdinda yurgan misli — yertek.*

Baytda yurgan fe'lining qo'llanganidan shuni anglash mumkinki, shoir Yer Quyosh atrofida davomli harakatlanishi haqida bilimga ega bo'lgan.

### **Xulosa**

Yuqoridagi fikrlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- "Suhayl va Guldursin" asari o'zbek adabiyotidagi ilk ishqiy-romantik dostonidir. Shu sababli mukammal syujetga ega bu dostonni adabiy tomondan tadqiq qilish adabiyotshunoslar oldidagi dolzarb masala bo'lmog'i lozim.

- Doston tili jonli xalq tiliga yaqinligi bilan e'tiborga molikdir. Asarda, asosan, turkiy so'zlar ishlatilgan va har uchala lahja elementlarini ko'rish mumkin. Ammo o'g'uz lahjasi boshqalariga qaraganda faolroq. Buni ijodkorning Xorazm yurtida tug'ilib o'sgani va Oltin O'rda adabiy muhitiga og'uz lahjasi ta'siri yuqori bo'lgani bilan izohlash mumkin.

- Asarda o'g'uz lahjasiga xos fonetik unsurlardan, asosan, badiiylik yaratish, ya'ni badiiy san'atlarni shakllantirish maqsadida foydalanilgan.

- Dostonda qo'llangan o'g'uz lahjasiga xos grammatik shakllar aruz vazni talablarini bajarish va so'zni vaznga tushirish uchun ishlatilgan.

- Muallif Kopernikdan oldin Yer Quyosh atrofida aylanishini bilgan va bu ma'lumotdan tashbeh sifatida foydalangan. Demak, Sayfi Saroyi asarlarining til xususiyatini o'rganish asar badiiyatini ochishga xizmat qiladi, shu bilan birga ajdodlarimiz salohiyati chegara bilmas ekanligini ham dalillash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

Аҳмадхўжаев, Э. 1987. "Алишер Навоийгача бўлган ўзбек шоирлари асарлари кўлёмасининг тарқалишига доир". *Адабий мерос* 1 (39): 18-27.

Греков, Б.Д., Якубовский, А. Й. 1956. *Олтин Ўрда ва унинг қулаши*. Тошкент.

Маллаев, Н. М. 1976. *Ўзбек адабиёти тарихи*. 1-китоб. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи.

*Ўзбек адабиёти тарихи*. 5 томлик. 1-том. Тошкент: Фан. 1977.

Фозилов, Э. 1973. *XIV аср Хоразм ёдноmaları*. Тошкент: Фан.

*Уч булбул гулашани*. Тўплам. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986.

Исҳоқов, Ё. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Ўзбекистон.



## The Usage of Oghuz Dialect in the Epic "Suhayl and Guldursun"

Iqbol Urazova<sup>1</sup>

### Abstract

This article is devoted to the linguistic phenomena of the epic "Suhayl and Guldursun" written by Sayfi Sara'i. The article reveals the peculiarities of the language of the epic, and the features of the oghuz dialect used in the language of the literary work are summarized and divided into three groups. The use of the oghuz dialect has been proven by examples to have served to enhance the art of the work. Furthermore, it has been proved by statistical data how the role of Sayfi Saroyi in the formation of the Uzbek literary language.

**Key words:** *old uzbek literary language, dialect, fusion, conjugation forms, participle, verb, possessive suffix, alliteration, metaphor.*

### References

- Ahmadxo'jaev, E. 1987. "Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek shoirlari asarlari qo'lyozmasining tarqalishiga doir". *Adabiy meros* 1 (39): 18-27.
- Grekov, B.D., Yakubovskiy, A. Y. 1956. *Oltin O'rda va uning qulashi*. Toshkent.
- Mallayev, N.M. 1976. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 1-kitob. 3-nashri. Toshkent: O'qituvchi.
- O'zbek adabiyoti tarixi*. 5 tomlik. 1-tom. Toshkent: Fan. 1977.
- Fozilov, E. 1973. *XIV asr Xorazm yodnomalari*. Toshkent: Fan.
- Uch bulbul gulshani. To'plam. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1986.
- Is'hoqov, Y. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: O'zbekiston.

---

<sup>1</sup> *Iqbol A. Urazova* – Basic Doctoral Student (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** orazovaiqbola@gmail.com

**For citation:** Urazova, I. A. 2021. "The Usage of Oghuz Dialect in the Epic "Suhayl and Guldursun". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 90–96.

## “Katorga” leksemasining semantik taraqqiyoti

Kamola Rixsiyeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada “katorga” leksemasining semantikasi tahlil qilingan. “Katorga” leksemasining kelib chiqishi, asosi, yasalishi hamda ma’no taraqqiyoti qadimgi turkiy til lug’atlarida yoritilishi o’rganilgan. O’zbek, rus va ingliz tili izohli hamda elektron lug’atlarida berilgan ma’nolari qiyosiy tahlil qilingan. Rus olimlarining bu mavzudagi tadqiqotlari va lug’atlarida izohlangan ma’nolari asosida uning yunon emas, balki turkiy so’z ekanligi asoslangan. Tilshunos olimlarning bu so’z etimologiyasi haqidagi fikrlarini tahlil qilish asosida yangi xulosalar bayon qilingan. Qadimgi turkiy tildan rus tili va u orqali boshqa tillarga o’zlashgan shu kabi so’zlar haqida qisqacha fikr-mulohazalar qayd qilingan.

**Kalit so’zlar:** *leksema, semantika, semantik taraqqiyot, o’zlashma, lug’at, elektron lug’at, izohli lug’at, etimologiya, katorga.*

### Kirish

Har qanday tilning lug’at tarkibiga nazar tashlar ekanmiz, unda turli hajmda boshqa tillardan o’zlashgan so’zlarning o’rni alohida bilinib turadi. Dunyoda sof tilning o’zi yo’q. Tillarning qadim tarixi, tabiati va xususiyatlarini tadqiq etishda shu tildan boshqa tillarga o’zlashgan leksemalar etimologiyasini va semantikasini o’rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bunday semantik, etimologik tahlil jarayonida ana shu leksemaning o’zlashish davri, dastlabki shakli va ma’nolari oydinlashib, leksemaning tarixiy-semantik taraqqiyotini aniqlashimiz, u haqida yangi ma’lumotlar olishimiz mumkin. Tilning ijtimoiy tabiati ham shunda namoyon bo’ladi. Ya’ni til jamiyat bilan tug’iladi, u bilan birga taraqqiy etadi, rivojlanadi. Ijtimoiy-madaniy hayotdagi o’zgarishlar, avvalo, tilning leksik sathida yaqqol aks etadi. V.fon Gumboldt ta’rificha, har qanday kichik til ham o’rganish va tadqiq etishga loyiqdir. Dunyoda ko’p

---

<sup>1</sup>Rixsiyeva Kamola G’ofurovna – o’qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** kkamola954@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Rixsiyeva, K. G’. 2021. “Katorga” leksemasining semantik taraqqiyoti”. *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 97–103.

tillar bir-biriga qandaydir darajada ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, turkiy tillarning jahon tillariga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishning o'zi tilimizning mavqeyini namoyish etadi. Jahonning yirik tilshunoslari qayd etishicha, turkiy tillardan rus tiliga va u orqali Yevropa tillariga 2500 dan ortiq so'z o'zlashgan bo'lib, aslida bu raqamlar undan ham ko'proqni tashkil qiladi. Olimlar buni itimoiy-madaniy va iqtisodiy aloqalar natijasi, deb baholaydilar. Bunday leksemalarning namunalari nemis tilshunosi Maks Fasmerning ko'pjildlik "Russisches Etimologisches Worterbuch" (1950-yillar) hamda Y. Shipovaning "Словарь тюркизмов в русском языке" (1976) asaridan o'rin olgan. Rus olimlarining e'tirof etishicha, rus tili lug'at tarkibida o'zlashmalar yetarlicha ko'p qismni tashkil qiladi va bu o'zlashmalarning deyarli yarmi turkiy tillardan o'zlashgan so'zlarni tashkil qiladi. Y. Shipovaning "Словарь тюркизмов в русском языке" lug'ati bu boradagi dastlabki lug'atdir. Lug'at muallifi nafaqat rus tiliga o'zlashgan turkiy so'zlar miqdorini aniqlash, balki ularning etimologiyasini ochib berishga ham erishgan. Olimlarning qayd etishicha, turkiy so'zlar rus tili leksik qatlamiga o'zlashganda talaffuz talabi bilan turli fonetik, morfologik va leksik-semantik o'zgarishlarga uchragan.

Bu yo'nalishda yaratilgan adabiyotlardan yana biri R.A.Yunaleevaning 2005-yilda nashr etilgan "Тюркизмы в русской классике: словарь с текстовыми иллюстрациями" kitobi hisoblanadi. Bu asarda rus tiliga turkiy tildan o'zlashgan so'zlardan hosil bo'lgan frazeologizmlar va ularning rus tilidagi o'rni birinchi bo'lib tadqiq qilindi. Lug'atda XIX asr yozuvchilari ijodi materiallari asosida rus og'zaki so'zlashuvidagi birliklarning ahamiyati asoslangan. Bu zamonaviy leksikografiyada yangi shakldagi lug'at sanaladi. Ushbu asar turkiy so'zlar etimologiyasi va tahlili bo'yicha yirik manbadir. Unda so'zlarning ma'nosini izohlashda turli xil matnlardan keng foydalanilgan.

### **Leksemaning dunyo tillaridagi tahlili**

Biz ushbu maqolani yozishda "kap" asosidan yasalgan "katorga" leksemasining semantik taraqqiyotini aniqlash uchun dastlab hozirgi kundagi mana shunday manbalar va lug'atlardagi hamda katta hajmli xorij elektron lug'atlaridagi izohlarini o'rgandik. Quyida uning eng katta sig'imga ega bo'lgan lug'atlardagi izoh va ma'nolarining berilishini ko'rib chiqamiz.

Xususan, "Ingliz wikipedia lug'ati"da katorga leksemasi quyidagicha izohlanadi: Katorga (Ruscha катопра so'zidan olingan.

O’rta va zamonaviy Grek tilidagi (“katergon, κάτεργον” so’zlaridan kelib chiqqan. “Galley”so’zidan). Ma’nosi: eshkak eshish orqali harakatlanadigan kema turi. Katorga Rus Imperiyasidagi juda og’ir majburiy mehnat turlaridan biri bo’lgan. Mahbuslar Sibir va Rossiya-ning Uzoq Sharqidagi odam yashamaydigan olis joylarga majburan yuborilgan, bu yerda ixtiyoriy yashovchi odamlar va ishchilar umuman yetarli bo’lmagan. Mahbuslar og’ir sharoitlarda majburiy mehnatni amalga oshirishlari kerak bo’lgan.

Ingliz etimologik lug’atida ham bu so’z rus tiliga mansub ekanligi va uning ma’nosi Rossiya yoki Sovet ittifoqidagi majburiy mehnat lageri (joy) deb izohlanadi.

Rus wikipedia lug’atida esa katorga leksemasi grekcha ekanligi qayd etilgan: “Katorga yoki katorga ishlari” grekcha *kateryov* – katergon, keyinchalik *galera* deb atala boshlagan. Davlat tomonidan eng og’ir deb baholangan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni eng og’ir mehnat turiga jalb qilish. Ya’ni katorga eng og’ir jinoyatchilarning davlat foydasiga xizmat qilishidir. Xuddi surgun kabi amalga oshirilib, mahbuslar og’ir mehnat lagerlarida majburiy quldorlik mehnatlari asosida ishlashi. Bu turdagi jazo avval ham bo’lgan. Jumladan, Rim imperiyasida uzundan uzun suv quvurlarini yotqizish kabi mehnat turlari va hokazolar.

Bundan tashqari, ushbu lug’atda “katorga” yoki “katorga ishlari” (og’ir majburiy mehnat, kelib chiqishi yunoncha katergon so’zidan olingan bo’lib, katta eshkakli qayiq degan ma’noni anglatadi) deb izoh beriladi.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da ham bu leksema quyidagicha izohlanadi: “Yunoncha *katergon* — galera, eshkak-yelkanli harbiy kema. Ma’nosi: Chor Rossiyasida va burjua mamlakatlarida jinoiy va siyosiy jinoyatlar uchun surgun qilish, juda og’ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasi va shunday jazoni o’tash joyi; umuman, og’ir mehnat, chidab bo’lmaydigan hayot sharoiti.

Demak, yuqorida keltirilgan lug’at maqolalaridan va undagi izohlardan ma’lum bo’ladiki, “katorga” leksemasining kelib chiqishi haqida har xil fikrlar mavjud, ammo ma’nosi bir xil. Izohlarga tayangan holda, katorga leksemasi ikki xil ma’noni anglatadi, deb aytish mumkin. Birinchisi -o’ta og’ir tartibdagi majburiy mehnat; ikkinchi ma’nosi esa o’ta og’ir tartibdagi jazoni o’tash joyi. Manbalardagi ma’lumotlarga ko’ra katorgadagi mahbuslar aksariyat hollarda qo’l va oyoqlari uzun zanjir bilan bandi qilingan holda og’ir mehnatlarni bajargan, ba’zan esa ular hatto bo’yinlaridan ham zanjirlab qo’yilgan.

Ba'zi rus olimlarining fikricha, rus tili leksik qatlamidagi "kolbasa", "lebeda", "limon", "pirog", "balamut", "shishka" kabi o'zlashmalar qatorida "katorga" ham etimologiyasi noma'lum leksemalar sirasiga kiradi. Uning turkiy asosga egaligi hamda kelib chiqishi bahsli masala ekanligi qayd etiladi. Ammo N.A.Baskakov "Русские фамилии тюркского происхождения" kitobida rus tilida turkiy asosga ega bo'lgan 300 ta familiyani izohlab, familiyalar yasalishida ishtirok etgan "pirog", "balamut", "shishka" sof turkiy so'zlar ekanligini qayd etadi [Baskakov 1979, 40-41, 123-124].

"Katorga" leksemasining asosi qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan va hozirda bir qator so'zlarga asos sanalgan "yopmoq", "berkitmoq" semalariga egabo'lgan "qap" so'zidir. Rustiliga o'zlashgan bir qator "qap" asosli leksemalarning mavjudligi ham bunga isbot bo'la oladi. Masalan, Y. Shipova "Словарь тюркизмы в русском языке" asarida rus tiliga qadimgi turkiy tildan o'zlashgan "yopmoq" va "berkitmoq" semalarini mujassamlashtirgan "qap" va uning asosida yasalgan bir nechta so'zlarning izohi hamda ma'nolarini keltiradi [Shipova, 1976]. Ya'ni kaptan, kaptana (keyinchalik kaptorga, kaptalka shaklini olgan) qadimgi turkiy tilda "qishki yopiq transport, kareta". Qadimgi rus tilida kaptan (1534-yy), keyinchalik "kaptorga" leksemasi qishki tashuv vositasi ma'nosini anglatgan.

Fasmer "kaptan"ga kelib chiqishi jihatidan "mavhum so'z" deb ta'rif beradi. "Katorga"ni esa yunoncha o'zlashma, deb hisoblaydi hamda kateryov – og'ir tartibdagi mahbuslar mehnati va ular saqlanadigan joy sifatida izohlaydi [Fasmer 1986, 211]. Fasmerning etimologik lug'atida "kap" asosli leksemalarning hammasi ham turkiy o'zlashma sifatida baholanmagan. Ammo Radlov bu so'zni sof turkiy so'z deb izohlab, "kaptama" turkiy kapla+ma (yopiq, berk)dan kelib chiqqanini bir qancha shu qatordagi so'zlar bilan asoslaydi. kapla- (tat., toб., tur., kap. т, чаг. кап+ла) 1. Yopmoq, berkitmoq, tutashtirmoq; капта- (каз., тел. кап+ла) 1. (тел.) yopmoq, berkitmoq; 2. (каз.) qopga solmoq.

"Kapturga"ni qurol-yarog' solish uchun mo'ljallangan qop, "kapturra" teridan ishlangan karmon, Radlov ham "kaptirga"ni qurol qismlari va patronlarini saqlovchi snaryad deb ta'riflaydi. Shunga o'xshash yana bir nechta leksemalarning ma'nosini izohlaydi.

R.A.Yunaleevaning «Тюркизмы в русской классике: словарь с текстовыми иллюстрациями» kitobida ham rus tiliga turkiy tildan o'zlashgan so'zlardan hosil bo'lgan frazeologizmlar va ularning rus tilidagi o'rni aks etgan bo'lib, ularning orasida "qap" asosli leksemalar ham mavjud. Masalan, "Прости, колпак, а шапка

и так” - (колпак) [Yunaleeva 2005].

Qadimgi turkiy soʻzlar lugʻatlaridan olingan misollardan koʻrinib turibdiki, “Katorga” oʻta ogʻir tartibdagi jazoni oʻtash joyi, yaʼni qamoq demakdir. Aslida turkiy “qamoq” soʻzining oʻzagi ham “qap”dir. “Qap”da “yopmoq” va “berkitmoq” semalari mavjud. 1997-yilda Moskvada nashr etilgan “Этимологический словарь тюркских языков” asarida qadimgi turkiy tildagi “qapi/kapi” leksemasining “turma”, “qamoq” maʼnosi ham keltirib oʻtiladi. Hozirda oʻzbek tili lugʻat tarkibida mavjud boʻlgan “qamoq” leksemasi ham “qapi” yoki “qapaq”ning fonetik oʻzgarishga uchragan koʻrinishidir.

“Katorga” leksemasining har ikkala maʼnosida ham qatʼiy tartibdagi “yopiqlik” semasi mavjud. Katorgadagi qatʼiy yopiqlik darajasi shu qadar yuqoriki, u yerda jazo muddatini oʻtayotgan mahbuslar ogʻir mehnatga qoʻl-oyoqlari va, hattoki, boʻynidan uzun zanjirlar bilan bandi etilgan holda jalb qilingan. Shunday tartibda ular ham jazo muddatini oʻtab, ham ogʻir yumushlarni bajargan.

Qadimgi turkiy til lugʻat tarkibidagi soʻzlar turkiy xalqlarning qadim madaniyati, urf-odatlarini, yashash tarzi, mashgʻulotlari, turmush sharoiti kabilarni aks ettirib turadi. G.Gumbatov “Историческая прародина тюрков” kitobida turkiy boʻlmagan xalqlar tili leksik qatlamiga oʻzlashgan turkiy soʻzlar haqida yozar ekan, qadimgi turkiy xalqlar qoʻshni xalqlar bilan yaqin aloqada boʻlib, hayvonlarni xonakilashtirish va ekin yetishtirish borasida katta tajribaga ega edi. Shu sababli ulardan qoʻshni xalqlarga nafaqat soʻzlar, balki katta madaniy tajriba ham oʻzlashgan. Bu fin-ugor, sharqiy slavyan, eron, kavkaz va moʻgʻul tillarida, ayniqsa, yaqqol koʻrinadi. Lingvistik maʼlumotlar bizga qadimgi turkiy va fin-ugor tillari oʻrtasidagi dastlabki aloqalar miloddan avvalgi III ming yilliklardan boshlangan, deb taxmin qilish imkoniyatini beradi. Shuni taʼkidlash kerakki, armanlar turkiy tillarning (Oʻgʻuz, Ozarbayjon turkchasi) kuchli taʼsiriga duch kelishdi. Mashhur arman yozuvchisi X. Abovyan “Раны Армении” romanida turkiy soʻzlar ularning, hatto, qoʻshiq, ertak, hikmatli soʻzlariga ham singib ketganligini, arman xalqi juda koʻp turkiy soʻzlarni oʻzlashtirib, bugungi kunda ulardan foydalanayotganligini, nafaqat soʻzlar, balki soʻzlashuv nutqida butun jummalarni ham ishlatishini yozadi [Gumbatov 2012, 205]. Shuningdek, arman tilida turkiy tilda oʻzlashgan 50 ta soʻzni keltiradi. Ularning orasida “kapa” ustki kiyim turini anglatishini qayd etadi.

## Xulosa

Qiyosiy tahlil jarayonida “katorga”ning avvalgi va hozirgi ma’nosida ham “yopiqlik” semasi to’liq saqlanib qolganligi ma’lum bo’ldi. Turli davr lug’atlarida “katorga”ga berilgan ta’riflarni o’rganib, manbalardagi unga o’zakdosh so’zlarning ma’nolarini qiyoslab, olimlarning bu haqdagi qarashlarini tahlil qilgan holda uning sof turkiy leksema ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Zero, tarixiy-ijtimoiy sabablarga ko’ra qadimgi turkiy tildan rus tiliga va u orqali dunyoning boshqa tillariga o’tib, jahon kezgan turkiy so’zlar ko’p miqdorni tashkil qiladi. Afsuski, ba’zida o’zbek xalqining xijolat bilan qiynalib talaffuz qiladigan, og’zaki nutqqa o’zlashgan “utyug” kabi rus so’zlari aslini olganda sof turkiy ekanligini bilmaymiz. “Utyug”ni aksent bilan “utik” deb noto’g’ri talaffuz qilayotganimizdan uyalamiz. Vaholanki, Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’ot-it turk” asarida turkiy xalqlarda kiyimni tekislash, unga ishlov berish ma’nosidagi “utimaq” fe’li mavjudligi aytiladi. Demak, “utimaq” harakatini amalga oshiruvchi vosita vazifasini “utik” bajargan. Buni biz, aksincha, asli kabi talaffuz qilayotganimizni bilmaymiz. Birgina shu so’z turkiy xalqlarning madaniyati o’sha davrlardayoq qanchalik darajada ekanligiga guvohlik berishi mumkin. XI asrda yozilgan asarda kiyimni tekislab, unga ishlov berib kiyish madaniyati shakllangani qayd etilgan bo’lsa ham, aslida bu buyum va harakatning mavjudligi undan ham oldingi asrlarga borib taqalishi mumkin. Qadimgi turkiy tildan rus tili va u orqali o’zga tillarga ko’p miqdordagi so’zlarning o’zlashishini ham madaniy turmush va taraqqiyotning yuqori darajasi natijasi, deb asoslash mumkin. “Katorga” ham xuddi shunday. Bu leksemani katta sig’imli lug’atlarda ba’zan rus, ba’zan yunon tiliga oid, ba’zan esa umuman kelib chiqishi noma’lum ekanligi qayd qilingan. “Katorga” o’ziga xos semantik taraqqiyot davrini o’tagan. Aynan shu sababli va o’zga tilning talaffuz me’yoriga moslashib, xuddi boshqa leksemalar kabi, ayrim fonetik o’zgarishlarga uchragan. Lekin uning semantikasida “qishki, yopiq yuk tashuv vositasi” degan dastlabki ma’nosidan butunlay uzilish holati yo’q. Demak, xulosa sifatida “katorga”ni asli turkiy leksema deb baholash mumkin.

## Adabiyotlar

- Баскаков, Н. А. 1979. *Русские фамилии тюркского происхождения*. Москва: Наука.
- Этимологический словарь тюркских языков*. Москва, 1977
- Фасмер, М. 1986. *Этимологический словарь русского языка*. Москва.
- Гумбатов, Г. 2012. *Историческая прародина тюрков*. Баку:

Элим и тахсил.

Кожевникова, Й.А. 2009. *Тюркизмы в современном русском языке*.

Шипова, Й.Н. 1976. *Словарь тюркизмов в русском языке*. Алма-Ата: Наука.

Юналеева, Р.А. 2005. *Тюркизмы в русской классике: словарь с текстовыми иллюстрациями*. Казан: Таглитат.

## Semantic Development of the Lexeme "Katorga"

Kamola Rikhsieva<sup>1</sup>

### Abstract

The article analyzes the semantics of the lexeme "penal servitude". I tried to reveal the origin, foundation, construction and development of the penal servitude lexeme based on dictionaries created in the ancient Turkic language. A comparative analysis of the values given in the explanatory and electronic dictionaries of the Uzbek, Russian and English languages is carried out. Based on the research of Russian scientists on this topic and the meanings interpreted in their dictionaries, an attempt was made to justify that this is a Turkic word, and not a Greek one. New conclusions were made on the basis of an analysis of the opinions of linguist scientists about the etymology of this word. Brief reviews of the Russian language from the ancient Turkic language and similar words borrowed into other languages through it are recorded.

**Key words:** *lexeme, semantics, semantic development, associativity, vocabulary, electronic dictionary, explanatory dictionary, etymology, series.*

### References

Baskakov, N.A. 1979. *Ruskiye familii tyurkskogo proisxojdeniya*. Moskva: Nauka.

*Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov*. Moskva, 1977

Fasmer, M. 1986. *Etimologicheskij slovar russkogo yazika*. Moskva.

Gumbatov, G. 2012. *Istoricheskaya prarodina tyurkov*. Baku: Elm i taxsil.

Kojevnikova, Y.A. 2009. *Tyurkizmi v sovremennom russskom yazike*.

Shipova, Y.N. 1976. *Slovar tyurkizmov v russskom yazike*. Alma-Ata: Nauka.

Yunaleeva R.A. 2005. *Tyurkizmi v russskoy klassike: slovar s tekstovim iillyustratsiyami*. Kazan: Taglimat.

---

<sup>1</sup>*Kamola G. Rikhsieva* – Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** kkamola954@gmail.com

**For citation:** Rikhsieva, K. G. 2021. "Semantic Development of the Lexeme "Katorga". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 97-103.



## O'z qatlamga mansub ko'rsatuv nomlari

Nodir Hamroyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada O'zbekiston televideniyesidagi o'z qatlamga mansub bo'lgan ko'rsatuvlar nomlari tahlil qilingan. Shuningdek, ko'rsatuv nomlarining bir-biriga yaqin jihatlari va farqlari ham o'rganilib, teleko'rsatuv nomlarining qaysilari mentalitetga xosligi, yana qaysilari esa o'zbek tili qoidalariga zid ravishda qo'llangani yoritib berilgan. Avvalo, davlat telekanallari va xususiy telekanallar o'rtasidagi farqning katta ekanligini inobatga olgan holda ulardagi ko'rsatuv nomlarining o'xshash va farqli jihatlari aytish o'rinli deb hisoblaymiz. Davlat telekanallari bo'ladimi yoki xususiy telekanal, ularning barchasida tonggi dasturlar mualliflik dasturlari hisoblanadi va ularning nomi ham o'zaro o'xshash. Masalan, "Yangi kun" ("Yoshlar" telekanali), "Assalom, O'zbekiston" ("O'zbekiston"), "Shirchoy", "Hormang" ("Milliy" TV), "Sevimli kun" ("Sevimli"), "Ertalabdan salom" (Zo'r TV), "Yulduzli tong", "Omon-omon" ("Mening yurtim") va hokazolar. Misollardan ko'rinib turibdiki, tonggi dastur nomlarining barchasi salomlashish, kunni xayrli boshlash, shukronalik hissini anglatuvchi ma'noga ega.

**Kalit so'zlar:** *televideniye, teleko'rsatuv, o'z qatlam, o'zga qatlam, mentalitet, innovatsiya, ko'ngilochar ko'rsatuvlar, informatsion ko'rsatuvlar.*

### Kirish

O'zbekiston mustaqillikka qadam qo'yar ekan, uning oldida juda muhim tanlov turar edi. Ya'ni u o'z yo'nalishini, kelajakka poydevor bo'la oladigan yo'lni tanlashi kerak edi. Shunday vaziyatda vatanimiz demokratiyani tanladi. Mamlakatning demokratlashuvi juda murakkab jarayon bo'lib, uni bir necha yillar davomida emas, bir necha o'n yillar davomida amalga oshirish mumkin. Mana mustaqillikka erishganimizga o'ttiz yil to'lish arafasida bo'lsa ham jahon miqyosida olib qaralganda mamlakatimiz demokratlashayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Davlatning qay

---

<sup>1</sup>Hamroyev Nodir Hasanovich – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** nodir\_hamrayev@nbk.ru

**Iqtibos uchun:** Hamroyev, N. H. 2021. "O'z qatlamga mansub ko'rsatuv nomlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 104–109.

darajada demokratik ekanligini esa unda faoliyat yuritayotgan OAV ham belgilab beradi, albatta. OAVga to'liq so'z erkinligining berilishi, umuman, erkinlikning ta'minlanishi turli xil axboriy vositalar, teleko'rsatuvlar, lavhalar, maqola, eshittirish, dastur va hokazolarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, televideniye o'zining turli-tuman ko'rsatuvlari bilan e'tibor markazidan tushmay keladi. Chunki... televideniye ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos, alohida bir turidir. U o'z funksiyasini bajarishda, ijtimoiy hayotni aks ettirishda so'z bilan tasvir qo'shilmasiga erishadi, publitsistika bilan bir qatorda og'zaki nutq san'ati, teatr san'ati, tasvir, kino san'ati, musiqa san'ati, fotojurnalistika kabilardan keng foydalanadi, shu boisdan uning jozibasi, kishilarni o'ziga tortish xususiyati matbuotning boshqa turlariga qaraganda ortiqroqdir. Shu boisdan televideniyaning tasvir, tahlil va ta'sir funksiyalari bilan bir qatorda kishilarga estetik zavq berish, dam oldirish, ma'rifiy funksiyalari ham mavjuddir" [Xudoyqulov 2005, 100].

### **Ko'rsatuvlar nomlaridagi o'z va o'zga qatlam so'zlari**

Televideniyaedagi ayrim ko'rsatuv nomlari mualliflik asosida, o'z qatlamga mansub so'zlar asosida yaratilgan bo'lsa, ayrimlari o'zga davlat ko'rsatuvlarining tilimizga moslashtirilgan shaklidir. Masalan, "Давайте поженимся" Rossiyada, "Qayaulim" Qozog'istonda, O'zbekistonda – "Yor-yor", "Opel и решка" Rossiyada, "Omadli sayohat" O'zbekistonda.

O'zbekiston telekanalida efirga uzatiladigan, dastlabki tonggi dasturlardan hisoblanmish "Assalom, O'zbekiston" ko'rsatuvi hamda Zo'r TV da namoyish etiluvchi zamonaviy-xususiy ko'rsatuvlardan "Ertalabdan salom" ko'rsatuvi nomlari salomlashish mazmunida qo'yilgan bo'lsa, "Yangi kun" (Yoshlar telekanali), "Sevimli kun" (Sevimli) ko'rsatuvlari yangi kunning boshlanganligi, uni xayrli boshlashga umid ma'nosida qo'yilgan. "Omon-omon" (Mening yurtim), "Shirchoy", "Hormang" (Milliy ko'rsatuvlari nomlari esa xalqimizning kichik an'analarini o'zida aks ettirgan. Ya'ni tongdanoq kimnidir uchratgan paytida odamlarimiz bir-birlariga "Omon-misiz?" deyishi, kimningdir ishlayotganini, mehnat qilayotganini ko'rib "Hormang" deyishini, shuningdek, erta tongdan (asosan, ertalab) ichiladigan shirchoy (sutli choy) ichish an'anasi aks etgan. Informatsion dasturlar ham garchi boshqa mamlakatlarda ham informatsion ko'rsatuvlarga formati o'xshash bo'lgani bilan mualliflik ko'rsatuvlari qatoriga kiradi. Boisi hech qaysi davlat boshqa bir davlat televideniyesidagi informatsion ko'rsatuvni

to'raligicha o'zlashtirilmaydi, yangiliklarni ulashish aspekti har bir davlat televideniyesi uchun asosiy aspektidir: "Barcha ommaviy axborot vositalari maqsadidan kelib chiqqan holda, eng avvalo, yakka shaxsning, jamiyatning va davlatning axborot olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.

Televideniye o'zidan ilgari vujudga kelgan ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq axborotni tezroq, ishonchliroq va hissiyotga boyroq tarzda tarqatadi" [Telejurnalistika asoslari 2013, 20]. O'zbekiston televideniyesida faoliyat yurituvchi telekanallardagi informatsion ko'rsatuvlar, yangiliklar, dasturlar nomlari bir-biriga o'xshab ketadi, lekin aynan emas. Ular orasida "Davr" yoki "Yangi davr" (Yoshlar), "Jahon" (O'zbekiston), "Zamon" (Sevimli), "Bu kun" (Zo'r TV), "Axborot-24" (O'zbekiston-24), "UzReport news" (UzReport) kabilar dunyoda bo'layotgan yangiliklarni tezkor ulashishga harakat qilish ma'nosini ifoda etgan. Buni viloyatlar telekanallarida ham kuzatish mumkin: "Hudud" (Jizzax), "Andijon axboroti", "Markaziy studiya" (Mening yurtim) nomida esa yetkazilayotgan axborotlarning aniqligiga ko'proq urg'u berilishi, ularning hammasi e'tibor markazida, chuqur tahlil etilishiga ishora qilingan.

Boshqa turdagi ko'rsatuv nomlari ham, albatta, qandaydir ma'noni o'z ichiga oladi. O'z qatlamga mansub ko'rsatuvlar orasida maishiy mavzudagi, ko'ngilochar, oshxonaga taalluqli ko'rsatuvlar asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, "Ovsinlar", "Olov kelin", "Mening qaynonam general", "Kelgindi kelin" (Sevimli), "Oshxona", "Kelinchak" (Mening yurtim) kabi ko'rsatuvlar ko'proq uyda o'tiruvchi onaxonlarga, uy bekalari va yosh kelinlarga mo'ljallanganligi nomidan ham ko'rinib turibdi. Yuqorida sanalganlarning nomlari ham o'z qatlamga mansub so'zlardan tashkil topgan – kelin, qaynona, oshxona, olov va boshqalar. Masalan, "Kelin–yangi turmushga chiqqan, yoki chiqayotgan qiz" [O'TIL 2007, 345]. Ularning ham orasida qaynona-kelin munosabatlarini yorituvchi ko'rsatuvlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. "Baxtlimiz" (Milliy) ko'rsatuvi esa xayriya ko'rsatuvlardan biri hisoblanadi. Biz o'zbeklarda azal-azaldan oila va nikoh muqaddas sanalib, e'zozlangan. Shu bois mentalitetimizda doimo to'ylarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ko'rsatuv ijodkorlarining maqsadi, ba'zi sabablarga ko'ra nikoh to'yi bo'lmay oila qurgan, oq ko'ylak kiyolmagan, to'yida yor-yor sadolari yangramagan juftlik ko'nglining bir chetida armon bo'lib qolgan orzusini ro'yobga chiqarishdan iborat.

"Uydagi gap", "Mahallada duv-duv gap" singari ko'rsatuv nomlari ham xalqimizga oid bo'lgan an'analarni namoyon

qiladi. Mahallada (jamiyatda) duv-duv gap bo'lgan (tarqalgan) muammolarga yechim topiladi, uydin ko'chaga chiqqan, chiqishi kerak bo'lgan gaplar, to'g'rirog'i muammolar tahlil etiladi. Bunday muammolarning hal qilinishida esa muallifdan bir necha omillar talab etiladi: "Ko'rsatuvning ta'sirchanligini oshirishda kerakli bo'lgan qo'shimcha omillar:

1. Ko'rsatuv yo'nalgan tomoshabin auditoriyasini bilish.
2. Boshlovchining sharhi.
3. Ifodali holatning borligi.
4. Televideniyeining o'ziga xos xususiyatlari va ifodali vositalardan unumli foydalanish" [Muhammetov 2017].

Ko'rsatuvning nomi esa auditoriyani jalb qiluvchi omil hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda nomni doimo to'g'ri tanlay bilish kerak. So'nggi paytlarda zamonaviylikning ortidan quvib, ko'proq tomoshabin yig'ish maqsadida ko'rsatuv nomlari juda mantiqsiz tanlangan, chet so'zlardan foydalanilgan holatlar juda ko'p uchramoqda. Masalan, "Xontaxta" ko'rsatuv nomi juda chiroyli. Xontaxta "-forscha-bezatilgan dasturxon+taxta. O'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta yog'och stol" [O'TIL 2008, 412] bo'lib, milliy buyumimiz hisoblanadi. Bu ko'rsatuvda esa umuman, unga taalluqli jarayon kechmaydi. Bu esa nom va mazmun o'rtasidagi muvofiqlikka putur yetkazadi.

Davlat va nodavlat kanallari orasida "O'zbekiston tarixi" kanali eng yoshi hisoblanadi. Prezidentimizning 2019-yil 11-iyuldagi qarorlariga binoan "O'zbekiston tarixi" telekanali o'z faoliyatini boshladi. Kanal 2019-yil 1-sentyabrdan test rejimida o'z dasturlarini efirga uzata boshladi. Boshlanishida 116 nafar xodim faoliyat olib bordi. Bugungi kunda davlat kanallari orasida beshinchi o'rinni egallamoqda. Auditoriyaning asosiy qismi ziyoli qatlam. Ko'rsatuvlar muntazam internet tarmoqlariga joylab borilmaydi, shu sababli ko'rsatuvlar ommabopligi kam.

### **Xulosa**

Ko'rsatuvlarning 90% madaniy-ma'rifiy, ilmiy-ma'naviy ko'rsatuvlardir. Ushbu "O'zbekiston tarixi" kanal ko'rsatuvlari reytingga qarab emas, aynan saviyaga qarab ajratiladi. Kanalda beshta tahririyat o'z faoliyatini olib boradi, ammo ko'rsatuv nomlari chet tilidan kirib kelgan, tilimizda qotib qolgan so'zlardan tuzilganligi ko'ngilni biroz xira qiladi: "Etno", "Evrika", "Mahzan". Bunday nomlarning qo'yilishi, ehtimol, jamiyat uchun unchalik xavf tug'dirmas, ammo "The cover up", "The cover up kids", "Real

xit”, “MTV shows”, “MTV shows kids”, “ Offside”, “ Timeout”, “Aktyor kids” ko’rsatuvlari, shuningdek har xil “party”lar o’zbek tili nufuziga, o’sib kelayotgan yosh avlodning qalbiga salbiy ta’sir qilmoqda. Mana shunday nomlarning qo’yilishini cheklash, qo’uganlarga chora ko’rish orqaligina salbiy oqibatlarining oldini olish mumkin.

### Adabiyotlar

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

Муҳамметов, М., Атамуродова, Ш. 2017. *Телевидение ва радио режиссураси*. Тошкент.

Худойкулов, М. 2005. *Журналистикага кириш*. Тошкент.

*Тележурналистика асослари (маърузалар матни)*. Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети, 2013.

Рахматуллаева, И. 2005. *Телевидение ва ёшлар: кеча ва бугун*, Тошкент: Янги аср авлоди.

## Default Names Belonging to its Layer

Nodir Hamroev<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes the names of the programs on Uzbek television that belong to its class. The similarities and differences between the names of the programs are also studied, as well as which of the TV names are specific to the mentality and which are used in violation of the rules of the Uzbek language. First of all, given the large differences between public and private TV channels, we think it is appropriate to point out the similarities and differences between the names of the programs. Whether they are public or private, the morning programs are all copyrighted programs and have the same name. For example, “Yangi kun” (Youth TV channel), “Assalom, O'zbekiston” (Uzbekistan), “Shirchoy”, “Hormang” (Milliy TV), “Sevimli kun” (Sevimli), “Ertalabdan salom” (Zo'r TV), “Starry Morning”, “Omon-Omon” (My Country) and so on. As the examples show, the names of the morning programs all mean greetings, a good start to the day, and a sense of gratitude.

**Key words:** *television, television, own layer, other layer, mentality,*

---

<sup>1</sup>Nodir H. Hamroev – Independent Researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** nodir\_hamrayev@nbk.ru

**For citation:** Hamroev, N. H. 2021. “Default Names Belonging to its Layer”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 104–109.

**References**

*O'zbek tilining izohli lug'ati.* Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

Muhammetov, M., Atamuradova, Sh. 2017. *Televideniye va radio rejissurasi.* Toshkent.

Xudoyqulov, M. 2005. *Jurnalistikaga kirish.* Toshkent.

*Telejurnalistika asoslari (ma'ruzalar matni).* Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, 2013.

Raxmatullaeva, I. 2005. *Televideniye va yoshlar: kecha va bugun,* Toshkent: Yangi asr avlodi.

## Gunay Karaag'achning turk tili fonetikasiga oid tadqiqotlari xususida

Go'zal Mirzayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Turk tilida fonetika sathi bir qancha tilshunoslar tomonidan turlicha talqinda o'rganilgan bo'lib, aynan bizning mavzu bo'lgan fonetik jarayonlarda har xil yondashishlar mavjud. So'nggi yillarda turk tilshunosligi rivoj topgani sabab biz fonetik jarayonlarni keng tahlil qilgan tilshunosning ishlarini, ya'ni Gunay Karaag'achning fonetika oid tadqiqotini asos qilib olgan holda uning qarashlarini yoritishga harakat qildik. Shu bilan birga yangi fonetik jarayonlarni o'rganib, ularning turk tilidagi nomlanish terminlari masalasini ham tadqiq qilib, o'zbek va turk tili fonetikasi terminlari lug'atini shakllantirdik.

**Kalit so'zlar:** *turk tili fonetikasi, fonetik jarayonlar, tovush, talaffuz, singarmonizm, dissimilyatsiya, assimilyatsiya, reduksiya, tovush tushish hodisalari.*

### Kirish

Har qanday til birinchi navbatda o'zining tovush tizimiga tayanadi va tilning asosini tovushlar tashkil etadi. Tovushlar so'z ichida talaffuz qilinadi hamda bir tovush birgina so'zda emas, balki minglab so'zlarda ishtirok etadi. Tildagi ana shu minglab so'zlarni vujudga keltiruvchi tovushlar miqdori cheklangan bo'lib, bu o'z navbatida ularning xilma-xil variantlarini yuzaga keltiradi. Tovushlar ma'no kasb etmaydi (ba'zi holatlarni hisobga olmaganda), biroq ma'no o'zgartirish uchun xizmat qila oladi.

Oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhi bir qancha tillarni o'z ichiga oladi. Ularning tovush tizimida yetarlicha farqlar mavjud. Har bir tilning o'z ichida lahja, shevalarga bo'linishi ham tovushlarning turli xil talaffuz qilinishiga sabab bo'lgan. Biz bu maqolamizda turkiy tillarning eng yirik vakillaridan bo'lmish turk tili, uning fonetik

---

<sup>1</sup>Mirzayeva Go'zal Qobiljonovna – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** abdujalilovabdukamol@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Mirzayeva, G. Q. 2021. "Gunay Karaag'achning turk tili fonetikasiga oid tadqiqotlari xususida". *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 110–118.

tizimiga doir hodisalarni turk tilshunos olimi Gunay Karaag'achning "Turk tili fonetikasi" asari misolida ko'rib chiqmoqchimiz.

Asar turk tilining fonetika bo'limi, unda mavjud fonetik hodisalar, ularning xususiyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotdagi har bitta fonetik termin turk tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan bo'lib, uning yonida qavs ichida o'sha terminning xalqaro standart varianti ham berilgan. Bu esa boshqa tilli o'quvchilarga ularni tushunishda qulaylik yaratgan: Masalan: *İki Ünlülü hece (diphtong), ses deđişmesi* (sound change, phonetik change).

Tilshunos ushbu tadqiqotida tovushlar tizimiga ham keng to'xtalgan bo'lib, ularning fizik xususiyatlari, tovushning balandligi, tovushning uzunligi, tovushning tembri, shovqinli tovushlar, tovush organlari, talaffuz qilish, eshitish organlari, unli va undosh tovushlar, ularning bir-biridan farqli xususiyatlarini keng yoritib bergan. Biz esa o'z tadqiqot mavzumizdan kelib chiqqan holda ko'proq asardagi fonetik jarayonlarga ahamiyat qaratdik va ularni kengroq yoritishga harakat qildik.

### **Fonetik jarayonlarning kelib chiqish sabablari**

Muallif asarda fonetik jarayonlar to'g'risida umumiy tushuncha berib o'tgandan so'ng ularning kelib chiqish sabablari haqida so'z yuritib: "Fonetik jarayonlarning sabablarini aniqlash tilshunoslikning eng qiyin masalalaridan bo'lib, bu mavzu hozirga qadar o'zining yechimini topmagan. Chunki tovush o'zgarishini birgina sabab bilan bog'lashning imkoni yo'q. Ba'zi vaqtlarda u sabab, ba'zi vaqtlarda bu sabab ustun bo'lishi mumkin. Shuning uchun hozirga qadar o'rganilgan fonetik jarayonlarning barcha sabablarini qisqa shaklda ko'zdan kechirib chiqish mumkin", - deydi va fonetik jarayonlarga ta'sir qiluvchi quyidagi sabablarni keltirib, keng izohlaydi:

1. Irqning ta'siri – bevosita tovush organlari bilan bog'liq bo'lib, bunda ovoz chiqarish, eshitish organlari bir-biridan farq qiladi. Ba'zi irqnlarning tomoq qubbalari o'yiqliq, ba'zilarniki tekisroq;
2. Geografik joylashuv ta'siri;
3. Mamlakatlarning bir-birlarining tiliga bo'lgan ta'siri;
4. Bolalarga o'z ona tilida ta'lim berilishining ta'siri;
5. Ijtimoiy va siyosiy ta'sirlar;
6. Mustamlaka davlatlarda ularni bosib olgan davlat tilining ta'siri;
7. Bosib olgan davlat aholisiga mustamlaka davlat aholisi tilining ta'siri;



8. So'z yoki tovushning o'zlashishi ta'siri;

9. Yozuv qoidalarining ta'siri.

Shundan so'ng tilshunos fonetik jarayonlarning o'ziga to'xtaladi: Fonetik jarayonlar, avvalo, og'zaki nutqda vujudga kelib, nutq organlari har bir insonda har xil ko'rinishda aks etgani uchun ularni fonetik jarayonning asosi deb olish mumkin. Tovush o'zgarishlari tovushlarning chiqish yeridan ko'ra chiqish holatida amalga oshadi.

### Talaffuz holatiga ko'ra farqlanuvchi tovushlar

Turk tilida tilda, tomoq old qismida va tomoqning orqa qismida talaffuz qilinadigan to'rt sonant mavjud bo'lib, talaffuz holatiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi *m*, *n*, *ñ* va *ŋ* undoshlarining ba'zi o'rinlarda o'zgacha tus olishini ko'rish mumkin. Bunga oralizatsiya (ağzıslaşma) hodisasi deyiladi: *bardıñ>bardığ* "vardın", *körtüñ >körtüğ* "görün" kabi.

Sonorizatsiya (akıcılaşma) jarayoni esa yuqoridagi jarayonning tamoman aksi bo'lib, bunda **b**, **d**, **g**, **ğ** kabi portlovchi undoshlar **r**, **m**, **n**, **y**, **v**, **ğ** kabi undoshlardan biriga yoki yarim unli tovushiga o'tish jarayonidir.

Jarangli undoshlarning jarangsizlashish hodisasi barcha tillarda eng ko'p uchraydigan hodisa bo'lib, bunda portlovchi va jarangli undoshlarning jarangsizlashishi yoki sonorlashishi kuzatiladi. Masalan: *bınar>mınar*, *pınar*, *bunuñ>munuñ*, *biñek daşı>biñek daşı* kabi.

Turkiy tillarda so'zning ichida va oxirida keluvchi **m**, **n**, **ñ**, **ŋ** sonorlari bilan **v**, **y**, **ğ** yarim unli va **b**, **d**, **g**, **ğ** undoshlarining asos tovushlari sifatida vujudga kelgan va ular ma'no o'zgartirmaydi.

Tilshunos fonetik jarayonlarning navbatdagi turi dissimilyatsiya (aykırılaşma) hodisasiga to'xtalar ekan, uning bir pozitsiyada turgan bir-biriga o'xshash yoki bir xil tovushlarning yondosh tovushlar ta'sirida bir-biridan farqlanish hodisasi ekanini va bu turkiy tillarga oid so'zlarda uchramasligini, asosan boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda yoki talaffuzi qiyin bo'lgan o'zlashma tovushlarda uchrashini; turkiy tillarga, asosan, bu jarayonning aksi bo'lgan assimilyatsiya hodisasi mansubligini aytib o'tadi va dissimilyatsiyaning ikki turini keltiradi.

Birinchi turi sifatida kontakt dissimilyatsiya (yakın aykırılaşma)ni keltirib, bu bir pozitsiyada turgan bir xil tovushlarning yondosh tovushdan farqlanishi ekanini misollar orqali ko'rsatadi: *kınnap>kırnap>kındap*, *hम्मal>hम्मbal*, *attar>aktar*.

Turkiy tillarda asosan assimilyatsiya hodisasi kuzatilsa-da, ba'zan dissimilyatsiya hodisasini ham uchratish mumkin: *büre>püre>pire; büt>bit*.

Ikkinchi turi sifatida esa distakt dissimilyatsiya (uzak aykırılaşma)ni ko'rsatib, bu ikki xil tovushdan birining talaffuz jarayonida boshqa tovushga o'zgarishidir, deb beradi va misollar keltiradi: *berber>belber; kehribar>kehlibar; birader>bilader*.

Bundan tashqari, tilshunos dissimilyatsiyani yondosh tovushlar ta'sirida yuzaga kelishiga ko'ra ham ikki turga bo'ladi: *regressiv dissimilyatsiya (gerileyici aykırılaşma), progressiv dissimilyatsiya (ilerleyici aykırılaşma)*.

Fonetik jarayonlarning keyingi turi sifatida assimilyatsiya (benzeşme) hodisasi keltirilib, yonma-yon kelgan tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida talaffuzda o'xshash tovushga aylanishini aytgan tilshunos assimilyatsiyani ham fonetikada ham morfologiyada kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi va fonetik assimilyatsiyaning yonma-yon kelgan tovushlarning pozitsiyasiga ko'ra quyidagi turlarini farqlaydi:

kontakt assimilyatsiya (yakın benzeşme): *penbe>pembe, anbar>ambar, bunlar>bunnar;*

distakt assimilyatsiya (uzak benzeşme): *binmek>minmek, şemsiye>şemşiye, boynuz>moynuz;*

regressiv assimilyatsiya (gerileyici benzeşme): *eczacı>ezzacı, sūbaşı>subaşı.*

Turk tilining undoshlarida ham singlarmonizm hodisasi bo'lgani sabab progressiv assimilyatsiya (ilerleyici benzeşme)ni shevalarda ham adabiy tilda ham uchratish tabiiy hol: *işçi, aşçı, askı, balcı, attan.*

Qolaversa, tilshunos asarda assimilyatsiya hodisasini tovushlarning o'zaro ta'siri bo'yicha ham bir qancha turlarga bo'lgan:

qisman assimilyatsiya (yarı benzeşme): *penbe>pembe, sūnbül>sūmbül;*

to'liq assimilyatsiya (tam benzeşme): *gelmezse>gelmesse, gitsin>gissin;*

o'zaro assimilyatsiya (karşılıklı benzeşme): *o biri>öbürü, bu ile>böyle, o ile>öyle.*

Tadqiqotda fonetik jarayonlarning keyingi turi sifatida tovush qisqarishi (büzüşme) hodisasi keltirilgan bo'lib, bu ikki so'z yonma-yon kelganda birinchi so'zning oxirgi tovushi bilan ikkinchi so'zning birinchi tovushi birlashib ketishi va bo'g'in sonlarining ozayishidir,-deb ta'rif qilinadi. Shuningdek, bu hodisada boshqa-boshqa

bo'g'inlardagi ikki unlining bir unlida yoki birdan ortiq bo'g'indagi tovushlarning bir bo'g'inda to'planishi kuzatilgani bois ushbu hodisa bo'g'inlarning birikishi, ya'ni eliziya (hece kaynaşması) degan nom bilan ham ataladi.

Keyingi hodisa esa *sandhi* hodisasi (çekimlik değışme) bo'lib, bunda so'z tarkibidagi tovush tushishlari kiradi: *dört-üncü>dördücü, süpürüntü>süprüntü*.

Shundan so'ng tilshunos reduksiya (daralma) hodisasi haqida ma'lumot berar ekan, ba'zi tovushlarning talaffuzi jarayonida tovush organlari yo'lida yuzaga kelgan qisqarish natijasida **ı, i, u, ü** tor unllilari bilan **s, z, ş, ç** undoshlari qisqarishga uchraydigan undoshlar ekanini aytadi.

### Tovush tushish hodisalari

Asarda tovush tushish hodisalari (düşme) haqida ma'lumot berilar ekan, avvalo, fonetik jarayonda faqat tovush tushishi nazarda tutilishini va bunga ellipsiya, gaplologiya hodisalari kirmasligini va tovush tushish hodisalari o'rniga ko'ra uch turga bo'linishi aytiladi:

1. Afarezis (ön ses düşmesi) – *alaçın>laçın, ısırga>sırga, ilek>alak>lek*;

2. Sinkopa (iç ses düşmesi) – *arşlan>aşlan, inile>inle, yayılım>yaylım*;

3. Apokopa (son ses düşmesi) – bu hodisa so'zdagi eng so'nggi tovushning tushishi bo'lib, turkiy tillar tarixida ko'p uchraydi. Eski turkiy yozma tili bilan yangi turkiy yozma tillari orasidagi eng muhim tovush hodisalaridan biri bo'lib, ko'kturk tili va uyg'ur tili hamda turk yozma tillaridan keyingi davrlarda bir bo'g'inli so'zlarning oxirgi tovushi bo'lgan **b, d, g, ğ** jarangli undoshlari qarluq lahjasida jarangsizlashar ekan boshqa lahjalarda **v, y, ğ** yarim unllilariga aylanadi yoki umuman tovush bilinmay ketadi: *beg o'zbek tilida bek, qolgan lahjalarda: beğ, bey, bıy*.

Ko'kturk va uyg'ur kabi eski turkiy tillardan keyingi davrlarda ko'p bo'g'inli so'zlarning so'nggida kelgan **b, d, g, ğ** jarangli yopiq undoshlari qarluq lahjasida jarangsizlashar ekan, o'g'iz lahjalarida tushib qoladi, qipchoq lahjasida esa o'sha tovush tushadi yoki **v, y, ğ, ğ** yarim unllilariga aylanadi: *başlığ>(o'zbek tilida) boshliq, (o'g'izchada) başlu, (qipchoq) başli*.

Bundan tashqari, tilshunos o'zining tadqiqotida eliziya (eksiltme), gaplologiya (hece düşmesi) delabilizatsiya (düzleşme), nazalizatsiya (genizsileşme), glottalizatsiya (yutaksılaşma), meta-teza (göçüşme), assibilatsiya (ıslıklılaşma), umlaut (iç ünlü değışimi)

epenteza (iç ses türemesi), diftong (iki ünlülü hece), geminatsiya (ikizleşme), velarizatsiya (kalınlılaşma), fuziya (birleşme), alternatsiya (nöbetleşme), palatalizatsiya (ön damaksıllaşma) kabi fonetik jarayonlarga keng to'xtalib, misollar bilan izohlab beradi.

Shundan so'ng tilshunos turk tilining fonetik xususiyatlariga to'xtalib, o'zlashgan undoshlar haqida ma'lumot beradi. Turkiy tillardagi singarmonizm (ses uyumu) hodisasi haqida shunday deydi: "Singarmonizmning eng ko'p qaysi holatlarda yuzaga kelishini, unlilar yoki undoshlarda yuz berishini aytish mushkul ish, chunki har bir turkiy tilda o'ziga xos ko'rinishda yuzaga keladi".

### **Singarmonizm hodisasi**

Asarda turk tilidagi singarmonizm hodisasini uch turga bo'lib ko'rsatadi:

1. Unlilar singarmonizmi:

- a. qalin-ingichka, old va orqa qator unlilari singarmonizmi;
- b. lablashgan va lablashmagan unlilar singarmonizmi.

2. Undoshlar singarmonizmi;

3. Unli-undosh singarmonizmi:

- a. talaffuz o'rniga ko'ra;
- b. talaffuz shakliga ko'ra.

Singarmonizm haqida batafsil ma'lumot berib o'tgan tilshunos turk tilining tovush xususiyatlari haqida shunday deydi: "Turk tilida c, ş, ğ, l, m, n, ñ, ñ, p, r, v, z undoshlari bir qancha istisnolardan tashqari holatlarda so'z boshida kelmaydi".

Shundan so'ng yuqorida qayd etilgan tovushlarning har biriga alohida to'xtalib o'tadi:

**C** tovushi bir nechta mustasno holatlardan tashqari hollarda so'z boshida ishtirok etmaydi. Eski va yangi turk tillarida uchramaydigan bu tovush faqat Turkiya shevasida va eski Anado'li shevasining so'z ohirida va ç tovushining asosi deb olish mumkin. Turk tilida bu tovush so'z boshida faqat taqlid so'zlarda uchraydi: cırmalama, cıvık, cılızlaşmak, cımarlamak, cızıktırmak, cura zurna, cuceleşmek. So'zlarning o'zagida kelgan -ç, -iç tovushlarining ba'zilari qo'shimcha qo'shilganda ikki unli orasida -s ga aylanadi: *ağaç>ağacı*.

**Ş** tovushi ko'pincha so'z o'rtasida va oxirida qo'llanadi va bu tovushning so'z boshida qo'llanishi eski turk yozma tilidan e'tiboran yuzaga kela boshladi. Eski uyg'ur yozma tilida ş tovushining so'z boshida kelishi eng ko'p uchraydigan turkiy til hisoblanadi. So'z boshida keladigan ş tovushi ç tovushidan yuzaga kelgan bo'lib, bir

qancha misollarda boshqa fonetik jarayonlardan yuzaga kelgan. Buni quyidagi misollardan ko'rish mumkin: *şab>çap, şahan>çakan, seçil>çeşil* kabi. Bugungi kunda turk tilida *ş* tovushi bilan boshlanadigan bir qancha so'zlar mavjud bo'lib, taqlid so'zlardan tashqari bir qancha so'zlarni ham bu tovush bilan boshlanishini ko'rish mumkin: *şahin, şakadan, şangırdatmak, şaşkın şavalak, şıp şıp* kabi.

Turk tilida ham old qatorga hamda orqa qatorga mansub ikkita **ğ** tovushi mavjud bo'lib, bu yarim unililar so'z boshida kelmaydi.

Eski va yangi turkiy tillarning birortasida ham so'z boshida **l** tovushi kelishi kuzatilmaydi. Ba'zi tillarda istisno holatlar bo'lishi mumkin, *lakırdı, loş* kabi so'zlar bundan mustasno.

Turk tilida **m** tovushining so'z boshida kelishi kuzatilmaydi. Eski va yangi turkiy tillarda so'z boshida uchraydigan **m** tovushi **b** tovushi asosida yuzaga kelgan bo'lib, kam sonli so'zlarda uchratish mumkin: *mamuk>pamuk, mañ>bañ, mañra>bañra*.

Eski va yangi turkiy tillarda so'z boshida uchramaydigan **n** tovushi turk tilida va ne so'roq so'zi boshida va shu so'z bilan qo'shilgan boshqa so'zlarda uchrashi kuzatiladi. **ñ, ñ** tovushlari eski va yangi turkiy tillarning hech birida so'z boshida uchramaydi.

**P** tovushi eski va yangi turkiy tillarda so'z boshida uchramaydi, istisno holatlarda so'z boshida uchrashi esa so'z boshida uchraydigan **b** tovushi asosida yuzaga kelgan: *pişirimlik, pusatlandırmak, püskürtmek, pütür pütür* kabi.

Eski va yangi turkiy tillarning birortasida so'z boshida **r** undoshi kelmaydi. Ba'zi yozma tillarda bir qancha istisno holatlarni uchratish mumkin. Turk tilida so'z boshida uchraydigan **r** tovushli so'z quyidagidir: *rap rap*.

Eski va yangi turkiy tillarining hech birida so'z boshida **v** tovushi uchramaydi. Har bir tilda bir qancha istisno holatlar kuzatilishi mumkin. Turk tilida so'z boshida keladigan **v** tovushli so'zlar quyidagilardir: *vur>ur, var>bar, ver>ber*.

Eski va yangi turkiy tillarning hech birida **z** tovushi so'z boshida kelishi uchramaydi. Bir qancha istisno holatlar kuzatilishi mumkin. Turk tilida quyidagi so'zlarda **z** tovushi so'z boshida keladi: *zonk zonk, zonkla, zangır zangır, zangırda, zırıl zırıl, zırıldı, zırlamak*.

Turk tilida so'z yoki bo'g'in oxirida jarangli **b, d, g, ğ** tovushlari kelmaydi. Bu tovushlar unli yoki qattiq undosh tovushlar bo'lgan **p, t, k, ģ** tovushlarining o'zakka qo'shimcha qo'shilishi natijasida ikki unli o'rtasida yumshashi oqibatida yuzaga keladi.

**C, f, j, h, ħ** tovushlari turkiy tillarning eng qadimiy davrlaridan

boshlab, istisnolardan tashqari turk tilida hech qanday shaklda uchramaydigan tovushlar hisoblanadi. Sheva yoki lahjalarda hamda o'zlashma so'zlarda uchratish mumkin.

### **Xulosa**

Biz yuqorida tilshunos Gunay Karaag'achning turkiy tillarga va xususan, turk tiliga oid fonetik qarashlarini, fonetik jarayonlar haqida bildirgan fikrlari va keltirgan misollarini hamda turkiy tillar va turk tilining tovushlaridagi o'ziga xosliklarni ko'zdan kechirdik. Albatta, asarda fonetikaga oid materiallar ko'p bo'lishiga qaramay, imkon darajasida muhim deb bilganlarimizni berishga harakat qildik. Shuni aytib o'tish lozimki, turkiy tillar fonetikasi juda qiziqarli, shu bilan birga tadqiq qilinishi lozim bo'lgan o'rinlarga ega sathdir. Turkiy tillarning farqi ham, avvalo, ularning tovushlar tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillarning tovushlar tizimi, har bir tovushning etimologiyasini o'rganish, avvalo, asl sof turkiy so'zlarni ajratib olish imkonini beradi. Bundan tashqari shunday so'zlar borki, ular fonetik jarayonlar ta'sirida o'zgarib, boshqacha ko'rinish kasb etgan, dastlab talaffuzda bo'lgan bu so'zlar borib-borib o'sha holicha yozma tilga ham ko'chgan. Qolaversa, asarda ko'plab fonetik jarayonlarni o'rganish asnosida yangi-yangi tovush o'zgarish holatlarini kuzatdik, turk va o'zbek tillarining tovush o'zgarishlari terminlari lug'atini ham shakllantirdik.

### **Adabiyotlar**

Karaag'ach, G. 2018. *Türkçenin Ses Bilgisi. İstanbul.*

Реформатский А. А. 1998. *Введение в языковедение.* Москва.

Jamolxonov, H. A. 2004. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*, 1 qism, Toshkent.

Nabiyeva, D.A., Zokirova, H.R. 2016. *O'zbek tili fonetikasi.* O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon.

Özdem, R. 1939. *Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlerin fonetik ayrıçları.* İstanbul: Universitet yayınlari, I.

## On Gunay Karaagach's Research on Turkish Phonetics

Guzal Mirzaeva<sup>1</sup>

### Abstract

The level of phonetics in the Turkish language has been studied in various interpretations by many linguists; there are different approaches to the phonetic processes that are our subject. Owing to the development of Turkish linguistics in recent years, we have tried to shed light on the views of the linguist, who has made a broad analysis of phonetic processes, based on Gunay Karaagach's research on phonetics. At the same time, we studied new phonetic processes, studied the issue of their nomenclature terms in the Turkish language, and formed a dictionary of terms of phonetics of Uzbek and Turkish languages.

**Key words:** *Turkish phonetics, phonetic processes, sound, pronunciation, synharmonism, dissimilation, assimilation, reduction, sound reduction phenomena.*

### References

- Karaağaç, G. 2018. *Türkçenin Ses Bilgisi. İstanbul.*
- Reformatskij, A. A. 1998. *Vvedenie v jazykovedenie. Moskva.*
- Jamolxonov, H. A. 2004. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*, 1 qism, Toshkent.
- Nabiyeva, D.A., Zokirova, H.R. 2016. *O'zbek tili fonetikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon.*
- Özdem, R. 1939. *Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlerin fonetik ayraçları. İstanbul: Universitet yayınlari, I.*

---

<sup>1</sup> *Guzal Q. Mirzaeva* – Independent Researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** abdujalilovabdukamol@gmail.com

**For citation:** Mirzaeva, G. Q. 2021. "On Gunay Karaagach's Research on Turkish Phonetics". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 110–118.

## “Boburnoma”da vaqt konsepti

Iroda Mamarajabova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida vaqt tushunchasini ifodalovchi birliklar tahlilga tortildi. Asarda "vaqt" tushunchasi bir qator mezonlar asosida berilgan. "Boburnoma"da vaqtning bildiruvchi so'zlar etimologiyasiga doir fikrlar ham keltirilgan. Bobur vaqtning o'ziga xos qiyoslar bilan ifodalagan va uni ifodalash uchun turli vositalardan foydalangan. "Boburnoma"dagi vaqt tushunchasini aks ettiruvchi so'zlar tilning leksik taraqqiyotini, numerativlar semantikasini yoritishga, shuningdek vaqtning ifodalash yo'llarini tasniflashga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** *“Boburnoma”, konsept, vaqt, numerativ so'zlar, izofa, matn.*

### Kirish

“Boburnoma” asari real voqealarga asoslanganligi bilan tarixshunoslar oldida qanchalik ahamiyatli bo'lsa, turkiy tilning imkoniyatlaridan foydalanib bitilganligi bilan tilshunoslar uchun ham g'oyat qimmatlidir. So'nggi yillarda bu asarning turli jihatlari, xususan, leksik tarkibi, frazeologizmlari, tarjimalari va ularning qiyosi kabi masalalar o'rganildi. Ammo bu hali uning mukammal tadqiqi tugal bo'lganligini anglatmaydi. Biz kichik tadqiqotimizda “Boburnoma” asarida vaqt konseptini ifodalovchi birliklarni aniqlashga va ularni tahlil qilishga urindik.

“Boburnoma” asarida muallif tomonidan vaqtning ifodalash uchun turli vositalardan foydalanilgan. Asarda uchragan vaqtga oid birliklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Numerativ so'zlar.
2. Birikmalar.

---

<sup>1</sup>Mamarajabova Iroda Fayzullayevna – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** mamarajabovairoda5@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Mamarajabova, I. F. 2021. “Boburnoma”da vaqt konsepti”. *Ozbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 119–123.



### 3. Matnlar.

Muallif asarda vaziyat taqozosi, yanayam aniqrog'i o'zi yashab, so'zlashib yurgan tillarida mavjud birliklardan unumli foydalangan. Bu xususiyat esa vaqtga oid birliklarning nomlanishida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur o'z asarida o'sha davrda xalq ichida keng iste'molda bo'lgan birikmalarni ham qo'llagan. Quyida asarda vaqt konseptini birikmalar yordamida ifodalangan o'rinlarining ba'zilarini tahlil qilishga urinamiz.

#### **Vaqt konseptini birikmalar yordamida ifodalash**

Ma'lumki, birikmalar ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Ular ma'lum grammatik vositalar yordamida ham, balki faqatgina ohang yordamida ham o'zaro bog'lanishi mumkin. Masalan, *daftarning varog'i, gazetani o'qimoq, kitob haqida suhbatlashmoq* kabi birikuvlarda so'zlar o'zaro kelishik, egalik qo'shimchalari hamda ko'makchilar yordamida bog'langan. *Sokin kuy, chiroyli qiz, to'satdan kulmoq* kabi birikuvlarda so'zlar faqat ohang yordamida bog'lanmoqda. Yana bog'lanishning shunday turi borki, u izofa deb yuritiladi. Izofa o'zbek tili uchun xos emas, asosan, arabiy hamda forsiy tillarda ko'p uchraydi. Izofa mohiyatan o'zbek tilidagi qaratqich-qaralmish munosabatiga o'xshaydi.

**Farz vaqti.** Ushbu birlik asarda erta tong ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan bo'lib [Bobur 2014, 476], asarda sakkiz marta ishlatilgan. N.Jiyanovanning fikriga ko'ra esa asardagi farz vaqti birikmasi aslida fajr vaqti deb nomlangan bo'lishi kerak [Jiyanova 2012, 84]. N.Jiyanovanning fikricha, farz vaqti deyilganda ertalabgi bomdod vaqti hamda kunduzgi soat 1-2 orasi tushunilgan [Jiyanova 2012, 84].

*Farz vaqtidin namozi peshingacha urushurlar* (414).

**Naqora vaqti.** Ushbu vaqt tun yarmiga to'g'ri keladi. *Bu yurttin naqora vaqti ko'chub, chosht bo'la Sangdaki ko'talining tubig'a tushub, namozi peshin andin ko'chub, ko'tal va ro'dtin o'tub, bir balandig'a tushuldi* (133).

**Namozi bomdod.** Ushbu izofa asarda uchta joyda ishlatilgan. Islomdagi besh mahal ado qilinadigan farz namozlaridan birinchisi hisoblandi.

*Rapriy parganalaridin Jakiyn otliq pargana to'g'risida kemalarni yoqag'a tortib, ul oxshom kemada-o'q bo'lduk. Andin subhdin burunroq kemalarni yurutub, orada namozi bomdodni o'taduk* (210).

**Namozi peshin.** Ushbu izofa islom dinidagi ikkinchi ado

etiladigan namoz hisoblanadi hamda quyosh zavolga ogʻandan toki asr namozi vaqti kirguncha boʻlgan muddatni aks ettiradi. Yil fasllariga qarab har xil vaqtni ifodalaydi. Namozni peshin izofasi “Boburnomada” ellik toʻqqiz marta ishlatilgan. Bir oʻrinda peshin namozi arabcha *zuhur* atamasi bilan ham ifodalangan:

*Namozi peshin boʻlub edikim, bir qoʻyni topib kelib, bir yerda tushub, oʻlturub, kabob qildilar* (66).

*Erta, namozi peshin Itaʻvaning oʻllidagʻi suvning nari yuzidagʻi bogʻqa chiqib, Juunda gʻusl qilib, zuhr ado qildim, Namoz oʻtagan yerdin Itaʻva sariroq kelib, ushbu bogʻning daraxtlarining soyasida bir balandi ustidakim, suvgʻa mushrif edi, oʻlturub, yigitlarni shoʻxluqqa solduk* (210).

**Namozi shom.** Bu izofa islom dinida toʻrtinchi boʻlib ado etiladigan namoz turini ifodalab, quyosh botgandan to ellik minutgacha boʻlgan vaqtni anglatadi. Namozni shom asarda oʻttiz toʻqqiz marta ishlatilgan.

*Kunlar gʻoyat qisqaliqqa ilgarigi kishi yorugʻ choqta havol oʻlligʻa keldilar, namozi shom, namozi xuftangʻacha el kela qoldi* (111).

**Namozi xuftan.** Ushbu namoz islom dinida oxirgi ado etiladigan namoz turi hisoblanib, tun kirgandan boshlab ado qilinadi. Bu izofa asarda jami oʻttiz yetti marta qoʻllanilgan boʻlib, oʻttiz olti marta namozi xuftan, bir martagina namozi xufton tarzida uchraydi.

*Namozi xuftan edi, kelib Xokon arigʻidin oʻtub, Raboti Roʻzaq kentining yonigʻa tushuldi* (58).

*Savotidin yonib xeyli sargardonliq tortib, namozi xuftonda oʻrdugʻa kelduk* (128).

**Sunnat vaqti.** Ushbu birikma asarda olti marta qoʻllanilgan boʻlib, “Bobur ensiklopediyasi”da qayd etilishicha, “Boburnoma”da quyosh chiqishiga yaqin vaqt sunnat vaqti deb keltirilgan [Bobur 2014, 476].

*Soʻgʻdning ulugʻ shohjoʻylarigʻa qorongʻu kechada urunub, yoʻl iturub yuz tashvish bila tong otqonda Xoja Diyordin oʻtub, sunnat vaqtida Qorbugʻ pushtasigʻa yormoshtuk. Qorbugʻ pushtasining shimolidin Xudak kentining oyogʻi bila llonoʻttini tuslab tebraduk* (52).

**Qurbon iydi.** Bu kun ham yilda bir marta zulhijja oyining oʻninchi kunida keladigan bayram va ayni vaqtida namoz nomini anglatib keladi. Asarda bir marta ishlatilgan.

*Bizga qurbon iydi Shohruxiyada boʻldi* (54).

**Bir sut pishimi.** Ushbu birikma oʻziga xos birlik boʻlib, asarda ikki marta ishlatilgan. Sut esa taxminan oʻn-oʻn besh minut oraligʻida pishadi. Demak, ushbu vaqt birligi ham 10-15 minut oraligʻiga teng.

*Bir sut pishimig'a yovuq darang qildi (85).*

**Qovun pishig'i.** Ushbu birikma yoz faslining iyul oyi vaqtini ifodalash uchun ishlatilgan.

*Qovun pishig'i edi (32).*

**Qilich sug'urguncha fursat.** Asarda bir marta ishlatilgan.

*Qilichni boldog'lamaydur erdim, qinida edi, qilich sug'urg'uncha fursat bo'lmadi (112).*

**Ot minguncha fursat.** Bir marta ishlatilgan.

*Andin so'ngra Humoyun bila Komron xabar topib, ot minguncha fursat bo'lmadi, chuhralarig'a ko'tartib, shahr darvozasi bila ark darvozasi orasiga kelib, mulozamat qildilar (258).*

*Ikki namoz orasi.* Ushbu birikma asarda o'n ikki marta ishlatilgan bo'lib, asosan, asr hamda shom namozi oralig'idagi vaqt ifodalash uchun qo'llangan.

*Bhiraning yovug'ida bir tirtgaz otimi erdin ko'proq گزار yo'q edi, o'zdurub o'tar edilar, ikki namoz orasida kirgan suvlarni sayr qila otlandim (249).*

**Ikki o'q otquncha fursat.** Ushbu birikma asarda bir marta ishlatilgan bo'lib, tez ma'nosida ishlatilgan. Sababi, bir o'q otib, sadoqdan ikkinchi o'qni olib mo'ljallab otishga uzog'i bilan bir necha daqiqagina kerak bo'ladi, xolos.

*Yana Karimdod, Hudoydod turkman, bir o'qkim shastimda edi, Tanbalning duvulg'asig'a o'q ottim, yana sordoqqa ilik elittim, xon dodam bir sarsabz go'shagir berib edi, ul chiqdi, toshlag'ali hayfim keldi, yana sordoqqa solg'ucha ikki o'q otquncha fursat bo'ldi ekin (112).*

**Oftob bir nayza chiqmoq.** Ushbu birikma asarda uch marta ishlatilgan bo'lib, quyosh chiqqandan so'ng, taxminan, yarim soatni ifodalaydi.

*Oftob bir nayza bo'yi chiqib erdikim, Sanjiddara oyog'ida kelib tushuldi (74).*

**Zavol vaqti.** Ushbu birikma asarda faqatgini bir marotaba ishlatilgan bo'lib, quyoshning pastga qarab og'a boshlash vaqtini ifodalaydi. Bu vaqt, taxminan, kunduzgi o'n ikkilarga to'g'ri keladi.

*Zavol vaqtig'acha munda ichildi (273).*

Bundan tashqari asarda *kecha tong otquncha, oftob tulunda, oftob chiq o'tlanib, oftob yoyila, oftob o'lturur mahal, oftob chiqarida, tush vaqti, yarim kecha, namozi shom va namozi xuftan orasi, farz vaqtidin namozi peshingacha, oyning to'rtida, muharram oyining g'urrasida* kabi ko'plab birikmalar ishlatilgan.

Demak, asarda vaqt konseptini ifodalab kelgan birikmalardan

shunday xulosa qilish mumkinki, ular bevosita davr, din va millat bilan bog'liq jarayonlar, holatlar narsa-predmetlar bilan uzviy bog'liq. Hozir ham o'zbek tilining ayrim shevalarida ularning aksariyati aynan ma'lum bir vaqtni ifodalash uchun qo'llaniladi.

### **Adabiyotlar**

*Бобур энциклопедияси*. Тошкент: Шарқ, 2014.

Ҳошимова, Д. 2014. *Бобурнинг қиёслаш маҳорати*. Тошкент: Фан.

Иброҳимов, А. 2006. *Бобур девони тилидаги ўзлашма лексика*. Тошкент: Фан.

Ибрагимов, А. 2001. *"Бобурнома"даги ҳиндча сўзлар тадқиқи*: Филол. Фанлари номзоди.. дисс.: Тошкент.

Жиянова Назокат. 2012. *"Бобурнома"даги нумератив сўзлар*. Тошкент: Тафаккур.

## **The Concept of Time in "Boburnoma"**

Iroda Mamarajabova<sup>1</sup>

### **Abstract**

In this article, the units representing the concept of time in the work of the great king and poet Zahiriddin Muhammad Babur "Boburnoma" are analyzed. The concept of "time" in the game is based on a number of criteria given. Opinions on the etymology of words denoting time in the "Boburnoma" also listed. Babur represented time with specific comparisons, and it he used different means to express. Time in the "Boburnoma" words that reflect the concept lexical development of the language, numeratives to illuminate the semantics, as well as ways of timing tried to classify.

**Key words:** *"Boburnoma", concept, time, numerative words, text.*

### **References**

*Bobur jenciklopedijasi*. Toshkent: Sharq, 2014.

Hoshimova, D. 2014. *Boburning qijoslash mahorati*. Toshkent: Fan.

Ibrohimov, A. 2006. *Bobur devoni tilidagi uzlashma leksika*. Toshkent: Fan.

Ibragimov, A. 2001. *"Boburnoma"daги hindcha suzlar tadqiqi*: Filol. Fanlari nomzodi.. diss.: Toshkent.

Zhijanova Nazokat. 2012. *"Boburnoma"daги numerativ suzlar*. Toshkent: Tafakkur.

---

<sup>1</sup>*Iroda F. Mamarajabova* – Basic Doctoral Student (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** mamarajabovairoda5@gmail.com

**For citation:** Mamarajabova, I. F. 2021. "The Concept of Time in "Boburnoma". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 119–123.

## Matbuot va nashriyot terminlari

Tog'aymurod Bekmurodov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi mavjud matbuot va nashriyot bilan bog'liq terminlarning ma'nolari sharhlangan. Ulardagi yangi va chetdan kirib kelgan so'zlar ma'nosi izohlangan. Milliy til boyligini ifoda etuvchi terminlarning ma'no xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Milliy matbuotchilik bilan bog'liq terminlarning kirib kelish tarixi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** reklama, jurnalist, muxbir, axboriy-huquqiy munosabat, axborot, axborot balansi, axborot biznesi, axborot vositachisi, axborot shahri.

### Kirish

Ma'lumki, terminologiya deganda adabiy tilning mustaqil turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Demak, shu kungacha tilimizda mavjud bo'lgan va paydo bo'layotgan terminlar jamiyatimizning va boshqa sohalarning rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Jamiyat rivojlanar ekan, unga poyma-poy ravishda terminologiya sohasi ham jadal taraqqiy etadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanar ekan, uing poydevorini adabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda, ularga yondosh ravishda matbuotda ishlatiladigan terminlarning ham soni ortib va rivojlanib bormoqda. Jahon nashiriyoti rivojlanishi jarayonida shu sohaga kirib kelayotgan o'zgarishlar tushunchalarni ifodalash uchun yangi terminlar yuzaga keladi. Bunda asosiy vazifalardan biri shundaki, qabul qilinayotgan terminlarning uni anglatayotgan tushunchaga imkon qadar yaqinligini ta'minlashdir. Agar yangi iste'molga kirayotgan matbuot

---

<sup>1</sup>Bekmurodov Tog'aymurod Panjiyevich – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** bekmurodovtogaymurod@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Bekmurodov, T. P. 2021. "Matbuot va nashriyot terminlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 124–131.

va nashriyot terminlari u anglatayotgan tushunchaga qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik iste'molga kirishi va o'zlashtirishi oson bo'lishi barchamizga yaxshi ayon, qolaversa, matbuot va nashriyot terminlarida rivojlangan davlatlar va unga yondosh mamlakatlar o'rtasida integratsiya natijasida yangilanib, boyib boradi, terminlar tug'ilaveradi. Bu jarayonni esa shu sohada ishlovchi yoki til va adabiyot sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar oldiga ma'lum bir vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalar bugungi kunda o'z dolzarbligini yanada oshirib borayotgan sohalardan hisoblanadi. Bu kabi jarayonlar shu sohada ko'proq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ehtiyojini yanada oshirmoqda. Biz shu o'rinda terminologiya nima va u qanday vujudga kelishiga oid mulohazalar yuritishni joiz deb topdik.

### **Terminlarni tanlash va ma'no xususiyatlari**

X.Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini anglash orqali ular ifodalaydigan tushunchalardan ham voqif bo'lamiz. Yangi kirib kelayotgan turli sohadagi terminlarni izohlar ekanmiz ularning kelib chiqish tamoyillari va sabablarini ham ko'rsatishga harakat qilamiz. Bu jarayon terminning tushunarligini va eslab qolish osonligi darajasini oshiradi. Binobarin, xalqning terminlar yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etishda terminning nomi va u anglatayotgan tushuncha o'rtasidagi yaqinlik, bu terminning yashovchanligini darajasini orttiradi.

Shu ma'noda, bugungi kunda jahon matbuotida, xususan, O'zbekistondagi matbuot yo'nalishida faol iste'molda bo'lgan terminlarga to'xtalib, ularning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Reklama (lot. reklamo – qichqirmoq) – tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko'riladigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborot hamda marketingning tarkibiy qismi hisoblanib, talab va iste'molchilar didining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar imijini yaratish (uzoq davrli ta'sir ko'rsatish), joriy sotish hajmini ko'paytirish (qisqa davrli ta'sir ko'rsatish), xaridorlarga nima sotib olishni va uni nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish va boshqa maqsadlarda olib boriladi. Reklamaning paydo bo'lish tarixi juda qadimiy bo'lib, Yunoniston va Qadimgi

Rimda og'zaki va yozma ma'lumotlar uchraydi. Hozirgi shakldagi reklama esa ilk marta AQShda 19-asrning 2-yarmida birinchi reklama agentliklari faoliyat ko'rsatgan bu esa katta daromad keltira boshlagan. Dastlab yozma reklama xaridorlarni magazin va unda sotiladigan tovarlardan xabardor qilish vazifasini bajargan. Bu ish taxtalavha yozish va vitrinalar tashkil etish orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik reklama potensial xaridorga nashrlar orqali murojaat shakliga aylandi – afishalar, kitoblar, jurnallar, gazetalarda axborot reklama e'lonlari paydo bo'lib, reklama ishiga ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, kino) jalb etildi.

Reklama bir necha vazifani bajaradi: 1) tovarlar va xizmatlar iste'molchilarini xabardor qilish, ma'lumot berish vazifasi – e'lonlarida tovar va xizmatlarning sifati, ishonchliligi, ularni qo'llash sohalari, ishlab chiqaruvchilari va sotib olish yo'llari haqida ma'lumot beriladi; 2) ishontiruvchi – mavjud tovarga iste'molchi va xaridorlarning moyilligini oshirishga xizmat qiladi; 3) eslatuvchi – mavjud, ammo bir qadar unutilgan talabni, xaridorlarning o'zlari uchun ma'lum bo'lgan tovarlarga munosabatni kengaytirishda muhim o'rinda turadi.

Jurnalist – asosiy faoliyati jurnalistika bilan shug'ullanish bo'lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uni auditoriyaga yetkazish orqali OAVni axborot bilan to'ldiruvchi kishi. Jurnalistlar asosan publisistik faoliyatga yo'nalgan bo'lib (kolumnistlar), ular o'z oldiga ma'lum ijtimoiy fikrni shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyatining u yoki bu qaror va harakatlariga tahrirlovchi sifatida ta'sir qilish va nashr, radio yoki telekanal ta'sischilari belgilagan chegaralar doirasida jamiyat va davlat o'rtasidagi vositachi bo'lishni maqsad qiladi.

Muxbir – tahririyat tarkibida jurnalist sifatida xizmat qiluvchi xodim;

1) bevosita tahririyatda ishlamaydigan, ammo ommaviy axborot vositalarida muntazam ijodiy hamkorlik qiluvchi shaxs;

2) boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqish uyushtiruvchi gazeta, jurnal, radio, televideniye tahririyati xodimi.

### **Axboriy-huquqiy munosabatlar**

Axboriy-huquqiy munosabat – axboriy-huquqiy me'yor bilan tartibga solingan axboriy ijtimoiy munosabat. Munosabat tomonlari axboriy-huquqiy me'yor bilan belgilangan va kafolatlangan o'zaro huquq va majburiyat tashuvchilari sifatida qatnashadi. Bu termin

matbuot yoki shunga yondosh sohalarda yoritilayotgan ma'lumotlar ma'lum bir huquqiy me'yorlarga solingan holatda berilishini anglatuvchi termin hisoblanadi.

Axboriy-huquqiy munosabatlar matritsasi - (matritsa so'zini izohlaydigan bo'lsak, matritsa (lot. matrix - bachadon) - 1) metallurgiyada - metallarga bosim bilan ishlov berishda qo'llaniladigan shtamplarning ish qismi. Matritsa sirtida tayyorlanadigan buyum (detal)ning qiyofasiga mos botiq (yoki teshik) bo'ladi. Ana shu botiq (yoki teshik)ga shtampning ikkinchi qismi - puanson kiradi. Matritsa yaxlit yoki qismlarga ajraladigan qilib yasalishi mumkin; 2) matbaada - harf, raqam yoki belgining tasviri tushirilgan metall plastinka yoki taxtacha (brusok). Matritsaning shriftlar quyiladigan (qo'lda harf terishda ishlatiladigan literalarni quyish uchun), satr quyiladigan va harf quyiladigan xillari bo'ladi. Yuqori bosma qolipidan qo'llangan karton yoki plastmassaga botirib tushirilgan chuqur nusxa ham matritsa deb ataladi. Bunday matritsadan stereotiplar yoki galvanostereotiplar hisoblanadi. Matritsaning xususiyati axboriy-huquqiy munosabatga ko'chganliginiko'rish mumkin bo'ladi. Bu sohalar o'rtasida integratsiya jarayoniga yorqin misol bo'ladi.

Qatorlari predmet sohalarida axborot jarayonlarini belgilovchi jadval: axborot, axborot resurslari, axborot mahsulotlari, axborot xizmatlarini izlash, olish va iste'mol qilish; ularni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; axborot tizimlari, ularning tarmoqlari, ularni ta'minlash vositalarini yaratish va qo'llash; axborot xavfsizligi mexanizmlarini yaratish va qo'llash. Matritsa ustunlari huquq toifalarini ko'rsatadi: huquq, huquqning cheklanishi, majburiyat, mas'uliyat. Qator va ustunlar kesishgan joyda ushbu huquq toifalarida axborot jarayonlarida paydo bo'ladigan axborot munosabatlari ro'yxatlari keltiriladi. Bu terminning mohiyatida shu kabi xususiyatlar yotadi.

1. Axborot - taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar.

2. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.

3. Ma'lum xos matnda aniq ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar).

4. Qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar. Kitob matni, ilmiy formulalar, bank hisob raqamidan foydalanish va to'lovlar, dars



jadvali, o'lchash majmualarining yer va fazo stantsiyasi o'rtasidagi masofa to'g'risidagi xabarlar va h.k. axborot bo'lishi mumkin. Hisoblash mashinasi ishi uchun zarur bo'lgan axborot qayta ishlanishi lozim bo'lgan ma'lumot va dasturdan iborat bo'lib, dastur ushbu ma'lumotlar bilan nima va qaysi tartibda bajarilishi lozimligini belgilaydi (yoki foydalanuvchiga belgilash imkonini beradi). Axborot nur, tovush va radio to'lqinlari, elektr toki yoki kuchlanishi, magnit maydoni, qog'ozdagi belgilar shaklida yaratilishi va tashilishi mumkin. Umuman olganda, xohlagan moddiy tuzilma yoki energiya oqimi axborotni tashishi mumkin. Axborotdan foydalanish ko'lamlari jamiyat rivojlanishi darajasini belgilaydi.

5. Turli obyektlarning o'zaro ishlashida ro'y beruvchi aks etish jarayonining aktiv harakatlarni ta'minlash uchun yaroqli natijalari. Shuningdek, biron, biror narsa to'g'risidagi ma'lumotlar.

6. Aks etgan xilma-xillik. Shu kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi va matbuot yuzini ko'radi.

### **Axborot bilan bog'liq terminlar izohi**

Axborot balansi - (balans so'zini izohlaydigan bo'lsak, balans - biron-bir faoliyatning bir-birini muvozanatlashi lozim bo'lgan tomonlari (mas, daromadlar va xarajatlar) o'rtasidagi nisbatlarning miqdoriy ifodasi. Iqtisodiyotda buxgalteriya balansi, ijtimoiy mahsulot balansi, savdo balansi, mehnat resurslari balansi, daromadlar va harajatlar balansi, to'lov balansi va boshqa balanslar mavjud. Bu so'zning xususiyati axborot so'ziga moslashganini ko'rishimiz mumkin) axborotning miqdor va sifat turlarining muayyan muvozanati. U axborot makonining uyg'unlik holatini belgilaydi.

Axborot biznesi - jamiyatning ish faoliyatidagi yangi yo'nalish. U axborot bozorida savdo va oraliq vazifalarini amalga oshirish, shuningdek jamiyatni ommaviy axborotlashtirish vositalarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijaraga berish, sug'urta qilish, moliyaviy va ish kuchi bilan ta'minlashlarni tashkil qilish bilan bog'liq. Aynan shu kabi terminlar matbuotning kulminatsiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda matbuot, biznes xususiyatini ham o'zida yetarli darajada mujassamlashtirgan. Shu boisdan ham bunday terminlar yuzaga kelganligini ta'kidlashimiz mumkindir.

Axborot vositachisi - boshqa shaxs nomidan elektron hujjatlarni jo'natuvchi, oluvchi yoki saqlovchi, yoki ushbu hujjatlarga nisbatan boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs. Berilgan ma'lumotlarni turli maqsadlarda turlicha yo'llar bilan ta'minlashda

ishtirok etiladigan shaxga nisbatan aytiladi.

Axborot jarayonlari - axborotni yaratish, yig'ish, ishlov berish, to'plash, saqlash, izlash, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlari.

Hujjatlashtirilgan axborotni foydalanuvchi uchun yig'ish, ishlov berish, to'plash, saqlash, aktualashtirish va taqdim etish jarayonlari. Bu termin matbuotda yoritilayotgan axborotlarning shakllanish jarayonini o'zida shakllantiradi deyish mumkin.

Axborot makoni – elektron tarmoqlardan foydalangan holda paydo bo'luvchi birlashgan elektron axborot makoni.

Axborot mulkdori – axborotga egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etish vakolatlarini qonuniy aktlarga muvofiq tarzda to'la amalga oshiruvchi subyekt. Axborot resursiga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ega bo'lgan axborot munosabatlari subyekti. Axborot resursiga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ushbu axborot resursini meros qilib olgan shaxslar egadir. Kashfiyot, ixtiro, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ratsionalizatorlikka oid takliflar va h.k. mualliflari o'zlari manbai bo'lgan axborotga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning yuridik huquqiga ega.

Axborot shahri – iqtisodiyotning sanoatlashib bo'lgan infratuzilmasiga ega shahar. Unda asosiy faoliyat turlariga boshqarish, moliyaviy faoliyat, ilmiy tadqiqotlar, oliy ta'lim, madaniyat, axborot xizmatlari, OAV ish xizmatlari (reklama, maslahat, axborot va boshqa xizmatlari) kirib, ushbu faoliyat turlarida barcha ishlovchilarning yarmidan ko'pi band bo'ladi.

Bu kabi matbuot va unga aloqador bo'lgan terminlar bugungi kunda O'zbekistonda ham misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, xilma-xillikka erishganligini ko'rish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir. Olimning fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, qaysidir davlatda biron-bir soha o'z taraqqiyotining cho'qqisiga yetganda shu sohaga tegishli bo'lgan terminlar, qolgan soha terminlaridan ko'ra dominantalik chastotasini qo'lga kiritadi. Bundan ko'rinib turibdiki, iste'moldagi terminlarning darajasidan kelib chiqib, ma'lum bir davlatda qaysi soha ravnaq topganligini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Demak,

matbuot va nashriyot terminlarining rivojlanishi yoki qaysidir ma'noda faolligining susayishi shu sohaning rivojlanish yoki rivojlanmayotganining dalili bo'la oladi. Xalqqa va shu sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar iste'moli uchun ehtiyojlar terminning yuzaga kelishida muhim omil hisoblanadi.

Hozirda matbuot va nashriyot sohasi yetarli darajada rivojlangan davlatlardan kirib kelayotgan uskunalar va xususiyatlar bilan birgalikda ularni anglatadigan terminlar ham kirib kelmoqda. Bunday terminlarni milliyashtirish yoki to'g'ridan to'g'ri qabul qilish juda katta mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi masalalar bugungi kundagi mutaxassislarining oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi.

### **Adabiyotlar**

Dadaboyev, H. 2019. *O'zbek terminologiyasi*. Toshkent.

Юлдашев, И. 2005. *Ўзбек китобатчилиқ терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш*. Филол. фан. докт. дисс. автореф. Тошкент.

Даниленко, В. П. 1977. *Русская терминология*. Опыт лингвистического описания. Москва: Наука.

Rahmatullaev, T. 2002. *Matbuot va demokratiya*. Toshkent.

Amirov, D.M., Atadjanov, A.Y. 2010. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'at*. Toshkent.

[www.aim.uz](http://www.aim.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.google.com](http://www.google.com)

[www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

# Press and Publishing Terms

Togaymurod Bekmurodov<sup>1</sup>

## Abstract

This article explains the meaning of the existing terms of the Uzbek press and publications. They explain the meaning of new and foreign words. The semantic features of the terms expressing the richness of the national language are considered. The history of the introduction of terms related to the national press is highlighted.

**Key words:** *advertising, journalist, correspondent, information and legal relations, information, information balance, information business, media, information city.*

## References

- Dadaboev, H. 2019. *O'zbek terminologiyasi*. Toshkent.
- Yuldashev, I. 2005. *O'zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish*. Filol. fan. dokt. diss.avtoref. Toshkent.
- Danilenko, V. P. 1977. *Russkaya terminologiya*. Opit lingvisticheskogo opisaniya. Moskva: Nauka.
- Rahmatullaev, T. 2002. *Matbuot va demokratiya*. Toshkent.
- Amirov, D.M., Atadjanov, A.Y. 2010. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'at*. Toshkent.

[www.aim.uz](http://www.aim.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.google.com](http://www.google.com)

[www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

---

<sup>1</sup>*Togaymurod P. Bekmurodov* – Independent Researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**E-mail:** [bekmurodovtogaymurod@gmail.com](mailto:bekmurodovtogaymurod@gmail.com)

**For citation:** Bekmurodov, T. P. 2021. "Press and Publishing Terms". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 124–131.

## Urf-odatni ifodalovchi realiyalar: asliyat va tarjima

Ziyoda Kasimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Til va madaniyatning o'zaro munosabati va aloqasini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini bir necha fanlar doirasida hal qilish mumkin. Ulardan biri lingvokulturologiya bo'lib, tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan yangi sohadir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatini tadqiq qiladi.

Realialarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realialarning paydo bo'lishi tilda shunga mos so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Realialarni ajratib turuvchi xususiyati ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidandir. Bu leksik birliklar madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, til hodisasi sifatida jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez javob qaytaradi; ular orasida – neologizmlar, arxaizmlar kabi realialarni farqlash mumkin. Bu realialarning har bir turi tarjimada alohida e'tiborni talab qiladi. Realiya bu moddiy mavjud bo'lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsadir. Lug'aviy izohlarga ko'ra, realiya – “moddiy madaniyat narsalari”dir. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda esa predmetlarni ifoda etuvchi so'z va iboralar realiyalar deyiladi.

**Kalit so'zlar:** *realiya, urf-odat ifodalovchi realiya, adekvat tarjima, transliteratsiya, izohlash, sharhlash, havola qilish.*

### Kirish

Ma'lum xalqqa xos va mansub bo'lgan predmet, tushuncha hamda hodisalarni ifodalaydigan realiyalar muallifga tasvirlanayotgan personajlarining moddiy-ma'naviy hayotini real, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi, boshqacha qilib aytganda, bu so'zlar asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy

---

<sup>1</sup>Kasimova Ziyoda Movlon qizi – tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti.  
**E-pochta:** kasimova\_ziyoda1993@mail.ru  
**Iqtibos uchun:** Kasimova, Z. M. 2021. “Urf-odatni ifodalovchi realiyalar: asliyat va tarjima”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (1): 132–137.

vositlardan biri hisoblanadi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan bunday soʻzlarni tarjimada adekvat talqin etish original milliy xususiyatini oʻzga tilda qayta tiklashdek murakkab muammoning eng masʼuliyatli va oʻta mushkul masalalaridan hisoblanadi. Chunki bunday holda tarjimon oldida oʻz xalqi uchun notanish, nomlari ham tilda mavjud boʻlmagan predmet, tushuncha va hodisalarni toʻla-toʻkis yetkazib berish, yaxshi anglatish vazifasi koʻndalang turadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda xalqlar turmush tarzini anglatadigan tushunchalarni qaysi vaqtlarda amaliy faoliyatning qanday sinalgan yoʻllari vositasida talqin etish lozimligi toʻgʻrisida yagona fikr uchramaydi. Tarjima ijodiy jarayon boʻlgani uchun bunday yagona fikrning uchrashi ham qiyin. Biroq turli ilmiy-tanqidiy mulohaza va xulosalar tarjimonga maʼlum darajada yoʻl koʻrsatib turadi, ularning umumiy tasavvurini boyitib, uning amaliyotda yuz berishi mumkin boʻlgan har xil tasodifiy toʻsiqlarni mohirona yengish malakasini paydo qiladi.

Lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni oʻrganishda realiya terminidan foydalaniladi. Realিয়া madaniyatlar oʻrtasida asosiy farqlarni koʻrsatadi, shuning uchun ham unga beriladigan taʼriflar turlichadir. [Xolmanova va b. 2018, 25].

### **Milliylikni ifodalovchi realiya birliklarini tarjimada talqin etish masalasi**

Milliylikni ifodalovchi realiya birliklarini tarjimada talqin etish masalasini amaliy jihatdan tahlil qilish lozim. Malakali tarjimon aksariyat hollarda muayyan matnda ishlatilgan xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlar funksiyasini qayta tiklash masalasi bilan shugʻullanadi. Bunda tarjimon originaldagi milliylikni – oʻzga xalq milliyligini tarjima tiliga mansub boʻlgan boshqa tushuncha bilan aralashtirib yubormasligi darkor. Asliyatda berilgan milliy ruh, aytaylik, bu Amerika xalqlari turmush tarziga oid soʻz boʻlsa, uni Osiyo xalqlari madaniyatiga oid tushuncha bilan bermaslik lozim, yaʼni originalni milliyashtirib qoʻymaslik shart.

Realিয়া birliklar tarjimasida tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til normalari va madaniyatini hazm qiladigan vositalarni tanlash zarur. Bunday tushunchalar bir qator xalqlar tafakkurida ham ayni bir xil aks etishi mumkin. Masalan, oʻzaro yaqin boʻlgan xalqlar: oʻzbeklar va tojiklar, ruslar-ukrainlar-beloruslar,

olmonlar-inglizlar-gollandlar yoki kavkaz xalqlari kabi madaniy va iqtisodiy jihatdan yaqin xalqlarda ko'plab so'zlar, tushunchalar, qarashlar, orzu-umidlar, xursandchilik va tashvishlar uyg'unligi mavjud. Bu tillardan o'zaro o'girmalardagi milliy bo'yoqlar uyg'unligi tarjimon uchun ayni muddaodir.

Shuningdek, milliy tushunchalar ifodasi uchun qo'llanadigan so'zlarning ko'pchiligi o'zga tilga ham aynan muvofiq tushunchalar berishi mumkin. Jumladan, Amerika xalqi qo'llaydigan ko'p so'zlar va milliy ruhda tushunchalar jahon xalqlarining globallashuvi natijasida umummilliylik kasb etib bormoqda. Bu so'zlar va iboralar jahon xalqlari lug'atidan allaqachon mustahkam o'rin egallagan. Xalqlar turmush tarzini keng ommalashtirishda televideniya, radio, kino va matbuotning roli beqiyosdir. Ushbu holatlar tarjimonga bir qator yengilliklar berishi tabiiy.

Bundan tashqari, u yoki bu xalq milliy tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik so'z va iboralarning ma'no va funksiyalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, siyosiy-iqtisodiy, savdo-sotiq kabi xilma-xil aloqalari natijasida bir qator xalqlarga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tushunarli bo'lib qoladi. Tarjimonlar bunday so'zlar va harakatlar uchun o'z tillarida so'z qidirib yurishlari shart emas, ularni transliteratsiya yo'li bilan ham beraveradilar.

“Transliteratsiya”, ya'ni so'zlarni tarjima qilmasdan originalda qanday talaffuz qilinsa, shunday qilib aytish yoki yozishdir [Salomov 1983, 35]. Bu usul tarjimon uchun eng samarali usul bo'lib, asliyatning milliy bo'yog'ini, ya'ni tarixiy vaziyat hamda personajlar ijtimoiy muhitini siqiq holda qayta tiklaydi. Shuning uchun ham tarjimonlar bu usuldan o'z faoliyatlarida unumli foydalanadilar.

Hozirgi kunda o'zbek tili jahonning boy tillaridan biriga aylangan ekan, uni bu darajaga yetkazgan omillardan biri lug'at tarkibidagi ko'pchilik o'zga xalqlar urf-odatlarini anglatadigan so'zlarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday fikrni ifoda eta olish qobiliyatini oshirib yuborganligidir.

### **Tarjimada milliylikni aks ettirish usullari**

Tarjimada milliylikni aks ettirish usullari haqida Sharq-u G'arb olimlari ko'plab tajribalar o'tkazgan va turli qonun-qoidalar yaratgan bo'lsalar-da, konkret asardagi milliy realiyalarni o'girishda doimo aniq bir ko'rsatma berib bo'lmaydi.

Hozirgi Sharq tillaridan G'arb tillariga yoki aksincha qilingan tarjimalar tahlili jarayonida tarjimashunoslik fani oldida turgan muammolar, bir qator turmush tarzida ko'plab o'xshashliklar

bo'lishidan tashqari, ularning san'atga, adabiyotga bo'lgan qarashlaridan ham uyg'unlikni sezish mumkin.

Qadim-qadimdan davom etib kelayotgan quda-andalik an'analari, umumiy bozor, mehnat vositalari va shakllarining ko'plab o'xshash tomonlari bor. Bularning hammasi birgalikda xalqlarimizning urf-odati, ma'naviy qarashlarida umumiy o'xshash tomonlarini yaratgan.

O'zbek millati va o'zbek xalqiga xos, o'zbek madaniy hayotini ifodalovchi realiyalarning tarjimada rus tilida berilishi haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, tarjimonlar ularni ifodalashda tarjimaning transliteratsiya usullaridan keng foydalanadilar. Quyida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romanining o'zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimasini tadqiq qilish asosida aniqlangan bir qator misollarni keltirib o'tamiz:

O'zbek madaniyatida chopon kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim [O'TIL 2008, 506] bo'lib, muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zbeklarning ko'pgina urf-odat va marosimlarida, xususan, beshik to'yi, fotiha, aza marosimlarida choponning alohida vazifasi mavjud:

*Бу қандай чопон?* [Qodiriy 2004, 47]. Unashilganidan bexabar Otabek tomonidan aytilgan ushbu gapning tarjimasini ko'ramiz:

*Что это за халат?* [Кадыри 2009, 53].

Rus tilining izohli lug'atida *халат* so'zi quyidagicha berilgan:

ХАЛАТ, -а, м. Домашняя или рабочая одежда, запахивающаяся или застегивающаяся сверху донизу [Ожегов, Шведова 1935, 985].

Yuqoridagi tarjimada choponning ustki kiyim ekanligi hamda shakli asos qilib olingan, biroq o'zbek milliy kiyimi o'zining mohiyatini yo'qotgan.

Hasanali nutqidan misol: *Дунёдан чароғчисиз бораман* [Qodiriy 2004, 47].

Ma'lumki, chiroq so'zi ko'chma ma'noda farzand yoki yaqin odam deganidir. O'zbek xalqida chirog'ini yoqish, ya'ni marhumdan keyin uning uy-joyini obod qilib asrash [O'TIL 2008, 493] kabi milliy tushuncha mavjud. Shu mazmundagi maqol ham bor: O'g'il yoqqan chiroqni qiz ham yoqar [O'TIL 2008, 493]

Ruscha tarjimada:

*А ни сына, ни дочери нет у меня* [Абдулла Кадыри 2009, 52].

Tarjimada ko'rinib turibdiki, farzandsizlik mohiyatan aks etgan, ammo marhumdan keyin uning uy-joyini obod qilib asrash



tushunchasi o'z aksini topmagan.

O'zbek urf-odatiga ko'ra, kelinni yoki yangi tug'ilgan bolani birinchi marta ko'rishda yaqin kishilar, qarindosh-urug'lar tomonidan beriladigan sovg'a ko'rmana deb ataladi. Asarning ruscha tarjimasida *подарка* tarzida ifodalangan bo'lib, biror sabab bilan sovg'a berish ma'nosi ochib berilgan, aynan kelinni yoki yangi tug'ilgan bolani birinchi marta ko'rishda beriladigan sovg'a semasi to'liq aks etmagan.

"O'tkan kunlar" asari tarjimasida milliy urf-odatlarni ifodalovchi realiya birliklar transliteratsiya (aynan ifodalash), izohlash va ekvivalent birliklar bilan ifodalash tamoyillari asosida tarjima qilingan: *nisholda* (нишалда), *yor-yor* (яр-яр), *tavanxona* (таванхана), *suunchi* (суюнчи), *bosh-oyog' kiyim* (полная сарпа), *o'g'ilmi yoki holva* (мальчик или халва).

### Xulosa

Deyarli ko'p o'rinlarda realiyalar muvaffaqiyatli tarjima qilingan bo'lsa-da, ba'zi o'rinlarda semantik jihatdan mos bo'lmagan tarjimalar ham uchraydi (choponning халат, hujraning комната, osh berishning угощение tarzda berilishi kabi). Bunday holatda realiya o'zining madaniy semasidan uzoqlashib, faqat vazifasiga ko'ra o'xshatilgan.

Realialarning ma'lum xalq madaniyatini ifodalovchi birliklar ekanligini inobatga olib, ularning asl mohiyatini tarjimada aks ettirish muhimdir. Buning uchun realialarni transliteratsiya qilib, ularning ma'no-mazmunini havola qilish, izohlash, sharhlash kabi usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Adabiyotlar

- Абдулла Кадири. 2009. *Минувшие дни*. Тошкент.  
 Абдулла Қодирий. 2004. *Ўткан кунлар*. Тошкент.  
*Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилд. Тошкент, 2008.  
 Саломов, Ф. 1983. *Таржима ташвишлари*. Тошкент.  
 Холманова, З., Саидахмедова, О., Нуруллаева, О. 2018. *Лингвокултурологияга оид тушунчалар тадқиқи*. Тошкент.

# Realities Representing Tradition: Originality and Translation

Ziyoda Kasimova<sup>1</sup>

## Abstract

Studying the relationship between language and culture is an interdisciplinary problem. The solution to this problem can be solved in several disciplines. One of them is cultural linguistics, which emerged as an independent branch of linguistics in the 1990s. Cultural linguistics is a new field that has emerged at the intersection of linguistics and cultural studies. Cultural linguistics studies the relationship between culture and language, the culture of the people, reflected in the language.

In reality, the connection between language and culture becomes even clearer: the emergence of new realities in the material and spiritual life of society leads to the appearance of corresponding words in the language. A distinctive feature of realities is that they have a substantive meaning. These lexical units are inextricably linked with culture and, as a linguistic phenomenon, quickly respond to all changes in the development of society; among them are such realities as neologisms, historicisms, archaisms. Each of these realities requires special attention in translation. Reality is what exists or still exists. According to lexical definitions, reality is a "thing of material culture". In linguistics and translation, words and phrases expressing objects are called realities.

**Key words:** *realia, realiarepresenting tradition, adequate translation, transliteration, interpretation, reference, footnote.*

## References

- Abdulla Kadiri. 2009. *Minuvshiye dni*. Tashkent.  
Abdulla Qodiriy. 2004. *O'tkan kunlar*. Toshkent.  
*O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jild. Toshkent, 2008.  
Salomov, G'. 1983. *Tarjima tashvishlari*. Toshkent.  
Xolmanova, Z., Saidaxmedova, O., Nurullayeva, O. 2018. *Lingvokulturologiya o'zgarishlarini tushunchalar tadqiqi*. Toshkent.

---

<sup>1</sup> *Ziyoda M. Kasimova* – Basic Doctoral Student, National University of Uzbekistan.  
**E-mail:** kasimova\_ziyoda1993@mail.ru

**For citation:** Kasimova, Z. M. 2021. "Realities Representing Tradition: Originality and Translation". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (1): 132–137.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

### III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

#### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

#### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

#### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### **VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi**

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

#### **VIII.1. Kitoblar uchun**

##### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

##### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

**Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi.** Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

**Elektron kitobni bibliografiyada berish:**Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

**VIII.2. Jurnal maqolasi uchun**

**Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

**Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

**Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

**Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

### VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

#### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

#### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

## GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### 1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

### 2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16<sup>th</sup> Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.



Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

### **3. Style and Usage**

#### **1) Translation**

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

#### **2) Names and Terms**

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

### **4. Quotation**

#### **1) Block Quotations:**

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

### **5. Others**

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## 6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

### BOOK

#### Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

#### In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

#### Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

#### In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

#### Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

#### In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

#### Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

#### In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

### BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

**Reference List (hanging indent):**

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

**In Text Cite:**

[Austen 2007, 101]

**Reference List (hanging indent):**

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

## JOURNAL ARTICLE

### Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

### Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

### Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

**WEBSITE**

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

**Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

**In text cite:**

[Google 2009]

**Reference List (hanging indent):**

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

**In text cite:**

[McDonald's 2008]

## IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot  
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

Bosishga 31.03.2021-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.  
Shartli b.t. 7,75. Nashr b.t. 8,25.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida  
tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.

